

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ISAAC NYUTON
(1643-1727)



2022

APREL

№39



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.tadqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
10-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-10**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-10**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 39-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 100 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ
ИННОВАЦИЯЛАР

1. Matyoqubova Fazilat BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITISH METODIKASI	9
2. Tirkasheva G.B. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KREATIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA USTOV VA TARBIYACHINING ROLI	11
3. Тургунова Нилуфар Абдусаломовна ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИНКЛЮЗИИ В ОБРАЗОВАНИИ	14
4. Nizomova Gulnoza Oybekovna, Xushnazarova Feruza Saydullayevna BOSHLANG'ICH SINF DARSLARIDA MULTIMEDIYA VOSTALARIDAN FOYDALANISHNING TA'LIM SAMADORLIGIDAGI O'RNII	16
5. Abdurahimova Mohira Numonjonovna MODULLI O'QITISH TEXNOLOGIYALARINI O'QUV JARAYONIDA QO'LLASHNING AHAMIYATI	18
6. Abdurahmanov Mahmudjon Makatkul o'g'li ZOMIN TUMANI "J"LOVCHI SHEVASIDA UCHRAYDIGAN AYRIM IBORALARNING O'ZARO SINONIMLIK MUNOSABATI	19
7. Abdusamatova Shaxodat Xojiakbar qizi, Adxamova Muhlis "DASTURLASH TEXNOLOGIYALARINI BOSQICHMA BOSQICH O'QITISH" MAVZUSINI "G'OYALAR BULUTI" METODIDAN FOYDALAIB TAHLIL QILISH TEXNOLOGIYALARI	21
8. Asrankulova Gulchehra Sobirjanovna BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGI- YALAR	23
9. Elchibayeva Nilufarxon Xakimdjano YOSHLARDA SOTSIAL-SUYOSIY YETUKLIKNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI	25
10. Jo'rayeva Gulnora Safarovna, Jumayeva Nigora Erkin qizi, Xayrudinov Abdulaziz Abdurashidovich TASVIRIY SAN'AT DARSLARINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH USULLARI	26
11. Meliboyeva Dilnoza Ergashevna TA'LIM JARAYONINING SAMARALI TASHKIL QILISHDA KEYS STADING METODIDAN FOYDALANISH	28
12. Narzullayeva Dilsora Shukrulloevna BOSHLANG'ICH SINFLARDA XALQARO BAHOLASH TIZIMLARIDAN FOYDALANISHNING MAZMUM MOHIYATI	29
13. Otaxonova Fotima Ulug'bekovna YOSHLAR QALBIGA MILLIY QADRIYATLARNI SINGDIRISHDA MADANIY MEROSLARNING AHAMIYATI	31
14. Qayumova Samigul Zokir qizi, Rajabaliyev Shodibek Amondullo o'g'li MAKTAB O'QUVCHILARIDA ART TERAPIYADAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	32
15. Shaxnoza Sattarova Qo'chqarovna KUNDALIK HAYOTDA VA ZAMONAVIY PEDAGOGLAR FAOLIYATIDA POZITIV KAYFIYATNING PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI	34
16. Sanayeva Shohista Ismoil qizi O'SMIRLIK YOSHIDAGI BOLALARNING XULQ-ATVORIDAGI O'ZGARISHLAR	37

17. Tolyaganova Ra'no Ilyasovna TURKIYLAR UYG'ONAYLIK! BIR TILDA SO'ZLASHAYLIK! YOXUD BUGUNGI KUNIMIZDA O'RTATURK TILI QANCHALIK DOLZARB?	39
18. Tovbayeva Feruza Baxtiyorovna KITOBXONLIK - MA'NAVİYAT SARCHASHMASIDIR	42
19. Tursunova Dilbar Abduraimovna MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY USULLARI.....	44
20. Umarov Djamshed Saytmurotovich YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTON SHAROITIDA TALABALARNING FUQAROLIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	46
21. Maxammadiyev Asadulla Sharofiddinovich, Bo'riqlicheva Gulchehra Ziyodullo qizi HAVODAGI CHANG MIQDORI VA BOSHQA BIRIKMALARNI ANIQLASH USULLARI.....	49
22. Aytimova Miyrigul Komekbaevna MEKTEPKE SHEKEMGI BALALAR SHOLKEMI SISTEMASI JEDEL RAWAJLANIW JOLINDA.....	52
23. Абдумуминова Озода Анваровна ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИ- ТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К РАБОТЕ В ЗАГОРОДНЫХ ДЕТСКИХ ОЗДОВОИ- ТЕЛЬНЫХ ЛАГЕРЯХ	53
24. Almatova Aliya Jalilovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIMIY DIDAKTIK O'YINLAR VA USULLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	55
25. Ametova Zamira Qazaqbaevna TEXNOLOGIYA PANININ ZARURLIGI HAM BASQA PANLER MENEN BAYLANISLILIGI.....	57
26. Babajanova Nodira Zaripboyevna AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI TADQIQOT JARAYONIDA QO'LLASH.....	58
27. Gulmanova Zauresh Seydaliyevna BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING SAVODINI CHIQUARISHDA INTERFAOL USULLAR VA O'YINLARDAN FOYDALANISH BO'YICHA TAVSIYALAR	59
28. Haydarova Zarnigor Doniyorovna OILADAGI SOG'LOM RUHIY MUHIT VA UNING FARZANDLAR TARBIYASIGA TA'SIRI	61
29. Nizamova Zamira Jo'raboyevna, Siddiqova Aziza Yoqubjanovna TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI	63
30. Raxmatova Dilbar Anvar qizi TALABALARDA YETAKCHILIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY ZARURATI.....	65
31. Плиева Руслана Владимировна ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ.....	68
32. Qozaqova Xurmatxon Tursunpolatovna, Homidova Xurshida Abdulboqiyeva BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATION TEXNOLOGIYALARNI O'RNINI.....	70
33. Qudratova Nilufar Rafiqovna, Rahimova Muqaddas Ramazonovna, Rahmonova Nodira Jamolovna, Bahronova Feruza Shavkatulloyevna TA'LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA.....	72
34. Samadov Vohih Tolibovich TEMUR TUZUKLARI TAMOYILLARI ASOSIDA TALABALARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH.	74

35. Xudayberganov Dilmurod Tuxtabayevich, Bekchanova Adolat Suttonmuratovna, Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna ZAMONAVIY TO‘GARAKLAR FAOLIYATINING SHAXS RIVOJLANISHIDAGI PSIXOLOGIK ANAMIYATI	76
36. А.Мусаев ТУРЛИ ЛИСОНИЙ ТУЗИЛМАЛАР ТАДҚИҚИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	78
37. Вафина Альфия Ильгизовна РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ	82
38. Ибрагимова Нилуфар Адхамовна МУСИҚА МАДАНИЯТИ ДАРСЛАРИДА МУСИҚА САВОДИ ЎРГАТИШ МЕТОДИКАСИ.....	84
39. Сарибоева Шахноза Мусурмоновна ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИ САМАРАДОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ПЕДАГОГИК КРЕАТИВЛИК ВА УНИНГ ЗАРУРИЯТИ	85
40. Муродимов Мансур Бахриддинович, Утенбаева Гульжазира Мухтаровна ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА.....	87
41. Isroilova Nilufar Xusanovna LISONIY MEROS – O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTINING POYDEVORI.....	90
42. Boboyorova Sevinchbonu Ikrom qizi SHAXSNI SHAKLLANTIRISHDA MULOQOT PSIXOLOGIIYASI	93
43. Usmonova Gavharshodbegin Toyir qizi, Jiyanova Ozoda Xolmanova МАКТАВ ТА’ЛИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА АМАЛИЙОТЧИ PSIXOLOGLARNING TUTGAN O‘RNI.....	96
44. Хожиев Талъат Тошпулатович ИЖТИМОЙ ИНФРАТУЗИЛМА ХИЗМАТЛАРИ КЎРСАТИШНИ РИВОЖЛАНТИРИШ	98



ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITISH METODIKASI

Matyoqubova Fazilat, Xorazm viloyati
Qo'shko'pir tumani 24-maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon: +998942367035

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarning jismoniy va psixologik rivojlanishida boshlang'ich ta'limning o'rnini, darslarni tashkil etishda turli metodik vositalar, axborot kommunikatsiyalaridan, ularning yoshi va qiziqishlariga mos didaktik o'yinlar va pedagogik texnologiyalardan foydalanish haqida so'z yuritiladi

Kalit so'zlar: metod, pedagogik texnologiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, didaktik o'yinlar, interfaol usullar.

Farzandlarimizning yuksak intellektual salohiyatli, har tomonlama yetuk va barkamol shaxs bo'lib ulg'ayishi ko'p jihatdan umumta'lim muassasalarida beriladigan ta'lim-tarbiyaga bog'liq. O'quvchilarning jismoniy va psixologik rivojlanishida boshlang'ich ta'lim davri muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham, mamlakatimiz ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalarini takomillashirish, ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalarni keng joriy etish kabi masalalarga alohida e'tibor berilmoqda.

Boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadi bolaning o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatini, yozma va og'zaki muloqot madaniyatini shakllantirish, mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini yuzaga chiqarish, turli ma'lumotlar bilan ishlash savodxonligini oshirish, olgan bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishi uchun samarali ta'limiy faoliyatni tashkil etishdan iborat. Bunda, avvalo, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining bilimi, salohiyati va kasbiy mahorati yuksak bo'lishi, shuningdek, ta'lim jarayonida turli pedagogik texnologiyalarni o'z o'rnida va oqilona qo'llay olishi muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich ta'lim-tarbiyaning keyingi bosqichlariga asos – poydevor vazifasini o'tashi, ayniqsa, bu davrdagi bolalarning yoshi, qiziqishlari va psixologiyasi o'ziga xosligidan kelib chiqadigan bo'lsak, mazkur bosqichda tashkil etiladigan darslar bolalar ruhiyatiga mos, qiziqarli hamda turli o'yinlarga asoslangan tarzda tashkil etilishi shart. Buning uchun o'qituvchi darsni to'g'ri tashkil etishi, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, tashabbuskorlikka, masalalar yechimini hamkorlikda topishga, fikrni yozma va og'zaki ravishda erkin bayon etishga o'rgatib borishi, shuningdek, dars jarayonida interfaol metod hamda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalardan o'z o'rnida va samarali foydalana olishi muhim omillardan sanaladi. Aytib o'tilgan omillarning uyg'unligi, ya'ni o'qituvchining qobiliyati, mahorati va zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalardan ta'lim sifati hamda samaradorligini kafolatlaydi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalarni qo'llashga bo'lgan talab va e'tibor alohida o'rin tutadi. Chunki an'anaviy ta'limda o'quvchilarga faqat tayyor holda bilimlar berilgan bo'lsa, zamonaviy ta'limda o'quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etadi. Bilimlarini mustaqil qidirib topish, tahlil qilish va asosda xulosa chiqarishga, fikrlarini erkin bayon etishga o'rgatiladi. O'qituvchi bu jarayonda ularni yo'naltirib, bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga qulay ta'lim-tarbiyaviy sharoit yaratadi. Darslarni zamon talablariga mos, samarali tashkil etish darslik hamda ular asosida yaratilgan turli metodik qo'llanmalar, ko'rgazmali qurollar hamda dars ishlanmalarining sifatiga ham bog'liq. Bugungi kunda maktab darsliklariga qo'yilgan talab juda yuqori. Shuning uchun ular mamlakatimizda turli darslik va o'quv adabiyotlari yaratishning ko'p yillik tajribasi hamda dunyo mamlakatlari ta'lim tizimida erishilgan yutuqlarni



qiyosan o'rganish, ularning eng maqbullaridan foydalanish asosida yaratilmoqda. Natijada darslik va o'quv qo'llanmalar bolalarning to'laqonli va sifatli ta'lim olishlarida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Interfaol ta'lim, o'z xususiyatlariga ko'ra, didaktik o'yinlar orqali. Kreativ ijodkorlik asosida, axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida amalga oshirishni ko'zda tutadi. Interfaollik, avvalo, o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik – o'quvchi-o'quvchi, ya'ni subyekt-subyekt munosabatlarida sodir bo'ladi. Interfaol ta'limda darslar shunday kechadiki, bunda ham o'quvchi chetda qolmay, eshitgan, o'qigan, ko'rgan bilganlari bo'yicha o'zaro fikr almashtirish va umumlashtrishasosida mustaqil ravishda xulosa 56 Ноябрь 2021 10-қисм Тошкент chiqarish, shu orqali olingan bilim, ko'nikma, malakalarni mustahkamlash jarayoni sodir bo'ladi. Qolaversa, bunday tarzda tashkil etilgan datslarda o'quvchilarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o'zaro do'stona munosabatlar shakllanadi. Boshlang'ich ta'limda interfaol metodlar o'quvchilarning yosh xususiyatlari, savodxonlik darajalariga mos didaktik o'yinlar, evristik suhbatlar, qiziqarli multimedialardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Matematika darslarida o'quvchilarning faolligini oshirish va fikrlash orqali o'zlashtirishlarini ta'minlash maqsadida multimedia ilovali dars ishlanmalari tayyorlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A. G'ulomov, M. Qodirov “Ona tili O'qitish metodikasi”. Toshkent. 2001-y.
2. B. Abdullayev, M. Toshpulatova. Matematika. Metodik qo'llanma. 2016-y.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KREATIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA USTOV VA TARBIYACHINING ROLI.

Tirkasheva G.B.¹

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institute
“Ko'rxona va tashkilotlarni boshqarish”
yo'nalishi 1 kurs magistranti.
elbekshermatov9@gmail.com
+998905394989

ANOTATSIYA: Ushbu maqolada boshlang'ich snif o'qituvchilarining kreativligini oshirish, boshlang'ich snif o'qituvchilari o'z o'quvchilarining ustida ishlash yo'larini o'rgatuvchi metod va ma'lumotlarni berib o'tadi. Mazkur maqolada berilgan ma'lumot asosida o'qituvchilar, ota onalar, talabalar o'zlari uchun kerakli tavsialarni, ma'lumotlarni olishlari mumkin bo'ladi.

KALIT SO'ZLAR: ta'lim, metodika, tafakkur, kreativlik, belgi, mashq, fikrlash, ijodkorlik, erkinlik, tafakur, kreativ qobiliyat.

Ijodkorlik yoki ijodiy qobiliyatlar - bu cheksiz fikrlash, yangi echimlarni topish va g'oyalarni yaratish qobiliyati.

Ijodkorlik - bu aql va tasavvur mahsulidir. Aql-idrok tufayli odam fikr yurita oladi, axborotni tahlil qiladi, sabab-natija munosabatlarini tushunadi, xulosalar chiqaradi. Tasavvur sizga odatiy naqshlardan tashqariga chiqish, stereotiplardan voz kechish, muammolarni hal qilishning yangi usullarini ko'rish imkonini beradi. Kreativlik so'zini ilk bor 1922-yilda AQSh olimi D. Simpson tomonidan qo'llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan vozkechish qobiliyatini ta'riflagan. Kreativlik so'zini ilk bor 1922-yilda AQSh olimi D. Simpson tomonidan qo'llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini ta'riflagan.

Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik – bu insonning shaxsiy xususiyati bo'lib, uning o'z-o'zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog'liq. Kreativlik bilan shaxs va intellektual xossalar taqqoslangan tadqiqotlar katta ahamiyatga egadir. Intellektual xossalar bilan taqqoslash bo'yicha tadqiqotlar Dj. Gilford tomonidan amalga oshirilgan.

Boshlang'ich ta'lim – bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta'lim turidan biri bo'lib, ta'limning bu bosqichida pedagog o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklatiladi. Ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi hali maxsus o'rganishni talab etmoqda.

O'quvchilar o'z-o'zidan kreativ bo'lib qolmaydi. Uning kreativ qobiliyati

ma'lum vaqt ichida izzatli o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. O'qituvchilar o'quvchilar bilan hamkorlikda ish yuritib, ularning har bir fikrini inobatga olishi va buni o'quvchiga sezdirishi kabi muhim vazifalarni bajarish orqali o'quvchilarni o'zgacha yondashuvli ya'ni kreativ bo'lishlariga erishishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga muammoli masala va vaziyatlarni berib, o'quvchining masala yechimini topishga ijodiy yondashishi undagi hissiy irodaviy sifatlarni rivojlanishiga yordam beradi. Bu o'quvchilarni o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishiga imkoniyat, ichki ehtiyojning oshishiga turtki bo'ladi.

«Kreativlik» tushunchasi «ijod» tushunchasi bilan bog'liq. Biroq, «kreativlik» tushunchasi tegishli lug'atlarda munosib differentsiyasini topmagan va ijod psixologiyasida yetarlicha aniqlanmagan. O'nlab ilmiy ishlarda kreativlikning u yoki bu qirralariga turlicha yondashib, har xil darajada qamrab olinayotganligiga qaramasdan, hozirgacha na muammoning o'ziga va na unga taalluqli bo'lgan amaliy savollarga nisbatan yagona to'xtam mavjud emas.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda kreativlik va ijodkorlik aynan bir xil ma'no anglatmaydi degan fikrga keldik. Chunki, ijodkorlik deganda barchaning ko'z o'ngiga ma'lum bir narsani ixtirosi, chizmasi va hokazolar kelishi mumkin.

Lekin biz tadqiqotimizda kreativlikni, dars jarayonida berilgan vazifaga hech kimnikiga o'xshamas yo'l topish va uni ilmiy asoslay olish, yangicha fikrlash, uni tadbiq eta olish qobiliyati



deb oldik. Ya'ni biz tadqiqotimizda ta'lim sohasiga oid kreativlikni ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasini ko'rib chiqamiz. Kreativlik ijodkorlikka nisbatan kengroq tushuncha degan fikrga keldik.

Devid Lyuisning bolalarda kreativlikni rivojlantirishga oid ko'rsatmalari:

- 1. Bolalarning savollariga chidam bilan to'g'ri javob bering.
- 2. Ularning savollari va fikrlarini jiddiy qabul qiling.
- 3. Bolalarga o'z ishlari bilan shug'ullanishlari uchun alohida xona yoki burchak ajrating.
- 4. Agarda ijodiy jarayon bilan bog'liq bo'lsa, u holda bolani xonadagi tartibsizlik uchun koyimang.
- 5. Vaqti-vaqti bilan bolalarga ularni yaxshi ko'rishingizni va ularni qanday bo'lsalar, shunday qabul qilishlarini namoyon eting.
- 6. Bolalarga imkoniyatlariga mos yumushlarni buyuring.
- 7. Ularga shaxsiy rejalarini ishlab chiqish va qarorlar qabul qilishga ko'maklashing.
- 8. Bolalarga faoliyatlarda yuqori natijalarga erishishlariga yordam bering.
- 9. Kamchiliklarini ko'rsatgan holda bolani boshqalar bilan solishtirmang.
- 10. Bolani kamsitmang va o'zini yomon, ojiz deb hisoblashishiga yo'l qo'ymang.
- 11. Uni mustaqil fikrlashga o'rgating.
- 12. Bolani sevimli mashg'ulotini tashkil etishi uchun zarur buyumlar bilan qurollantiring.
- 13. Uni turli voqealarni o'ylab topishga, fantaziya qilishga majburlang, bu jarayonda unga yordamlashing.
- 14. Bolani yoshlikdan o'qib-o'rganishga odatlantiring.
- 15. Doimo bolaning ehtiyojlariga e'tibor qarating.
- 16. Har kuni bola bilan yuzma-yuz suhbatlashish uchun vaqt toping.
- 17. Oilaga oid masalalarning muhokamasiga bolalarni ham jalb qiling.
- 18. Xatolari uchun bolani masxara qilmang.
- 19. Bolani har bir yutug'i uchun maqtang.
- 20. Uning yutuqlarini maqtashda samimiy bo'ling.
- 21. Bolani turli yoshdagi kishilar bilan muloqot qilishga o'rgatib boring.
- 22. Uning borliqni anglashiga yordam beradigan amaliy tajribalarni o'ylab toping.
- 23. Bolaga turli latta-puttalar bilan o'ynashni taqiqlamang – bu uning tasavvurini boyitadi.
- 24. Uni muammoni topish va uni hal qilishga rag'batlantiring.
- 25. Bolaga nisbatan o'z munosabatingizni baholashda odil bo'ling.
- 26. U bilan muhokama qilinadigan mavzularni cheklamang.
- 27. Bolaga qarorlarni mustaqil qabul qilish va uning uchun javobgar bo'lish imkonini bering.
- 28. Bolaga uning shaxs bo'lib shakllanishi uchun yordam bering.
- 29. Bolaga uning uchun foydali bo'lgan teleko'rsatuvlarni tomosha qilishi va radio eshittirishlarni tinglashi uchun ko'maklashing.
- 30. Uni o'z qobiliyatlarini ijobiy qabul qilishga odatlantirib boring.
- 31. Bolani kattalardan mustaqil bo'lishga o'rgatib boring.
- 32. Bolaga “Men ham buni bilmayman” deb, uni muvaffaqiyatsizliklarga bee'tibor bo'lishga o'rgatmang.
- 33. Bolaga, garchi u ishning ijobiy natijaga ega bo'lishiga ishonmasa-da, boshlangan ishni oxiriga etkazishi uchun imkoniyat yarating.
- 34. Kundalik daftar yuriting va unga bolada kreativ qobiliyat shakllanishini qayd etib boring.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: “O'zbekiston”, 2017 yil, 488 bet.
2. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O'zbekiston”, 2016 yil, 56 bet.
3. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” moduli bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. :— Toshkent 2015,40 bet
4. Davletshin M.G., Do'stmuhamedova Sh., Mavlanov M., To'ychiyeva S. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. (O'quv metodik qo'llanma). Nizomiy nomidagi TDPU. 2004-yil. 102 b. 46-47 betlar.
5. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik moduli bo'yicha



- o'quv-uslubiy majmua – Toshkent. 2016
6. Jo'rayev P.X., Raximov B.X., Xomatov SH.F. Yangi pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta'lim aasoslangan o'quv-metodik qo'llanma. –T.: Fan, 2005, 66 b.
7. Adizov B. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped. fan. dok. ... dis. –Toshkent, 2003. – 276 b.
8. Aliyev A. O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyati. –Toshkent: O'qituvchi, 1991. 40bet.
9. file:///E:/Downloads/boshlang-ich-sinf-o-quvchilarida-kreativ-qobiliyatlarni-rivojlantirishda-o-qituvchining-rol.pdf
10. <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-sinf-o-quvchilarida-kreativ-qobiliyatlarni-rivojlantirishda-o-qituvchining-rol/viewer>
11. <http://library.ziyonet.uz/uz/book/11881>.



ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИНКЛЮЗИИ В ОБРАЗОВАНИИ

Тургунова Нилуфар Абдусаломовна

преподаватель кафедры «Дошкольное образование»

Гулистанский Государственный Университет

Телефон: +9989110014453

nilush@inbox.ru

Аннотация. В статье представлена авторский взгляд на методологические основы инклюзии, в частности предпринята попытка анализа понятийного аппарата инклюзивной педагогики. Раскрываются узкий и широкий смыслы понимания терминов «инклюзия» и «инклюзивное образование». По уровням методологии инклюзивной педагогики охарактеризованы её компоненты, кратко показана сущность методологических составляющих.

Ключевые слова: инклюзия, инклюзивное образование, образовательная интеграция, методология, методологический подход, инклюзивная педагогика, философский, общенаучный, научно-научный и технологический уровни методологии, социальная и биологическая модели инклюзии, приспособленное обучение.

Главная проблема современной инклюзивной педагогики, которая в России еще не достигла своего должного развития, – недостаточная разработка теоретической и методологической базы интегрированного и инклюзивного образования. Однако в нашей стране более 2 млн. детей относятся к категории детей с ограниченными возможностями (8% всей детской популяции). Дети с инвалидностью составляют около 700 тысяч человек. При этом наблюдается ежегодное увеличение численности данной категории детей. Инклюзивное образование – это:

- Более гибкий подход к обучению, уникальный процесс доступного образования для каждого, в котором ликвидированы барьеры, связанные с непохожестью обучаемых, и созданы условия для самораскрытия потенциалов человека [1]; при этом выигрывают все дети.

- Процесс совместного образования типичных и Других / нетипичных обучаемых, в котором реализуется методика индивидуального подхода, учитывающая интеллектуально-личностный потенциал, который развивается, переводится в созидательное русло и оценивается в позитивном плане.

- Такая специфическая форма организации процесса обучения, при которой ВСЕ дети, независимо от их физических, психических, интеллектуальных, культурно-этнических, языковых и иных особенностей, включены в общую систему образования и обучаются по месту жительства вместе со своими сверстниками без инвалидности в одних и тех же общеобразовательных школах, которые учитывают их особые образовательные потребности и оказывают своим ученикам необходимую специальную поддержку. Инклюзивное обучение детей с особенностями развития совместно с их сверстниками – это обучение разных детей в одном классе, а не в специально выделенной группе (классе) при общеобразовательной школе [2]. Инклюзия является процессом увеличения степени участия каждого отдельного учащегося в академической и социальной жизни школы, а также процесс снижения степени изоляции учащихся во всех явлениях, протекающих внутри школы. Инклюзия призывает к реструктуризации культуры школы, ее правил и внутренних норм и практик для полного принятия всего многообразия учеников, с их личными особенностями и потребностями. Каждый ребенок имеет право получать образование в школе рядом со своим домом. Инклюзия подразумевает наличие тесных, близких, основанных на дружбе отношений между школами и обществом. Таким образом, инклюзия – это процесс развития предельно доступного образования для каждого в доступных школах и образовательных учреждениях, формирование процессов обучения с постановкой адекватных целей всех учеников, процесс ликвидации различных барьеров для наибольшей поддержки каждого учащегося и максимального раскрытия его потенциала [3]. Инклюзия как своеобразная философия удовлетворяет потребности в образовании, раскрывает и развивает индивидуальные способности, поддерживает и придает уверенность, способствует хорошей адаптации, социализации, самореализации, приобретению опыта (коммуникативного, социального,



психологического). Итог – гармонически развитая личность, не дистанцирующая себя от общества и не чувствующая отчуждения, способная к самостоятельной и полноценной жизни в обществе [1].

«Узкий» смысл инклюзии (инклюзивного образования):

– Инклюзивное образование (Inclusif– включающий в себя, Include– заключаю, включаю, вовлекаю) – один из процессов трансформации образования, основанный на понимании, что инвалиды в современном обществе могут (и должны) быть вовлечены в социум. Данная трансформация ориентирована на формирование условий доступности образования для всех, в том числе обеспечивает доступ к образованию для детей с особыми образовательными потребностями. [5]. Это не просто модное веяние нашего времени, а естественный этап в развитии мировой системы образования вообще – и подходов к образованию особенных детей, обладающих специальными образовательными потребностями в силу ограниченных возможностей своего здоровья (ОВЗ)[7]. Это одно из основных направлений реформы и трансформации системы специального образования во многих странах мира, цель которой – реализация права на образование без дискриминации. [2]. – Инклюзия (от inclusion – включение) – процесс реального включения людей с инвалидностью в активную общественную жизнь. Инклюзия предполагает разработку и применение конкретных решений, которые позволят каждому человеку равноправно участвовать в общественной жизни [8]. Сегодня в науке сосуществуют понятия, близкие по смыслу понятию «инклюзия» (инклюзивное обучение). Это – понятия «интеграция», «приспособленное обучение». Что же, собственно, предполагают собой понятия интеграции и приспособленного обучения? По мнению норвежского педагога Г. Иттерстад [9], принцип инклюзии детей с ОВЗ можно считать продолжением школьной реформы 1970–80-х гг., нацеленной на интеграцию. Понятие интеграции привязывается к конкретному индивиду или группе индивидов с особыми потребностями, которые и должны приспособливаться к сложившейся системе. [10]. Самые разные источники утверждают, что инклюзия – это скорее идеологическое понятие, поэтому оно в большей степени отражает определенную позицию по данному вопросу, нежели описывает практику ее внедрения [10]. В условиях определения стратегии и тактики решения обозначенной проблемы – недостаточной разработки теоретико-методологической базы инклюзивного образования – задача всех заинтересованных субъектов общества сегодня заключается в интегрировании усилий в «горячих точках» развития инклюзивной педагогики, специальной психологии и других сопровождающих наук, а также соответствующей образовательной практики.

Список литературы:

1. Педагогика и психология инклюзивного образования [Текст]: учеб. пособие / Д.З. Ахметова, З.Г. Нигматов, Т.А. Челнокова, Г.В. Юсупова и др. – Казань: Изд-во «Познание» Института экономики, управления и права, 2013. – 256 с.
2. Что такое инклюзия в образовании [Электронный ресурс] / URL: <http://perspektiva-inva.ru/inclusive-edu/law/vw-371/http://perspektiva-inva.ru/inclusive-edu/law/vw-371/>.
3. Emanuelson I. Integrering og konsekvenser av integreringsideologien. I: Haug P. (red.) Spesialpedagogiske utfordringer. Universitetsforlaget, Oslo, 1995.
4. Пургина, Е. И. Философские основы инклюзивного образования в контексте специального федерального государственного образовательного стандарта для детей с ограниченными возможностями здоровья [Текст] / Е.И. Пургина // Педагогическое образование в России. – 2014. – № 2. – С. 152–156



BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA MULTIMEDIYA VOSTALARIDAN FOYDALANISHNING TA'LIM SAMADORLIGIDAGI O'RNI

Nizomova Gulnoza Oybekovna

Namangan viloyati Mingbuloq tumani

45- sonli maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Xushnazarova Feruza Saydullayevna

Namangan viloyati Mingbuloq tumani

45- sonli maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim tizimini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, zamonaviy texnologiya vositalari orqali ta'lim oluvchilarga ta'lim berishda qo'llanilayotgan usul va vositalar haqida tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, innovatsion texnologiya, zamonaviy ta'lim, ta'lim oluvchi, innovatsion usul, multimedia vositalari, videodars loyihasi.

Ta'lim yangi bosqichga ko'tarilmoqda, o'quvchilar fikr darajasi kengaymoqda, axborot olish osonlashmoqda, bunday o'sish jarayonida o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanmaslik darsning samaradorligini pasaytirib yuboradi.

Boshlang'ich ta'lim tizimini rivojlantirishdagi asosiy tamoyillardan biri ta'lim tuzilishini va mazmunini isloh qilishdir. Buning uchun yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash, ta'lim bo'yicha kadrlarning faoliyatini uyg'unlashtirish, ta'lim innovatsiyalari, ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish asosiy vazifamizdir. Boshlang'ich ta'limda dastlab o'qituvchi faoliyatini o'zgartirmay turib, ta'limda bir qadam ham oldinga siljib bo'lmaydi. Shuning uchun boshlang'ich ta'limni rivojlantirishda bo'lajak mutaxassislar faoliyati va yangilikka intilish motivatsiyasini, bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirib, belgilangan maqsadga yo'naltirishimiz lozim.

Boshlang'ich ta'limda innovatsion jarayonlarni amalga oshirish, bu tizimga yangiliklar kiritish, o'quv jarayonlarining tuzilishini yangilash, avvaldan mavjud bo'lgan holatdan o'zgargan, farq qiluvchi ta'limni takomillashtirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash, yaxshi natija beradigan mexanizmlarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish kerak. Tajribadan o'tgan, ketma-ketlikda qo'llanadigan innovatsion texnologiyalar kafolatlangan natijani beradi. Bunday innovatsiyalar o'qitishning muayyan vazifalarini hal qilish uchun tayyor texnologik xarita vositasini bajaradi. Boshlang'ich ta'limni rivojlantirish, zaruriy darajadagi natijani olish uchun ta'lim tizimini takomillashtirish, bajarayotgan funksiyasini ijobiy tomonga yo'naltirish, zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish kerak.

Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanilganda o'qituvchining mahorati va ta'lim oluvchining mustaqil ishlash ko'nikmasi shakllanib boradi. Innovatsion texnologiyalardan boshlang'ich ta'limda eng ko'p qo'llanilayotganlari multimedia va videodarslar hisoblanadi. Ta'lim tizimida multimedia texnologiyalaridan foydalanish ta'lim oluvchilarda shaxsiy individual xususiyatlari, o'quv jarayonlarida faolligi, har bir mavzuga ijodiy yondashuvi va axborot bilan ishlash kompetensiyalarining rivojlanishiga olib keladi.

Ta'lim jarayonida multimedia vositalarini ishlatish haqida ma'lumotga ega bo'lmagan o'qituvchi ta'lim sifatining pasayishiga sababchi bo'lib qoladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda yangidan tashkil qilingan ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalar, multimedia vositalari va videodars loyihalari ishlab chiqilgan bo'lib, xalqaro tajribalar imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmoqda. Boshlang'ich ta'limda multimedia texnologiyalari, videodarslar o'quv-tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshiradi. Zamonaviy ta'lim o'qituvchi va o'quvchining fanlarga bo'lgan qiziqishini ortishiga, o'qitishning samaradorligini oshishiga, hajmi katta bo'lgan o'quv materiallarini o'rganishga ketadigan vaqtni ancha qisqartirilishiga xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalar o'quv jarayonida ta'lim oluvchining dars mashg'ulotlari davomida o'z fikrini ayta olishiga, munozara va muhokamalarda ishtirok etishiga, bilimni mustahkamlashga, o'z ijodkorligiga va tajribasiga suyana olishiga, axborot vositalari haqida boshlang'ich tushunchaga ega bo'lishiga, belgilangan fanlardan kerakli tushunchalarni ajrata olishiga, vazifa qilib beriladigan test, boshqotirmalar, savollarga to'g'ri javobni izlash ko'nikmalarining shakllanishiga o'zining yetarlicha ta'sirini ko'rsatadi. Umumiy



o'rta ta'lim tizimida har bir o'qituvchi shaxsiy kompyuteriga ega bo'lishi kerak. Chunki shaxsiy kompyuterga ega pedagog undan har bir darsda foydalanadi. Bunday texnik vositalarning mavjudligi o'quv jarayonida multimedia vositalaridan keng foydalanish imkoniyatini beradi. Nazariy tomondan o'rganilgan bilimlarni amaliyotda bajarishga olib keladi.

Videodars loyihasida o'qituvchi mahorati alohida ahamiyatga ega. Bunday darslar ta'lim oluvchilarning individualligini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ularning shaxsiy intellektual va amaliy sohalarini qamrab oladi. Videodarsni o'quvchi o'z uyidan turib ham o'rganishi mumkin. Bugungi kunda “Online maktab” loyihasi asosida tashkil qilinayotgan televizion videodarslar buning yorqin misolidir. Videodarslar o'quvchini o'z-o'zini boshqarishga, o'z-o'zini anglashga, individual harakat qilishga chorlaydi. Maktab o'quvchilari uchun televideniya orqali berilayotgan videodarslarni tayyorlash va uni tasvirga olish bo'yicha soha xodimlaridan iborat tashkiliy-ijodiy guruh ish faoliyatini amalga oshirmoqda. Video darslarning afzallik tomoni shundaki, o'quvchilar ta'til paytida ham mustaqil tarzda bilim olishlari mumkin. O'qituvchilar ota-onalar bilan hamkorlikda telefon yoki internet texnologiyalaridan foydalangan holda o'quvchilarga bilim olishlari uchun tavsiyalar berib borishadi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiya bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda o'quvchilarga yangi bilim berishdan iboratdir. Ta'lim oluvchilarni bilimli, intellektual salohiyatli qilib tarbiyalash va axborot bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirish uchun bugun biz pedagoglar doimo oldinga qarab intilishimiz, boshlang'ich ta'limni rivojlantirish yo'lida yaratilayotgan innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishimiz va har tomonlama o'z kasbimizga sadoqat bilan xizmat qilishimiz kerak.

Foydalanilagan adabiyotlar ro'yxati

1. Mamarajabov M. Kompyuter grafikasi va Web dizayn. Darslik, T: 2013.
2. “Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”. Tal'at G'afforova. “Tafakkur” nashriyoti Toshkent-2011.



MODULLI O‘QITISH TEXNOLOGIYALARINI O‘QUV JARAYONIDA QO‘LLASHNING AHAMIYATI

Abdurahimova Mohira Numonjonovna

Farg‘ona viloyati Yuridik texnikumi
o‘quv bo‘limi uslubchisi

Annotatsiya: maqolada modulli o‘qitish texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashning ahamiyati va ustun tomonlari yoritilgan.

Kalit so‘zlari: modulli o‘qitish, ta’lim dasturi, modullikompetentli.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar pirovard natijada jahon talablari darajasidagi bilim va malakalarga ega, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni ko‘zda tutadi. Bu vazifalarni amalga oshirish maqsadida ishlab chiqilgan Davlat ta’lim standartlari, o‘quv rejalari hamda dasturlarida rivojlangan davlatlar tajribasidan o‘tgan bilim va malakalar tizimi o‘zining ijodiy aksini topmoqda. Ushbu tizimda kadrlar kasbiy ko‘nikmalarini shakllashtirish va rivojlantirish ham o‘zining ahamiyati va ko‘lami bilan muhim o‘rin tutadi.

Modulli o‘qitish ancha yillardan beri fanlarni o‘rgatishda qo‘llanilib kelinmoqda. Modulli o‘qitish – o‘qitishning istiqbolli tizimlaridan biri bo‘lib hisoblanadi, chunki u ta’lim oluvchilarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir.

O‘.Tolipov modullashgan texnologiyaning afzalligi haqida quyidagicha fikr bildiradi: “Modullashgan texnologiyaning afzalliklaridan biri – ta’lim mazmunini tartibga solishdan iborat bo‘lib, bunda mavjud axborotdan shundaylarinigina qat’iylilik va qunt bilan tanlab olish kerakki, ular davlat ta’lim standartlari doirasida talabalar faoliyatini yetarli darajada muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini berishi lozim”.

Kasbiy-pedagogik tayyorgarlik jarayonida ta’limning nazariy, amaliy va ijtimoiy jihatlarini birlashtirish orqali ta’lim jarayonida qator yangi imkoniyatlar hosil bo‘ladi, modullikompetentli yondashuv asosidagi ta’limni amalga oshirish uchun qo‘shimcha didaktik shart-sharoitlar yaratiladi, ya’ni:

1. bilimlarning tizimliliigi va fanlararo integratsiyasi ta’minlanadi;
2. ta’lim mazmunining dinamik ravishda kengayib borishiga imkon yaratiladi;
3. ishlab chiqarish texnologiyalariga mos ravishda mutaxassislarning faoliyat yuritish rejalarini tuzish imkoniyatlari paydo bo‘ladi;
4. funksional vazifalari va majburiyatlari bilan tanishtiriladi;
5. harakatlar va bajariladigan ishlarni amalga oshirishning yo‘llari ko‘rsatiladi;
6. bo‘lajak mutaxassislarning lavozimga oid va shaxsiy manfaatlari hisobga olinadi.

Oliy kasbiy ta’limda modulli -kompetentli yondashuv asosidagi o‘quv jarayoni shunday tashkil etiladiki, bunda ta’limning maqsadi sifatida ta’lim oluvchining kasbiy kompetensiyalarining yig‘indisi, unga erishish vositasi sifatida esa kasbiy ta’limning mazmunini va tuzilmasini modulli tarzda qurish hisoblanadi. Modul ta’lim dasturining muayyan kasbiy kompetensiyani yoki kompetensiyalar guruhini shakllantirishga qaratilgan mustaqil birligi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, modul – ta’lim dasturining bir yoki bir nechta kompetensiyani shakllantiruvchi tugallangan birligi hisoblanadi hamda ta’lim oluvchilarning bilim va ko‘nikmalarining nazorati bilan yakunlanadi. Demak, modulli ta’lim dasturi muayyan kompetensiyalarni egallashga qaratilgan bo‘lib, ma’lum ketma-ketlikda joylashgan modullarning yig‘indisidan iborat.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, modulli o‘qitish dasturining tuzilishi, o‘quv vositalari, tashkiliy ishlarining sifatiga ham baho berish mumkin. Natijalarni muntazam baholab borish aniq va adolatli xulosalarga olib keladi. Baholashda mazkur xulosalarning umumlashtirilishi baholashning aniq bo‘lishiga yordam beradi. Talabani muntazam ravishda o‘z natijalari to‘g‘risida xabardor qilib turish uning maqsad sari intilishi va istaklarining amalga oshirishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5349-son Farmoni.
2. O‘rinov V. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushuncha va qoidalar. – T.: 2020



ZOMIN TUMANI “J”LOVCHI SHEVASIDA UCHRAYDIGAN AYRIM IBORALARNING O‘ZARO SINONIMLIK MUNOSABATI.

Abdurahmanov Mahmudjon Makatkul o‘g‘li,
O‘zMU Jurnalistika fakulteti magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zomin tumani “j”lovchi shevasi vakillari nutqida uchraydigan frazemalarning semantik xususiyati, ya’ni sinonimlik hodisasi, shuningdek, bu dialekt vakillari tilidagi iboralarning yerlik aholi urf-odati, turmush tarzi, madaniyati va dunyoqarashini o‘zida ifodalashi haqida gap boradi.

Kalit so‘zlar: sinonim, semantik, ibora, frazema, so‘z-komponent, dialekt, zominliklar, “j”lovchi sheva vakillari.

Sinonimlar til birliklari orasidagi semantik tuzilishlarning kichik bir turi bo‘lib, iboralar orasida ham anchaginani tashkil qiladi. Zominliklar tilida ham sinonimni iboralar yetarlicha uchratish mumkin. Ikki iborani sinonim deb olishimiz uchun, albatta, ular aynan bir ma’noni anglatishi zarur hisoblanadi¹. Busiz sinonimiya haqida gapirib bo‘lmaydi. Aynan bir ma’nolikni teng ma’nolik deb bo‘lmaydi. Har bir sinonim, shu sinonimiya uyasi uchun umumiy ma’no birligidan tashqari, o‘ziga xos ma’no qirrasiga ega bo‘ladi.

Sinonimlar odatda bir yoki bir necha jihatda farqqa ega bo‘ladi, shulardan biri ma’no jihatidan farq bo‘lishi mumkin. Masalan, adabiy tilda mavjud bo‘lib, zominliklar nutqida tovush o‘zgarishi hodisasi bilan uchraydigan *jer minan jaksan bo‘maq* (yer bilan yakson bo‘lmoq) iborasi *kulini ko‘kka suvurmoq* (suvurmoq) iborasiga sinonim: aynan bir ma’noni anglatadi (“butunlay yakson qilmoq, yo‘q qilmoq”). Shuningdek, *murni ko‘tarildi* (burni ko‘tarildi) iborasi bilan *dimog‘i ishti* (dimog‘i ishdi) iborasi ham bir-biri bilan sinonimik qatorni hosil qila oladi. Bu sinonimlar, boshqa belgi xususiyatlaridan qat’iy nazar, ma’no qirralarida farq qiladi: yuqoridagi ibora juftlilarining har ikkinchilarida ma’no tomoni birinchilarinikaga qaraganda bir qadar kuchliroq.

Frazeologik sinonimlarni belgilashda ular asosida boshqa-boshqa obrazning yotishi ham hisobga olinadi. Masalan, *bir ovuz* (og‘iz); *bir shingil*; *bir chimdim* sinonim iboralari asosida har xil obrazlar yotadi; so‘zlash organi; bir bosh uzumning qismi; chimdib olinadigan miqdor.

Sinonim iboralarni bir iboraning varinatlaridan farqlash kerak, deydi Shavkat Rahmatullayev o‘zining izohli frazeologik lug‘ati kirish qismida. Buning uchun u iboralarning tarkibiy tuzilishiga diqqat qilish kerakligini, leksik tarkibida aynan bir so‘z–komponent qatnashmaydigan iboralarning sinonim ekanligi shubha tug‘dirmasligini ta’kidlaydi. Misol tariqasida u “butun tafsiloti bilan, mayda-chuydasigacha” ma’nolarini anglatadigan *ipidan ignasigacha*, *miridan sirigacha*, *qilidan quyrug‘igacha* iboralarni keltirib, ular o‘zaro sinonim bo‘lishini, sababi ular tarkibida umumiy so‘z – komponent yo‘qligini aytib o‘tadi. Baholanki, zomin “j”lovchi sheva vakillari ishlatadigan iboralar orasida ham huddi shu frazemalarning tovush o‘zgarishiga uchragan “variant” lari mavjud: *jibidan iynasigacha* kabi.

Sinonim iboralar tarkibida biror komponent ayni bir so‘z bilan ifodalangan bo‘lishi mumkin. Ammo bunda iboralar tarkibidagi boshqa-boshqa so‘z bilan ifodalangan componentlar o‘zaro sinonim bo‘lmasligi shart. Aks holda bir iboraning variantlariga teng bo‘ladi¹.

Masalan, *janini hovuchlab* va *juragini hovuchlab* - sinonim iboralar: bir leksik komponent ayni bir so‘z bilan ifodalangan va bular o‘zaro sinonim emas.

Ko‘ngliga tuymaq bilan *juragiga tuymaq* o‘zaro bir iboraning variantlariga teng, chunki bir leksik birligi ayni shu so‘zning o‘zi, ikkinchi leksik componentlar esa o‘zaro sinonim.

Sinonimiya – ma’no asosida belgilanadigan hodisa. Ayni bir ma’nolilik monosemantik frazeologik birliklarda ibora bilan ibora orasida belgilanadi. Agar sinonimik munosabatda ko‘p ma’noli ibora qatnashsa, iborada emas, balki aniq frazeologik ma’nodan kelib chiqishi lozim.

Sinonimik munosabatda qatnashuvchi (bir sinonimiya uyasiga birlashuvchi) iboralarning

¹ Shavkat Rahmatullaev. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati // “O‘qituvchi” nashriyoti. Toshkent – 1978. 6-bet.



miqdori ham har xil bo'lishi mumkin. Zomin qishloqlari nutqida tarqalgan iboralar orasida ham ikkiki, uch sinonimli uyalar anchaginani tashkil qiladi. Masalan, “*murni ko'tarildi*” iborasining “*dimag'i ishti*” kabi manodoshi mavjud bo'lib, ikkinchi iborada ma'no ottenkasi birinchi iboraga qaraganda kuchliroq. Shavkat Rahmatullayevning izohli lug'atida *oilaviy hayot kechirmoq* ma'nosini bildiruvchi “*bir jostiqa bosh qo'ymoq*” iborasining esa, “*turmush qurmoq*”, “*ayla qurmoq*” kabi yana ikkita sinonimi mavjud.

Zomin qishloqlari tilida “*g'irqinbay bolish*” frazemasini mavjud bo'lib, *mo'l-ko'llik, keragidan ortiqchalik* kabi ma'nolarga ega. Bu sheva vakillari ushbu iborani ifodalashi uchun unga qo'shimcha ma'no ottenkasi yuklangan bo'lishi kerak, ya'ni frazema ma'no tomonida mo'l-ko'chilik semasidan tashqari xursandchilik, quvonch semalari ham bo'lishi shart hisoblanadi. Masalan, *Siyirimiz suttu g'irqinbay qib jerdi – Sigirimiz sutni g'irqinboy qilib yubordi*. (B.To'ychiboyev va Q.Qashqirli. “Zominning til qomusi”) Yuqoridagi frazemaga sinonim tarzda zominliklar tilida “*iyt irqin*” iborasi qo'llaniladi. Ushbu ibora ham ma'no jihatidan birinchi iboraga teng bo'lib, juda *mo'l, haddan tashqari ko'p* ma'nolarini bildiradi. *Tavda archa degeningiz iyt irqin bob jatir – Tog'da archa deganingiz it irqin (tiqilib) yotibdi*.

Zomin qishloqlari aholisi ochiq gapirganni, dangalchilikni yoqtiradi. O'z ichlaridagi bor gaplarni yuzingni-ko'zing demay aytishdan tab tortishmaydi. Shuning bilan bir qatorda, o'z nutqlarida inson qulog'iga sal dag'alroq eshitiladigan so'zlardan foydalanishadi ham. Bu ularning tabiiy mentalitetidan kelib chiqqan xarakterli xususiyat hisoblanadi. O'ta ozg'inlik semasini ifodalovchi *iyt kamirgan ashiqtay - it g'ajigan oshiqday* iborasi adabiy tilimizda mavjud bo'lgan *eti suyagiga yopishgan* frazemasiga sinonim hisoblanadi. Sababi bu frazema Zomin qishloqlari aholisi nutqida *eti suyagiga jabishg'an* kabi singarmanizm hodisasiga uchragan shaklda qo'llanadi. Zomin “j”lovchi sheva vakillari azaldan tog', adirlar yonbag'irlarida yashab keladi. Kundalik yumushlar, asosan, qo'l mehnatiga asoslangani uchun kuchli, baquvvat insonlar har qachon hurmatda, e'tiborda bo'lishgan. Nimjon, ozg'in kishilarning esa qadri bir qadar past hisoblangan. Bunga misol qilib, yuqoridagi iborani keltirishimiz mumkin. Azaldan chorvadorlik bilan shug'ullanib keladigan zominliklar nutqida turli hayvon nomlari, uning a'zolari bilan bog'liq so'zlarning ishlatilishi odatiy hol sanaladi. Itlar cho'ponlarning asosiy yordamchisi hisoblanadi. Ular g'ajigan suyak ma'no ko'chishining metafora usuli bilan, ya'ni shakliy o'xshashlik asosida iboraga aylantirilgan.

Ushbu sheva vakillari tilida hozirgi kunda biroz eskirib, nutqiy muomaladan chetlashib borayotgan frazeologizmlar ham mavjud bo'lib ular turli sabablarga ko'ra iste'moldan chiqib ketyapti. Quyida shunday iboralardan birini keltirib o'tamiz.

Sinonim iboralar	Ma'nosi
<i>Baltasi tashqa tiydi</i>	<i>Shashti qaytdi</i>
<i>Miltig'i tab jedi.</i>	

Yuqoridagi sinonim iboralarning har ikkisida ham biror ishni bajarishga ishtiyoq qolmaganlikni, ya'ni insonning shashti qaytganligi kabi umumiy ma'noni anglatadi. Lekin har bir iborada umumiy ma'nodan tashqari ma'lum bir alohida xususiy ma'no tomoniga ham ega bo'ladi. Masalan, *O'ng'ardingam baltasi tashqa tiydi, endi barmas – O'ng'orning ham boltasi toshga tegdi, endi bormasa kerak*. Birinchi iborada ma'lum bir harakatni bajarganidan so'ng ushbu jarayon kuzatilsa, ikkinchi iborada o'sha bajariladigan ishning vaqtini kutaverib hafsalsi pir bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, *O'sardingam miltig'i tob jeganga oqshaydi – O'sarning ham ancha shashti qaytganga o'xshaydi*. Ov miltig'ining uzoq muddat ishlatilmasligi uning jangovarlik xususiyatlarini kamaytirib, texnik yaroqsiz holga keltirib qo'yishi mumkin. Insonning ham kishansiz bog'lanib qolishi uning ishtiyoqini o'ldirishi sir emas. Ovchilik kasbining hozirgi kunda juda kamayib ketganligi sababli u bilan bo'g'liq terminlar ham o'lka qishloqlari nutqida kamnamo bo'lib borayotganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.



“DASTURLASH TEXNOLOGIYALARINI BOSQICHMA BOSQICH O‘QITISH” MAVZUSINI “G‘OYALAR BULUTI” METODIDAN FOYDALAIB TAHLIL QILISH TEXNOLOGIYALARI

Abdusamatova Shaxodat Xojiakbar qizi¹, Adxamova Muhlisa²

¹Islom Karimov nomidagi TDTU

Olmalik filiali qoshidag akademik litsey hodimi

tel: +998(93) 375 – 42-15

e-mail: abduamatovashahodat@gmail.com,

²Yangiyo‘l shahar 8-IDUM o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada dasturlash texnologiyalarini bosqichma bosqich o‘qitish mavzusini hozirgi kunda qo‘lanilayotgan zamonaviy metodlardan qo‘lanilishi va uning ko‘rgazmali bo‘lishi talabalar ga qiziqarli bo‘lish masalalari keltirilgan


Kalit so‘zlar: metod, texnologiya, dasturlash texnologiyalari, algaritm

Ta’limda axborot texnologiyalarini rivojlantirish yo‘nalishlaridan biri interfaol texnologiyalardan foydalanish hisoblanadi. Zamonaviy interaktiv texnologiyalarning ta’lim sohasiga kirib kelishi o‘qituvchilarga ta’lim mazmuni, usullari va tashkiliy shakllarini sifat jihatidan o‘zgartirish imkonini beradi. Ta’limdagi ushbu texnologiyalarning maqsadi axborot jamiyatida intellektual imkoniyatlarni oshirish va ta’lim tizimining barcha bosqichlarida ta’lim sifatini oshirishdir. Bizning hayotimiz bir joyda turmaydi jadalik bilan rivojlanib bormoqda. O‘quv jarayonining sifati ko‘p jihatdan tanlangan o‘qitish uslubiga bog‘liq, shuning uchun bolalarni o‘qitishning yangi usuli, texnologiya kerak. Zamonaviy interfaol texnologiyalarning o‘quv jarayoniga katta ta’sirini hisobga olgan holda, ko‘plab o‘qituvchilar ularni o‘zlarining uslubiy tizimiga kiritishga ko‘proq tayyor. Auditoriyada dars mashg‘ulotini tashil qilishda mavzuning dolzarbligi va qiziqarliligidan tashqari, dars mashg‘uloti uchun tanlangan metod ham muhim ahamiyat kasb etadi uning qanchalik to‘g‘ri tanlanishi pedagog o‘qituvchining qanchalik mahoratga ega ekanligiga bog‘liq. Ushbu maqolada hozirgi kunda qo‘lanilayotgan zamonaviy metodlardan biri keltirilgan. G‘oyalr buluti ushbu metod ulkan bulutni umumiy bir mavzu sifatidako‘rib uning tarmoqlari va qismlarini kichik bulutchalar sifatida o‘rganishga asoslangan metoddir, undan dars mashg‘ulotida foydalansh quyidagi bosqichlardan iborat.

“G‘oyalar buluti” metodining qo‘llanilish bosqichlari

1-qadam: Talabalarga yangi mavzu haqida dastlabki tushunchalarni berish va ularning savollariga javob berish.

2-qadam: Talabalarga “G‘oyalar buluti” metodi haqida tushunchalar berish va ularni kichik guruhlariga taqsimlang. Guruhlarga umumiy mavzudan kelib chiqib mavzuning biror tarmog‘i yoki qismini o‘rganish topshirig‘ini bering. Masalan ushbu maqolada guruhlariga umumiy mavzu dasturlash tillarini bosqichma bosqich o‘rganish mavzusi berilgan bo‘lsa, kichik bulutchalar web dasturlash, android dasturlash, o‘yin dasturlash va boshqalarni 0(nol)dan boshlab qanday etablarda o‘rganish kerakligi haqida yozishlari kerak bo‘ladi. Buning uchun ularga 1-rasmdagi kabi chizma beriladi.



1-rasm. G'oyalar buluti metodining na'munaviy chizmasi

3-qadam: Metod haqida talabalar yetarlicha tushuncha olgandan so'ng uni ishlashga kirishadilar. Ularga 2- rasmda ko'rsatilgan chizma na'muna sifatida beriladi.



2-rasm. G'oyalar buluti metodining na'munasi

4-qadam. Mashg'ulot yakunida umumiy xulosa yasaladi va eng faol qatnashgan guruh talabalari rahbatlantiriladi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari” to'g'risida farmoni 20.02.2018-yil
2. D.A Zaripova (Phd) Laboratory classes on “Educational Technologies” (Methodical instructions)
3. Textbook “Pedagogical Psychology” Ibragimov HI, Yuldashev UA, Bobomirzaev H. Publishing House of the National Society of Philosophers of Uzbekistan Tashkent 2009



BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Asrankulova Gulchehra Sobirjanovna,
Yangi Namangan tumani 68-maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalarni samarali joriy etish va ulardan oqilona foydalanish samaradorligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ona tili, texnologiya, o'yin, metod, pedagogik, boshlang'ich sinf

O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sifati, jumladan, boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirish, malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, o'quv-uslubiy ta'minotini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar natijasida boshlang'ich sinflarda ona tili fanini integrativ yondashuv asosida o'qitish, modulli ta'lim texnologiyalarini qo'llash, o'quv materiallarini strukturalashtirish, ta'lim mazmunini ilmiy tashkil etishga erishilmoqda. Yoshlarimizning kamolot sari intilib kelajagimiz vorislari bo'lib yetishishlarida o'z vaqtida berilgan ta'lim-tarbiyaning o'rni beqiyos ekanligi ma'lum. Ilg'or pedagogik texnologiya ta'lim jarayoniga keng joriy etildi va bu usul amalda qo'llanmoqda. DTS asosida yangi darsliklar, yangi metodik qo'llanmalar yaratilmoqda va boshlang'ich sinf ona tili ta'limi jarayonida undan unumli foydalanmoqda. Shu bilan birga, boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarda lingvistik kompetentsiyalarni shakllantirishning metodik jihatlarini aniqlashtirish zarurati mavjud. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida “mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash” kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu esa o'quvchilarning mustaqil fikrlash malakasini shakllantirishda ona tilidan egallanayotgan bilimlarni amalda qo'llashni o'rgatishning innovatsion yondashuvga asoslangan metodikasini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limi sohasidagi kompetentsiyaviy yondashuvga ko'ra o'quvchilarning bilim olishlarida o'z kuchiga bo'lgan ishonchni tarbiyalash, ijodiy fikrlashini rivojlantirish, qoidalarini ongli ravishda o'zlashtirishlariga erishish, nutqidagi xatolarni qoida asosida korrektsiyalash malakalarini hosil qilish metodikasini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarimizning xammasi xam berilayotgan bilimlarni bir xilda qabul qilavermaydilar. Shuning uchun boshlang'ich sinf ona tili darslarida bilimni mustahkamlash uchun xizmat qiladigan takrorlash soatlarini men musobaqa darslari sifatida tashkil qilaman. Tilga olinayotgan topshiriqlarning musobaqa tarzida tashkil etilishi uni qiziqarli o'yinga aylantiradi va g'oliblarni aniqlab, ularni rag'batlantirish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi. Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishda turli didaktik, ijodiy o'yinlardan foydalanish bolalarni tez oylashga, fikr yuritishga, xozirjavob bo'lishga o'rgatadi. Dars mashg'ulotlarida faqat bir xildagi o'yin-topshiriqlar bilan cheklanib qolmay, balki ko'proq ijodiylikka undovchi o'yin-topshiriqlarga e'tiborni kuchaytirishga to'g'ri keladi. Zero, o'quvchilarni fikrlashga, o'ylashga, matn yaratishga o'rgatmasak, hozirgi zamon darsiga qo'yilgan muhim talab shaxsning rivojlanishiga erishib bo'lmaydi. Masalan: **«Qani top!» o'yini.** O'quvchilarga shivirlab so'z aytiladi. Paxta, kitob... kabi. O'quvchi lablar qimirlashidan so'zlarni topadilar, diqqatini oshiradilar. **«O'ylab top!» o'yini.** So'zlarning birinchi bo'g'ini aytilib, keyingi bo'g'ini o'quvchi tomonidan aytiladi. Ar-cha, Ran-da. **«Xotira» o'yini.** O'qituvchi so'zlarni aniq, ammo tez aytadi. Gul, qalam, gulzor, qalamdon. O'quvchilar ham shu tartibda takrorlab aytishi lozim. Xat-savod o'rgatish davri o'quvchilar faoliyatini hal qiluvchi bosqich xisoblanadi. Bolaning aqli, irodasi, dunyoqarashi shu davrda shakllanadi, rivojlanadi. O'yinlar esa ularning qiziqishini oshiradi, kayfiyatini ko'taradi. Unli va undosh tovushlar ustida ishlayotganda esa “Tovushdosh so'zlar top”, “Berilgan kataklarni tez to'ldir”, “Tovushni top”, “So'zlar top”, “Doirada berilgan harflar asosida so'z tuz”, “Tovush juftlari bilan farqlanuvchi so'zlar ro'yxatini davom ettir”, “Bor ekanda yo'q ekan, och ekanda to'q ekan”, “Ikkala bo'g'inida bir xil unli bo'lgan so'zlar ro'yxatini tuzing” kabi o'yinlardan ham foydalanish mumkin. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'zlarning to'g'ri yozilishi, imlo qoidalariga rioya qilinganligi va shu kabi muammolarga yechim topishda axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish mumkin. Masalan, mavzuda keltirilgan so'zlar ma'lum suratlar orqali ko'rgazmali ravishda bayon etilishi nafaqat bolalarning tasavvurini kengaytiradi, balki ushbu so'z xususida ularga yetarlicha ma'lumot beriladi va buning natijasi o'laroq ushbu so'zning yozilish qoidasi bolalarning xotirasida yaxshi saqlanib



qoladi. Bizga ma'lumki, ta'limda ko'rgazmalilik metodi juda samarali metodlardan hisoblanadi. Kompyuter orqali bu metodni harakatli tarzda, ya'ni biror bir narsa, predmet yoki voqea-hodisa haqida tushuncha berilayotganda, shu narsalarni harakatli ravishda ko'rsatish undan-da ko'proq samara beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqoridagi usullar yordamida tashkil etilgan darslar boshlang'ich sinf o'quvchilarining yetarli darajada bilim egallashlariga imkon beradi. Ona tili darslari bolalar lug'atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni tuzishga o'rgatadi. O'z fanini sevuvchi o'qituvchilar darsni tashkil etishda, o'quvchilar qiziqishini oshirish va darslarni jonlantirish uchun turli metod va o'yinlardan foydalanishlari o'rgangan mavzularni xotiralarida uzoq muddat saqlanishiga sabab bo'ladi. Darslarda o'quvchilar yoshiga, tabiatiga mos bo'lgan didaktik o'yinlar dars jarayonining samarali chiqishi uchun xizmat qiladi. O'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rish mobaynida o'quv vositalarini dars mavzusiga qarab tanlaydi va asosiy e'tiborni qo'llaniladigan metodlar va o'quv vositalariga qaratadi. O'qituvchi har bir mavzuga mos yangi usullar va texnik vositalardan o'z o'rnida va unumli foydalana olsa, shundagina ko'zlagan maqsadga erisha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobomurodova A. Ona tili ta'limi jarayonida o'yin topshiriqlardan foydalanish. Toshkent: Musiqa, 2009.
2. G'afforova T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalar. Qarshi: Nasaf, 2009.



YOSHLARDA SOTSIAL-SUYOSIY YETUKLIKNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Elchibayeva Nilufarxon Xakimdjano

Fargʻona viloyati yuridik texnikumi

Kadrlar boʻlimi boshligʻi

Annotatsiya: maqolada yoshlarda sotsial-siyosiy yetuklikni shakllantirish hamda jamiyatni demokratiyalashuvi uchun yoshlar siyosiy yetuk boʻlishining ahamiyati yoritilgan.

Kalit soʻzlari: yoshlar, siyosiy yetuklik, demokratiya, modernizatsiya.

Yoshlar sotsial-siyosiy qiyofasini shakllanishi mamlakatni modernizatsiyalash jarayoni bilan birga kechmoqda. Jamiyatni demokratiyalashuvi jarayonida aholining asosiy qatlamini tashkil etuvchi yoshlarda sotsial-siyosiy yetuklikning shakllanishi-bu rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan chinakkam demokratik, huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurishning nafaqat maqsadi balki, uning vositasi, eng muhim sharti hisoblanadi.

Bugungi kunda yoshlar manfaatining siyosatda aks etishi tor iqtisodiy darajadan, yaʼni yoshlarni ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etilganligini ifodalovchi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadan siyosiy muammo darajasiga koʻtarildi. Bu degani shundan iboratki, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda qanchalik faol ishtiroki, gʻoyaviy-mafkuraviy dunyoqarashni takomillashganiligi, yaʼni ularning siyosiy ongi va madaniyati, eng avvalo manfaati va qiziqishlari, qarashlari va intilishlarini namoyon etadigan sotsial-siyosiy qiyofasidagi oʻzgarishlar mamlakat taraqqiyotini belgilab beruvchi muhim omilga aylandi. Yoshlarda siyosiy yetuklikni shakllanishida asosiy qonunimiz Konstitutsiyaning ahamiyati katta. Chunki yoshlar huquqiy-siyosiy ongi va madaniyati bevosita Konstitutsiyada belgilangan huquq, erkinliklar hamda majburiyatlar orqali amalga oshiriladi. Konstitutsiyamiz, eng avvalo, siyosiy hujjatdir. Unda davlat suvereniteti, halq hokimiyatchiligi, huquqiy demokratik davlat tamoyillari, tashqi siyosat masalalari oʻz ifodasini topgan. Xalq hokimiyatchiligi yoshlarning siyosiy huquq va erkinliklarini taʼminlashni, ularning siyosiy faolliklarini oshirishni talab etadi. Bu jarayon shaxs, jamiyat va davlatning oʻzaro munosabatida ham namoyon boʻladi. Shaxs, jamiyat va davlatning oʻzaro bir-biriga bogʻliqligi, ular oʻrtasidagi oʻzaro masʼuliyat ham yoshlar sotsial-siyosiy qiyofasining shakllanishida oʻz taʼsir doirasiga ega. Bu borada Moturiydiy insonning davlat va jamiyat oldidagi masʼuliyati haqida shunday deydi: “Insondagi ixtiyor, tanlash imkoniyati jamoaga qarshi yoʻnaltirilmassligi, shaxs davlat oldida masʼul boʻlgani kabi, davlat ham shaxs oldida masʼul boʻlishi kerak”. Shuningdek, shaxsning tanlash va iroda erkinligi jamoaviy iroda shaxs irodasidan yuqori turishini asoslaydi. Bu qarashlar esa aynan demokratik huquqiy davlatning fuqarolarilari talab etiladigan fazilatlarini oʻz ichiga oladi. Bu fuqarolarda huquq va burch birligi taʼminlangan boʻladi va ular oʻz manfaatlarini davlat va jamiyat manfaatlari bilan uygʻunlikda koʻradi.

Yoshlar mehnat qilish huquqi orqali jamiyatning iqtisodiy sohasini rivojlantirishga oʻz hissasini qoʻshishi, oʻzining ijtimoiy ovoziga ega boʻlishi, oʻziga va idrokiga ishonchining ortishi, oʻz kamolotini jamiyat taraqqiyoti bilan bogʻlashi, bunyodkorlik ishlarida faol ishtirok etishi mumkin. Yoshlar oʻzlariga yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanish bilan birga jamiyat va davlat oldidagi masʼuliyatini unutmasliklari lozim. Shu oʻrinda mamlakatimiz birinchi prezidentining “Demokratik jamiyat qurish uchun demokratik tamoyillarni toʻla qaror toptirish uchun, avvalo, shu moʻtabar zaminda tavallud va tarbiya topgan shaxs oʻzini aynan shu yurt farzandi deb biluvchi inson oʻz davlati, oʻz halqi oldidagi, uni katta umidlar bilan tarbiya etgan, voyaga yetkazgan jamiyat oldidagi burchini ado etishi kerak” -degan dono soʻzlarini yodga olishning oʻzi kifoya.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, davlatning taraqqiyoti munosib vorislarni kamol topishi bilan chambarchas bogʻliq. Negaki, demokratik davlat yoshlarning ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi faol ishtirokidani manfaatdordir. Buning uchun esa, tabiiyki davlat yoshlarning siyosiy faolligini oshirish borasida qaygʻuradi. Chunki sotsial-siyosiy yetuk yoshlar salohiyati jamiyatni demokratiyalashuvi jarayonini tezlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Oʻzbekiston Respublikasi Yoshlarga oid davlat siyosati toʻgʻriidagi qonun. 2016-yil 15-sentabr
2. Oʻzbekistonda Yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida Vazirlar Mahkamasining qarori. – T.: 2021



TASVIRIY SAN'AT DARSLARINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH USULLARI

Jo'rayeva Gulnora Safarovna

Surxondaryo viloyati Termiz shahar 12-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining tasviriyl san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi.

Jumayeva Nigora Erkin qizi.

Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani 10-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining tasviriyl san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi.

Xayrudinov Abdulaziz Abdurashidovich

Surxondaryo viloyati Termiz tumani 13-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining tasviriyl san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda tasviriyl san'at darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish mazkur jarayonning nazariy - amaliy kirralarini tadqiq etish, maxsus ishlanmalar yoki tavsiyanomalarning yaratilishini talab etadi.

Kalit so'zlar: Pedagogik texnologiya, ta'lim-tarbiya, psixologik xususiyatlari, ehtiyoj, interfaol usullar, axborotli vositalar.

Tasviriyl san'at darslaring maqsadini aniq va puxta belgilanishi yaxlit pedagogik faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlashga poydevor yaratadi, tasviriyl san'at darslarining maqsadi DTS, o'quv rejasi va dasturi, shuningdek, darslik va ko'llanmalar mazmunida o'z ifodasini topgan ma'lum mavzular hamda o'quv fanining o'ziga xos jihatlari, o'quvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari, ehtiyoj, kizihishlari, pedagoglarning bilimi, kasb mahorati, ijodiy layokati pedagogik vaziyatlarni inobatga olish asosida belgilanadi. Ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida "Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasbhunarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masala hisoblanadi" deb ta'kidlaydi prezidentimiz Sh.Mirziyoyev. Shu bois tasviriyl san'at darslarini darslarida o'quvchilarini ma'naviy tarbiyalashda ta'lim-tarbiya tizimiga innovasion, ya'ni ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish davr talabi bo'lib kelmoqda. Ana shularni nazarda tutgan holda biz tasviriyl san'at darslarini darslari jarayoniga pedagogik texnologiyalarni foydalanish va rejalashtirish hamda ushbu texnologiyalardan foydalangan holda musiqa ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan imkoniyatlar to'g'risida fikr yuritimiz. Maqolamizni maqsadi ham o'quvchilarini musiqiy ta'lim sifatlarini oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning pedagogik yo'llarini ishlab mashg'ulotlarga joriy etishdir.

«Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'limda ilgor pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o'zlashtirish prinsipiga alohida e'tibor berilgan. Pedagogik jarayonning eskirib qolgan texnologiyasini yangisiga almashtirish, zamonaviy davr talablari asosida yondashish, darsga esa yangicha usullarning loyihasini qo'llash asosiy vazifa bo'lib qoldi. Shuningdek ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarga, darslarni o'qitishning faol usullarini qo'llab tashkil etish muammolarining yechimiga qo'yilgan talab tobora ortib bormoqda.

O'qituvchi o'quvchilarni faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan yo'llarni, usul va uslublarni, o'qitish shakllari, metod va vaziyatlarni izlaydi, zamonaviy pedagogik texnologiyaga suyanib, o'quv jarayonini samaradorligini oshiradi. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, o'quv jarayonining yuqori sifat va samaradorligiga erishadi. Shu boisdan ham, pedagogik texnologiya, didaktik texnologiya, talim texnologiyalariga o'quv jarayoniga eng samaradorli vositalar deb qaralmoqda. Ulardan dunyo pedagogik amaliyotida keng foydalanilmoqda. Hozirgi kundagi eng dolzarb masala va vazifa talim standartlarini o'quv jarayoniga tadbiq etishdan iboratdir.

AQSH va Evropa mamlakatlarida «ta'lim texnologiyasi» sifatida e'tirof etilgan nazariya bo'lib, uning yaratilishi to'g'risida ma'lumot beruvchi manbalarni o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, ta'lim tizimini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish g'oyasi o'tgan asrning boshlarida g'arbiy Evropa hamda AQSHda ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxs ijtimoiylashuvini ta'minlash va bu borada muayyan muvaffaqiyatga erishish borasidagi ijtimoiy ehtiyojni qondirishga urinish natijasida vujudga kelgan. Ushbu g'oya XX asrning 30 - yillarida tasviriyl san'at darslariga «pedagogik texnika», «ta'lim texnikasi», tushunchasining olib



kirilishi bilan asoslangan. Bu sohadagi mavjud adabiyotlarda «taʼlim texnikasi» tushunchasi oʻquv mashgʻulotlarini aniq va samarali tashkil etishga koʻmaklashuvchi usul, vositalar yigʻindisi deya talqin etiladi. XX asrning 50 - yillarida audiovizual vositalarning yaratilishi hamda ular xizmatidan foydalanish «taʼlim texnologiyasi»ning yoʻnalishini belgilab beruvchi omildir deya baholandi. Ushbu bosqichda asosiy eʼtibor texnik vositalardan samarali foydalanish hisobiga amalga oshirilishi, ularning imkoniyatlarini kengaytirish, axborot sigʻimini va ularni uzatishni takomillashtirish va individual taʼlimni yoʻlga qoʻyish kabi masalalarning ijobiy hal etilishiga qaratildi. Oʻtgan asrning 60 - yillarida taʼlim faoliyatini avvaldan puxta ishlab chiqilgan dastur gʻoyalari muvofiq tashkil etish tashabbusi koʻtarildi. Dasturlashtirilgan taʼlim oʻquvchi muayyan bilimlarni qismlarga boʻlib hal etilishi asosida tasviriyl sanʼat darslarini tashkil etishni nazarda tutadi. Dasturlashtirilgan taʼlim mazmunida uning maqsadlari, baholash mezonlari tasviriyl sanʼat darslari mohiyatining aniq tavsifini koʻrsatuvchi koʻrsatgichlar ekanligiga alohida oʻrin ajratildi. «Texnologiya» yunoncha soʻz boʻlib, «techne» - mahorat, sanʼat va -logos - tushuncha, taʼlimot, fan maʼnosini anglatadi. Taʼlim texnologiyasi iborasining maʼnosi - (inglizcha —An educational technology) tasviriyl sanʼat darslarini yuksak mahorat bilan sanʼat darajasida tashkil etish toʻgʻrisida maʼlumot beruvchi fan, taʼlimot demakdir yani vaqtda mazkur tushunchaning taʼrifi hamda uning mohiyati borasida yagona gʻoya mavjud emas. Bu nazariya mohiyatining yoritilishiga nisbatan turli yondashuvlar mavjud. Foydalanishga topshirilayotgan tasviriyl sanʼat darslarining samaradorligini oshirish taʼlim - tarbiya jarayonini davr talabi darajasida yangi pedagogik texnologiyalar, texnik hamda axborotli vositalar bilan kurollantirishni takozo etadi. Tasviriyl sanʼat darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish mazkur jarayonning nazariyl - amaliyl kirralarini tadqiq etish, maxsus ishlanmalar yoki tavsiyanomalarning yaratilishini talab etadi.

Xulosa qilib aytganimizda, hozirgi kunda taʼlim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini oʻquv jarayonida qoʻllashga boʻlgan qiziqish, eʼtibor kundan kunga ortib bormoqda, chunki shu vaqtgacha anʼanaviyl taʼlimda oʻquvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga oʻrgatilgan boʻlsa zamonaviyl texnologiyalarda esa ularni egallayotgan bilimlarini oʻzlari qidirib topishlariga, mustaqil oʻrganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarini ham oʻzlari keltirib chiqishlariga oʻrgatadi. Bunday jarayonda oʻqituvchi shaxsni rivojlanishi, shakllanishi bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan birga, boshqaruvchilik, yoʻnaltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Yaʼni taʼlim jarayonida oʻquvchi - talaba asosiy figuraga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.

1. Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.
2. Oʻzbekiston Respublikasining - Taʼlim toʻgʻrisidagi qonuni Barkamol avlod - Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997.
3. Ziyomammedov B. Yangi pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. –T.: Chinoz ENK, 2002.
4. Begimkulov U.S. Pedagogik taʼlimda zamonaviyl texnologiyalar J. Pedagogik taʼlim. – Toshkent, 2005.



TA'LIM JARAYONINING SAMARALI TASHKIL QILISHDA KEYS STADING METODIDAN FOYDALANISH

Meliboyeva Dilnoza Ergashevna

Farg'ona viloyati yuridik texnikumi tarbiyachi-pedagog

Annotatsiya: maqolada hozirgi kunda zamonaviy ta'lim metodlaridan biri bo'lgan “Keys stading” metodi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlari: zamonaviy ta'lim, ta'lim metodlari, “Keys stading” metodi.

Bugungi kunda mamlakatimizda zamonaviy ta'lim tizimini yangilanib, yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalar jadal rivojlanib bormoqda. Tez sur'atlar bilan o'zgarib rivojlanib borayotgan hozirgi zamon va yangi talablar asosida faoliyat yuritishni davrning o'zi taqoza etmoqda. Shaxsni hozirgi davr talabi darajasida tarbiyalash, g'oyaviy, ma'naviy-ahloqiy bilimni oshirish uchun har bir pedagoglar mohir va ijodkor bo'lishi, o'z kasbiga vijdonan yondashishi lozim.

Ta'lim jarayonida o'quvchi o'qituvchining bevosita rahbarligida, ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari yordamida hodisa va voqealarning mohiyati, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi va bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'quvchilar uchun o'quv jarayoni bilish jarayoni, uning faoliyati esa bilish faoliyatidir.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish uchun darsning, o'quvchilarning o'tgan mavzu yuzasidan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, ularni tizimlashtirish, yangi mavzu yuzasidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalami nazorat qilish va baholash, shuningdek, yangi mavzuni o'rganish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Dars davomida muammoli masalalami o'qitishda “Keys” metodidan foydalanish yuqori samara beradi. “Keys” — case studies ingliz tilidan olingan bo'lib, “jarayon” yoki “vaziyat” degan ma'noni beradi. Keys-stading mohiyatiga ko'ra ko'rib chiqilayotgan muammoli vaziyat bo'yicha maslahatchilar rolini bajarishi kerak bo'lgan talabalarga quyidagilar taklif qilinadi:

- keysda bayon qilinganida ayni bir paytda tashkiliy hayotdagi tipik amaliy muammoni aks ettiradigan va amaliyotda ushbu muammoning hal etilishida o'zlashtirilishi va qo'llanilishi lozim bo'ladigan muayyan bilimlar majmuini dolzarblashtiradigan vaziyatni idrok etish va tahlildan o'tkazish;

- muammoli vaziyatni maqsadga muvofiq tarzda hal etadigan usullar va vositalarni izlash;

- taklif etilgan muqobil jihat(alternativa)larni baholash va ular orasidan qo'yilgan muammoga nisbatan eng qulay variantini tanlash;

- tanlangan muqobil usul(alternativa)ni amalga oshirish bo'yicha aniq yechimni butun tafsilotlari bilan ishlab chiqish.

Keys-stadi metodi bo'yicha o'rganilayotgan har bir muammo yoki mavzu yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar rejasi, ularni bajarish tafsiloti, natijalar va xulosalar yig'indisi alohida keysni tashkil qiladi. Bu metod ta'lim jarayonida hayotiy vaziyatlardan foydalanishga qaratilgan. Bu esa, hozirgi kunlarda ta'lim sohasidagi dolzarb bo'lgan muammolardan hisoblanadi. Ushbu muammoni hal qilish imkonini berishi bu metodning alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib turibdi.

Barcha texnologiyalar kabi keys-stadi texnologiyasi o'z manbalariga ega. Ba'zi fikrlarga ko'ra keysning asosiy manbasi hayotiy vaziyatlar hisoblanadi. Hayotiy hodisalar baxslarga sabab bo'ladi, muammoni yechish jarayonini jadallashtiradi. Ijtimoiy hayotning barcha ko'rinishlari keysning faktologik va muammoviy bazasi bo'lib xizmat qiladi, shuningdek keys tarkibining asosini tashkil qiladi.

Keyslarning yana bir muhim manbasi ta'lim-tarbiya hisoblanadi. Uning yordamida keys texnologiyasining maqsadi, vazifasilari, ta'lim tizimida tutgan o'rni belgilanadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, keys stading metodidan foydalanib mashg'ulotlarni tashkil qilish talabalarni ma'lumotlarni chuqur o'zlashtirishlarini ta'minlaydi va shu bilan birga egallagan bilimlardan kelgusi xayotida, qanday vaziyatlarda foydalanishlari bo'yicha tushunchalarga ega bo'ladi. Bu esa talabalar ma'lumotlarni yanada puxta egallashlarini, fanga bo'lgan qiziqishini orttiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Azizxojayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. — T.: 2003
2. G'afforova T. va boshqalar. Ta'limning ilg'or texnologiyalari. — Q.: 2003



BOSHLANG'ICH SINFLARDA XALQARO BAHOLASH TIZIMLARIDAN FOYDALANISHNING MAZMUM MOHIYATI

Narzullayeva Dilsora Shukrulloevna
Navoiy viloyati Qiziltepa tuman 4-IDUM
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolda boshlang'ich sinflar xalqaro baholash tizimlaridan foydalanishning mazmun mohiyati hamda uning zarurati haqida fikr mulohazalar bildiriladi.

Kalit so'zlar: EGMA va EGRA, PIRLS, TIMSS.

Xalqaro baholash dasturlari boshlang'ich sinflardan boshlab amaliyotga joriy etilmoqda. Boshlang'ich sinflarda xalqaro baholash dasturlarining PIRLS, TIMSS, EGMA va EGRA turlaridan foydalaniladi.

PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturidir. Boshqacha qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilash uchun ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma'lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir. PIRLS dasturi 2001-yilda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi tomonidan tashkil etilgan. Xalqaro tadqiqotni tashkil etish uchun barcha mas'uliyat Chestnut Hill Boston kollejiga yuklatilgan. Shuningdek, tadqiqot uchun topshiriqlarni tayyorlash Germaniya ma'lumotlar markazida amalga oshiriladi. Xalqaro baholash dasturi PIRLS dunyoning turli mamlakatlari milliy ta'lim tizimida o'qish savodxonligi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va natijalarni qiyoslashga yo'naltirilgan. Har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini xalqaro darajada baholaydi. Shuningdek, PIRLS ta'lim sohasida olib borilayotgan siyosatning muvaffaqiyatga ta'sirini baholash uchun qimmatli vosita hisoblanadi. **O'qish savodxonligi** – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifi ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir. PIRLS yosh o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o'qishining ikkita maqsadiga qaratilgan: Bular: badiiy tajriba orttirish hamda ma'lumot olish va ulardan foydalanish uchun o'qishdir. PIRLS o'qish maqsadlarining har birida to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi: diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish, to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish, g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish, kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish. PIRLSda har bir matn parchasi yoki matn yuzasidan beriladigan savollar to'rtta tushunish jarayonini baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilar matndan ma'no hosil qilar ekan, ular aniq tushuntirilmagan g'oyalar yoki ma'lumotlarga nisbatan tushuntirishlar beradi. Xulosalash o'quvchilarga matndan tashqariga chiqishga imkon beradi. Ko'pgina hollarda muallif matnni o'quvchining aniq yoki bevosita xulosa chiqarishi uchun yaratadi. O'quvchilar oddiy xulosalar bilan bir qatorda, matndagi g'oyalar va axborotlarni talqin qilishda va uyg'unlashtirishda aniq yoki umumiy ma'nolarga e'tibor berishlari yoki tafsilotlarni umumiy mavzular va g'oyalar bilan bog'lashlari mumkin.

To'liq javob berish uchun o'quvchidan barcha matnni yoki hech bo'lmaganda uning muhim qismlarini, shuningdek, matndan tashqaridagi fikrlarni yoki axborotni tushunish talab qilinadi. PIRLS tadqiqotida ishlatiladigan matnlar tarkibi 1000 ta so'zgacha bo'lib, badiiy matnlar asosiy mavzuga ega, u berilgan matndan tashqari o'quvchi tomonidan umumlashtiriladigan, axborot matnlari o'quv materiallardan olinmagan mavzuni yoritib bergan bo'lishi kerak. Matnda Hech qanday so'zlashuvga oid so'z yoki jargon ishlatilmaydi hamda ortiqcha texnik ifodalar olib tashlanadi. Matnning mazmuni 9–10 yoshdagi o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi, ayrim madaniyatlarga juda xos bo'lgan mavzulardan chetlanishi, shuningdek, matn shu yoshdagi maktab o'quvchilari uchun qiziqarli va zavqli bo'lishi hamda o'quvchi uchun unchalik tanish bo'lmasligi lozim. O'qish darslarida PIRLS testlaridan foydalanish o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini oshiradi, ularda o'qib tushunish malakasi rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu tadqiqotning



ijobiy tomonlari bilan birgalikda salbiy tomonlari ham bor deb o'ylayman Mening fikrimcha, PIRLS tadqiqotlari uchun tanlangan matnlar 10-14 yoshli o'quvchilarning yosh xususiyatlariga biroz to'g'ri kelmaydi. Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha yaratilgan qo'llanmalarda berilgan ba'zi matnlarni tahlil qilib, bu matnlar biroz bizning millatga to'g'ri kelmasligini guvohi bo'ldim. PIRLS tadqiqoti o'tkazilganda matnlar o'zimizning millatga moslab olinsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 2019-yil 29-apreldagi PF-5217 sonli Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining —Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori
4. A. Ismoilov, D. Norboyeva, K. Kucharova, Z. Qosimova, N. Aminova. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligini baholash. (o'quv qo'llanma) – T.: Sharq NMAK, 2019. -94 b.
5. A. B. Panjiyev, A. A. Ismoilov, J. R. Narziyev, X. P. Ahmedov, G. O. Tog'ayeva. O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi. (qo'llanma) – T.: 2019. -62 b.
6. www.edu.uz
7. www.aim.uz



YOSHLAR QALBIGA MILLIY QADRIYATLARNI SINGDIRISHDA MADANIY MEROSLARNING AHAMIYATI

Otaxonova Fotima Ulug'bekovna

Farg'ona yuridik texnikumi axborot
resurs markazi mutaxassisi

Annotatsiya: maqolada yoshlar qalbiga milliy qadriyatlarni singdirishda ma'naviy, madaniy meroslarimizni ahamiyati xususida fikrlar berilgan.

Kalit so'zlari: ma'naviy madaniy meros, milliy qadriyatlar, yoshlar.

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishda ta'limiy va ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarimizning o'zni beqiyos. Bugun milliy qadriyatlarimiz halqimizning milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishda bosh omillardan biri bo'lib, xizmat qilmoqda. Milliy qadriyatlarimizni tiklanishiga hamda targ'ibot qilinishiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan jarayonlarni ilmiy o'rganish, olingan natijalarni zamonaviy talablar asosida xolisona tahlil qilish va amalga qo'llash muhim muammolardan biridir. Markaziy Osiyoda yashab o'tgan buyuk mutafakirlar Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Abdullo Avloniy va boshqalar boy tarixiy, ma'naviy, madaniy meros qoldirganlar. Xususan, Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin», dostonida Farhodning kuch-qudrati buyuk jasoratlarni amalga oshirishga yordam bergani, Amir Temur tuzuklarida har bir inson yuksak jismoniy yetuklikka ega bo'lishi, bularning barchasi yoshlarni barkamolligini ta'minlashda xizmat qiluvchi g'oyalardir.

Respublikamiz milliy istiqlolni qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan o'tgan ta'lim-tarbiyani tubdan yangilashga ehtiyoj sezildi. Bu ehtiyoj mamlakatimizda jadal amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlarining yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Xususan, aniq maqsadlarga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya uyg'unligini ta'minlash zamon talablariga aylanib bormoqda. Ayni paytda xalqimiz istiqbolini belgilab beruvchi yosh avlodni bilimdon mutaxassis sifatida tarbiyalashning samarali yo'llari qidirilmoqda.

Milliy qadriyatlar – murakkab ijtimoiy – ruhiy hodisa bo'lib, u millatning, tili, madaniyati, tarixi, urf-odati, an'analarini, jamiki moddiy va ma'naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlarini qamrab oldi. Insoning qaysi millatga mansub ekanligi haqidagi tasavvuri faqat g'oyagina emas, balki tuyg'u hamdir. Bu tuyg'u kishilarda millatning tarixi, ruhiyati, hozirgi holati va xususiyatini tushunish, his qilish shaklida mujassamlashgan bo'ladi.

Mustaqillikka erishganimizda so'ng ta'lim-tarbiya, odob-ahloq masalalarida tub burilish davrida milliy qadriyatlarimiz o'z qadrini rosladi. Yoshlarda milliy iftixor, milliy g'ururni shakllantirish va mustahkamlashga alohida ahamiyat berila boshlandi. Hozirgi paytda taraqqiyotimiz taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk insonlar hal qiladi. Aqliy zakovat, ruhiy, ma'naviy kamolot insofdiyonati, muruvvat, mehr-oqibat – bular ma'rifatli, ma'naviyatli insonning asosiy fazilatidir. Ana shu fazilatlarini yoshlarimizda yanada shakllantirish olimlar, ziyolilar, o'qituvchilar, tarbiyachilar zimmasiga yuklanadi. Biz kelajagi buyuk davlat barpo etmoqchi ekanmiz har tomonlama rivojlangan, barkamol, aqliy, milliy qadriyatlarimizni hurmat qiladigan va ularga to'la rioya qiladigan insonni tarbiyalash zarur. Zero mustaqillik – yangi jamiyatni shakllantirish, yangi davlatni barpo etish bilan birga ta'lim tarbiyada yangi jamiyat fuqarolarini topishdek katta mas'uliyatni ham qo'yadi. Ana shu yuksak vazifani hal etishda mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq o'tmish madaniyatimizga, qadriyatimizga asoslanib, mustaqillik tamoyillari belgilanadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga asoslanib, (mustaqillik tamoyillari) jamiyatni yangilash, tariximiz, ma'naviy merosimizni tiklash, tarbiya masalalarini hal etishga jiddiy kirishildi.

Xalqning madaniy qadriyatlari ma'naviy me'rosi ming yillar mobaynida sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay O'zbekiston xalqi avloddan avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarni hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, mustaqilligimizni dastlabki kunlaridan ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi. Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni, milliy o'zlikni anglashning o'sishdan xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy tabiiy jarayon deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: 1996
2. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – T.: 1998



МАКТАБ О'QUVCHILARIDA ART TERAPIYADAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Qayumova Samigul Zokir qizi

TerDUPI pedagogika va psixologiya
mutaxassisligi 1-kurs magistranti

qayumovasamigul@gmail.com +998990952358

Rajabaliyev Shodibek Amondullo o'g'li

Surxondaryo viloyati Uzun tumani

XTB Bolalarni ijtimoiy-psixologik

qo'llab – quvvatlash markazining psixolog – metodisti

Annotatsiya: Art-terapiyaning ahamiyati va funksiyalari. Maktab o'quvchilarida art-terapiyadan foydalanishning ahamiyatini o'rganish.

Kalit so'zlar: Art terapiya, korreksiya, san'at, kommunikativ, regulatsiya, rivojlanish, texnologiya, agressiya, ta'lim, tarbiya

So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 6108-sonli farmonida “ta'lim tizimiga yuqori samarali xalqaro amaliyotni joriy etish, respublika ta'lim tashkilotlarini nufuzli xalqaro reytinglariga kiritish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish” [1] to'g'risida fikr - mulohazalar bildirganlar.

Darhaqiqat ta'lim tizimiga yangicha xalqaro tajribalarni kiritish bo'yicha ko'pgina takliflar, tavsiyalar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda. Xususan, psixologik xizmat sohasiga art-terapiyani qo'llash bo'yicha tavsiyalar kiritilmoqda. Art-terapiya 60-yillarning oxirida Qo'shma Shtatlarda mustaqil fan sifatida rasman asos solingan, garchi hali ham psixoanalizning nazariy asoslarini o'zlashtirgan bo'lsa-da, o'ziga xos xususiyatlarga ega. Art-terapiya san'at yaratishning ijodiy jarayoni shifo va hayotni yaxshilash, fikrlar va his-tuyg'ularning og'zaki bo'lmagan muloqot shakli ekanligi haqidagi g'oyaga asoslanadi. [2]

Art-terapiya mashqlari his-tuyg'ularni g'oyalarni va hodisalarni o'rganish, shaxslararo ko'nikmalar va munosabatlarni rivojlantirish, o'z-o'zini hurmat qilish va ishonchni shakllantirish, o'zini yanada ishonchli tasavvur qilish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. [3] Muxina va boshqa tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, “bolalar uchun rasm chizish- bu sa'nat emas, balki nutq. Har bir rang, har bir satr o'ziga xos kayfiyat, o'ziga xos xarakterga ega. Ularning yordami bilan bola ichidagi hamma narsani yetkazadi”.

Ta'limdagi art-terapiya esa - tizimli innovatsiya bo'lib, “nazariy va amaliy” g'oyalar, yangi texnologiyalar majmuidir. Art - terapiyaning pedagogik salohiyati quyidagi 3 darajada ko'rib chiqiladi: maqsad, mazmun va texnologiya. Maqsadli daraja konseptual gumanistik g'oyalar, qadriyatlarga asoslanadi va o'quvchining shaxsiyati va ijodiy individualligini rivojlantirish bilan bog'liq maqsadlarni shakllantirishga qaratilgan. Mazmun darajasi, shaxsning ma'naviy, ijodiy, ichki dunyosini uyg'unlashtiruvchi, tasviriy san'at imkoniyatlarining mavjudligi bilan tavsiflanadi va ijodiy faoliyatda shaxsning bilim va o'zini-o'zi anglash ehtiyojlarini shakllantirishga qaratilgan. Texnologik daraja takrorlanuvchanlik, kafolatlangan natijalar bilan bir qatorda psixologik jarayonni tashkil etishda, moslashuvchanlik va o'zgaruvchanlikni ta'minlash mumkin.

L.D.Lebedeva ta'limda art - terapiyaning quyidagi funksiyalarini belgilaydi:

- 1) Katartik-tozalash, salbiy sharoitlardan xalos bo'lish;
- 2) Regulatsiya-neyropsixologik stressni olib tashlash, psixosomatik jarayonlarni tartibga solish, ijobiy psxo-emotsional holatni modellashtirish.
- 3) Kommunikativ-refleks-aloqa buzilishlarini tuzatishni ta'minlash, adekvat shaxslararo xulq-atvorni shakllantirish, o'z-o'zini hurmat qilish.

Pedagogik art terapiya o'ziga xos gumanistik amaliyot bo'lib, ta'limda korreksion-rivojlantiruvchi jarayonning barcha tarkibiy qismlarini (rivojlanish, ta'lim, tarbiya va tuzatish) san'at yordamida amalga oshirishdir.[4]

Maktabda art-terapiya ishi o'quvchilarning psixologik salomatligi muammosining ahamiyatini oshirishga imkon beradi va o'qituvchilar tomonidan ularning ehtiyojlarini yaxshiroq tushunishga



yordam beradi. [5]

Art terapiya turlari orqali o'quvchilarda kuzatiladigan agressivlik, tajavuzkorlik, qo'rquv, o'qishda orqada qolishlik shuningdek, o'z joniga qasd qilish holatlarini oldini olish, korreksiya ishlarini olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi. Misol tariqasida boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi qo'rquvni tuzatish uchun rasm terapiyasidan foydalanish mumkin. Qo'rquvlar turli yoshda turli xil bo'ladi. 7-8 yoshli bolada - kasalikdan qo'rqish, adashib qolishdan qo'rqish, bolalarni masxara qilishdan qo'rqish, xato qilishdan qo'rqish, maktabni yo'qtish, o'limdan qo'rqish, ota-onalarni tark etishi va qaytib kelmasiligidan, qon, emlashdan, qorong'ulikdan, yovuz amakidan qo'rqish kabilar bo'lishi mumkin. O'quvchining qo'rquvga bo'lgan munosabatini o'zgartirishda, nazorat tuyg'usini qaytarishda rasm terapiyasidan foydalanib, o'quvchiga A4 formatdagi qog'ozga o'zini bezovta qiluvchi vaziyat yoki qo'rquvni chizish tavsiya etiladi. O'quvchi qo'rquv qiyofasini ko'rsatish uchun rangli qalamlardan, bo'yoqlardan foydalanishi, qo'rquvga javob beradigan belgi, tasvirlarni chizish muhim ekanligi tushuntiriladi. Chizish jarayoni 10 daqiqagacha davom etishi mumkin. Keyingi bosqichda o'quvchi bilan hozir nima yaratganini muhokamasi o'tkazilib, tasvir nima ekanligi, qayerda bo'lishligi, ismini, bu qo'rquv to'g'ridan to'g'ri unga kelganini nega qo'shniga bo'lmaganini muhokama qilinadi. So'ng keyingi bosqich modellashtirish bosqichiga o'tiladi. Bunda qo'rquvga e'tibor berib, anglab yetish tushuniladi. O'quvchi ichida nimanidir his qiladi, nimanidir o'ylaydi. O'quvchilarni qo'rquvlarini juda katta deyishadi, aslida esa juda kichik bo'lib chiqadi. Bu jarayonda qo'rquvni hajmini his qilish muhim ahamiyat kasb etadi. So'ngi bosqichda qo'rquv aslida yo'q tushuncha ekanligi ko'rsatib beriladi. Chizilgan tasvirni qum qutisini ichiga solib, qum bilan ko'mib tashlashi yoki tasvirni yo'q qilib tashlash orqali ko'rsatib berish mumkin.[6]

Xulosa o'rnida aytish joizki, art terapiya keng qamrovli ahamiyatga ega. Art terapiya usullari quydagilarga imkon beradi:

- bolaning psixosotsial holatini o'zgartirish;
- potensial aqliy resurslarni ozod qilish;
- turli xil badiiy faoliyat turlari uchun ijobiy motivatsiyani shakllantirish;
- muloqotdagi to'siqlarni yengib o'tish, o'zini va boshqalarni tushunish;
- estetik va axloqiy g'oyalarni shakllantirish;
- ruhiy farovonlik, quvonchli his-tuyg'ularning paydo bo'lishiga yordam beradigan hissiy jihatdan qulay muhit yaratish;
- xotirada quvonchli, hayojonli xotiralarni qoldirish, atrofdagi odamlarga, atrofdagi dunyoga, san'atga qiziqish uyg'otish;
- xulq-atvorni tuzatish va samarasiz xatti-harakatlar modellarini samarali modellar bilan almashtirish;
- stressni salbiy ta'sirlarini kamaytirish va to'liq bartaraf etish;
- ijobiy fikrlashni shakllantirish va h.

Demak, art-terapiyani maktab amaliyotida amaliyotchi psixologlar tomonidan chuqurroq o'rganish va amaliyotga joriy qilish bugungi kunda dolzarb masaladir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2020-yil 6-noyabr PF 6108-sonli farmoni. Lex.uz
2. Minh-Ann Nyugen “Art Therapy-A Review of Methodology”. January 2015. Dubna Psychological Journal.
3. О.Г.Жбанова “Арт-терапия в условиях школы” М.2019
4. О.Г.Жбанова “Теоретические основы и техники арт-терапии” М.2019
5. Е.А.Левеченко “Современный урок” М.2022 журнал.
- 6.Елена Тарарина “Практикум по арт-терапии в работе с детьми”.– К 2018-256с



KUNDALIK HAYOTDA VA ZAMONAVIY PEDAGOGLAR FAOLIYATIDA POZITIV KAYFIYATNING PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI

Shaxnoza Sattarova Qo'chqarovna

Nizomiy nomidagi TDPU Amaliy
psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Annotasiya: Maqolada pedagoglarni ta'lim berishda ulardagi ijobiy psixologiya va pozitiv kayfiyat munosabatlarini ijtimoiy-psixologik muammolari xususida so'z boradi. Pedagoglarda pozitiv kayfiyatning o'ziga hos xususiyatlari: kundalik hayoti, jamiyatdagi insonlar kayfiyati, pedagoglar mustaqilligi, ma'naviy - ruhiy kabi holatlarga to'htalib, ayrim psixologik muammolari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: pedagoglar, ko'tarinki kayfiyat, adaptasiya, ijobiy psixologiya, qulay sharoit, qadriyatlar, o'zaro moslik, psixologik muammolar.

Annotation: The article discusses the socio-psychological problems of positive psychology and positive mood in teaching. Some psychological problems, focusing on the characteristics of a positive mood in education: everyday life, mood of people in society, the independence of teachers and spirituality is analyzed.

Keywords: educators, high mood, adaptation, positive psychology, favorable conditions, happiness, values, compatibility, psychological problems.

Hozirgi davr, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar qatorida O'zbekistonning ta'lim sohasida ham, ta'limni zamon talablariga muvofiqlashtirish – yangilash asri sanaladi. Zamonaviy ta'lim sistemasining asosiy maqsadi, bilim oluvchilarni-yoshlarni nafaqat bilimlar bilan qurollantirish, shu bilan bir qatorda talaba yoshlarda zamonaviy bilimlarni egallashda, ijobiy va mustaqil yondashishni shakllantirish, ularning mustaqil bilim olish malakalarini, qobiliyatlarini keng ma'noda ochish uchun sharoit, qulayliklar yaratishdan iboratdir. Qo'yilgan maqsadga erishishning asosiy yo'nalishlaridan biri, talabalarning samarali bilim olishi.

Bugungi kun pedagogikasi va psixologiyasida “pedagogic pozitiv mahorat” tushunchasiga turlicha izoh beradi. Jumladan, “Pedagogik ensiklopediya”da ta'rif quyidagicha izohlangan: “O'z kasbining mohir pozitiv ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondash fanlar sohaslarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassi haqiqiy pedagogdir”deb ta'riflanadi. Ushbu ta'rifning mohiyatidan kelib chiqib o'qituvchining pedagogic pozitiv mahorati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin:

1. Madaniyatning pozitiv yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko'rsatkichi.
2. O'z faniga doir pozitiv bilimlarning mukammal sohibi.
3. Pedagogika va pozitiv psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi.
4. O'quv - tarbiyaviy pozitiv ishlar metodikasini mukammal bilishi. Pedagogik mahorat tizimi o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan asosiy komponentlardan iborat:
 - pedagogik insonparvarlik talablariga bo'ysunishi.
 - kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish.
 - pedagogik qobiliyatga ega bo'lish.

Pedagogik texnika sirlarini puxta egallash va barcha kasblar orasida o'qituvchilik kasbi o'zgacha va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, o'qituvchi yosh avlod qalbi kamolotining memori, yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi insondir. Bugungi kunda u voshlami g'oyaviv - siyosiy jihatdan chiniqtirib tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rgatadi va yoshlarni mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasb-hunar sirlarini puxta egallashlarida ko'maklashadi va jamiyat uchun muhim ahamiyatga egadir.

Pedagogik pozitiv mahorat o'qituvchilar va tarbiyachilarga pedagogic pozitiv ijodkorlik, pedagogik texnika, ta'lim - tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning pozitiv o'zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma'naviy - m a'rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, pozitiv jarayonda xulq-atvomi va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o'rgatadi va o'z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik



faoliyatlar tizimi to'g'risida m a'lumotlar beradi. Pedagogik pozitiv mahorat o'qituvchilarning pedagogik pozitiv faoliyati zahirida takomillashib boradi. Pedagog faoliyatida pozitiv mahorat - o 'qituvchilarning shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy pozitiv (bilimdonligi, zakkoligi, fidoyi'ligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo 'lib, o 'qituvchilarning ta 'lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy pedagogik pozitiv mahoratini doim iy takomillashtirib borish imkoniyatini ta 'minlovchi faoliyatdir. U o'z fanini mukammal bilgan, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarlikka ega bo'lgan, o 'quvchilarni o 'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo 'llarini izlab topish uchun, am aliy faoliyat olib boradigan har bir o 'qituvchining psixologik pozitiv kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladi.

Kundalik hayotda va zamonaviy pedagoglarning ijobiy psixologiya sohasi jarayonida ko'tarinki kayfiyatning nechog'lik zarurligi bugungi kunda deyarli har qanday odamlarning hayotida ertami-kechmi psixologik ruhiy yordamni talab qiladigan vaziyatlarda yuzaga keladigan jarayonlardan biridir. Bunday jarayonlarda jamiyatimizdagi ruhiy tomondan tushkun kayfiyatidagi insonlar mutaxassis psixologlarga hali to'liq murojaat qilishmaydi. Bunday jarayonlarda odamlar muammolardan o'zlari chiqib ketishga harakat qiladilar shu bilan birga yaqin qarindoshlari, mahalladagi Yoshi ulug'lar yordamiga, do'stlari yordamiga ham tayanadilar. Bu esa bizning mamlakatimizdagi oliy qadriyatlardan biri xisoblanadi. Bunday vaziyatlarda pedagoglar mustaqil ishlash uchun, qiyin psixologik vaziyatlarda o'z-o'ziga yordam berish uchun ularga kuchli iroda va ko'tarinki kayfiyat juda muhimdir. Pedagoglarga nega ijobiy psixologiya kerak? Ijobiy psixologiyaning samarali jihatlar qanday? kabi savollarga to'htalib o'tish muhimdir.

Ish faoliyatda ijobiy psixologiya nima samarali ekanligini o'rganadi va bularning barchasi bizning hayotimiz mazmunini belgilashi, hamda fikrlashimiz va xatti-harakatlarimizga bog'liqdir. Ilmiy izlanishlarga asoslangan ijobiy psixologiya qaysi fazilatlar va ko'nikmalar uchun eng muhim ekanligini ko'rsatadi va o'z-o'zini anglash, sog'liq va farovonlik, hotirjamlik, baxtli yashash, hayotga qiziqishni uyg'otishi va bu nafaqat "ko'proq baxtli bo'lish" kerak degan eng yahshi tomonlaringizni boyitishga shu bilan birga ijobiy hatti-harakatlaringizni ochib berishga yordam beradi. Ijobiy psixologiya tarafdorlari fikrlari va qarashlarida eng qiziqarli va dolzarb tadqiqot natijalariga ko'ra o'z-o'zini anglash va potentsialni ochish uchun mehr-oqibat, minnatdorchilik, ijobiy fikrlash, saxiylik, tanlov va jamoatchilik, farovonlik va muvaffaqiyat haqidagi ko'plab omillarni batafsil o'rganib chiqish insonlar hayotining barcha sohalarida ijobiylik kayfiyati bo'lishini isbotlagan.

Albatta, hayotimizni yaxshilaydigan va samaradorlikni oshiradigan omillarni o'rganish mutlaqo to'ridir. Biroq, murabbiylar - yoki "ijobiy etakchilik" bo'yicha qisqa kurslarni tamomlagan g'ayratli rahbarlar qo'lida - ijobiy psixologiya tezda tanqidni bostirish uchun qulay vositaga aylanib bormoqda deb ta'kidlaydi Sotsiolog Rasmus Uillig. U hatto ijobiy fashizm haqida gapiradi, bu uning fikriga ko'ra ijobiy fikrlashda va o'zgarishlarga ijobiy yondashuv kontseptsiyasida namoyon bo'ladi. Ushbu kontsepsiya insonga hayot haqida faqat ijobiy fikr yuritishga ruxsat berilganda paydo bo'ladigan ongni boshqarish shaklini tavsiflaydi. "O'z tajribamdan shuni qo'shimcha qilishim mumkinki, ilmiy munozaralarni o'tkazishda eng salbiy tajriba, shubhasiz, men bilan aynan ijobiy psixologiya bilan bog'liq. Bir necha yil oldin men ayollar jurnalida va gazetasida ijobiy psixologiyani tanqid qildim va reaksiya juda zo'ravon va kutilmagan edi"deya ta'riflaydi.

Zamonaviy rahbar endi buyruq beradigan va qaror qabul qiladigan qattiq va kuchli hokimiyat vazifasini o'tamaydi. U yumshoq muomalada bo'lish kuchining bir turi bilan shug'ullanadi, "ishdan qoniqish darajasini maksimal darajaga ko'tarish" uchun xodimlarni "muvaffaqiyat" haqida gapirishga "taklif qiladi". Shuni unutingki, menejment va bo'ysunuvchilar o'rtasida hokimiyatning aniq assimetriyasi mavjud va ba'zi maqsadlar boshqalarga qaraganda ancha realdir. Ammo endi hamma narsa "jahon darajasida" bo'lishi yoki "top-10" ga kirishi kerak, va u erga yo'l, albatta, imkoniyat va muvaffaqiyatga e'tiborni qaratganlar uchungina mavjud. Buni majburiy ijobiy deb atash mumkin. Faqat eng yaxshisi yaxshi, va unga erishish uchun faqat orzu qilishdan va ijobiy fikr yuritishdan qo'rqqmaslik kerak.

Barbara Xeld majburiy pozitivlikka - shikoyatga alternativ taklif qiladi. U hattoki nolishni o'rganishga oid kitob ham yozgan. Bu shikoyatchi uchun o'z-o'ziga yordam beradigan adabiyotga o'xshaydi. Kitob "Tabassum qilishni to'xtating, Kvetchinlashni boshlang" deb nomlangan. "Kvetch" bu yahudiycha so'z bo'lib, eng yaxshisi "nolib" deb tarjima qilingan. Men yahudiy



madaniyati bo'yicha mutaxassis emasman (bu haqda deyarli barcha bilimlarimni Vudi Allenning filmlaridan bilib oldim), lekin hamma narsa va har narsadan shikoyat qilish an'anasi baxt va mamnunlikka hissa qo'shganga o'xshaydi. Birlashish va shov-shuv qilish juda yoqimli! Bu suhbatning keng mavzularini va ma'lum birdamlik tuyg'usini beradi. Held kitobining asosiy g'oyasi shundaki, hayotda hamma narsa hech qachon mutlaqo yaxshi bo'lmaydi. Ba'zan narsalar shunchaki yomon emas. Bu shuni anglatadiki, shikoyatlar uchun har doim sabablar bo'ladi. Hayot qiyin, ammo Xeldning so'zlariga ko'ra, bu o'z-o'zidan keluvchi muammo emas. Muammo shundaki, biz hayotni qiyin emas deb o'ylashimiz kerak. Qanday qilyapsiz, deb so'rashganda, bizdan: "Hammasi ajoyib!" deya olishimiz kerak. Garchi aslida hamma narsa juda yomon bo'lsa ham, chunki eringiz sizni aldagan. Salbiy narsalarga e'tibor berishni o'rganish va bu haqda shikoyat qilish - o'zingizning hayotingizni yanada chidamli qilishga yordam beradigan mexanizmni ishlab chiqishi mumkin. Biroq, norozilik nafaqat qiyin vaziyatlarni hal qilishning bir usuli emas. Shikoyat qilish erkinligi haqiqatga yuz tutish va uni boricha qabul qilish qobiliyatiga bog'liq. Va

Biz ijobiy o'zgarishlarga olib kelmasa ham, norozilik huquqimizni qaytarib olishimiz kerak. Ammo bu ularga olib kelishi mumkin bo'lsa, unda hamma narsa muhimroq. Va e'tiroz har doim tashqi ko'rinishga ega ekanligiga e'tibor bering. Biz ob-havodan, siyosatchilardan, futbol jamoasidan shikoyat qilamiz. Biz aybdor emasmiz, lekin ular! Ijobiy yondashuv, aksincha, ichki tomonga yo'naltirilgan - agar biror narsa noto'g'ri bo'lsa, siz o'zingiz va motivatsiyangiz ustida ishlashingiz kerak. Hammasida biz aybdormiz. Ishsizlar ijtimoiy ta'minot tizimidan shikoyat qilmasliklari kerak - aks holda ularni dangasa deb hisoblash mumkin - axir siz shunchaki o'zingizni tortib, ijobiy fikrlashni boshlashingiz va ish topishingiz mumkin. Siz faqat "o'zingizga ishonishingiz" kerak, ammo bu bir tomonlama yondashuv, eng muhim ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy muammolarni shaxsning motivatsiyasi va ijobiyligi masalasiga kamaytiradi.

Xulosa qilsak, pozitiv kayfiyat kundalik hayotda va zamonaviy pedagoglar uchun juda muhim ahamiyatga ega. Chunki kotarinki kayfiyatda boshlangan ish doim samarali boladi. Pedagog darsga kotarinki kayfiyatda kirib kelsa darsda ham shu holat darsni mazmunli otishiga ko'mak beradi. O'quvchilarda ham darsga qiziqish uygota oladi. Aslida pedagog darsga kirishdan oldin ozidagi bor tashvishlarini unutib kirishi kerak. shunda darsni mazmunini oquvchilarga yaxwi yetqazib bera oladi

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Argil, M. Baxt psixologiyasi [Matn] / M. Argill; per. ingliz tilidan A. Lisitsyna. - 2-nashr. - SPb.: Piter, 2003. - 270s.
2. Katta psixologik lug'at [Matn] / ed. B. G. Meshcheryakova, V.P.Zinchenko. - Ed. 4-chi, ichki - M.; SPb.: AST Moskva: PrimeEVROZNAK, 2009. -- 811 p.
3. Levchenko, V.V. Ijobiy psixologiya darsligi. nafaqa [Matn] / V.V. Levchenko. - M.: FLINT, 2014. - 258 p.
4. Amaliy ijobiy pedagogika: o'quv qo'llanma [Matn] / S.V. Kolesov. - Barnaul: AltGPA, 2014. - 226 p.
5. Seligman M. Yangi ijobiy psixologiya: Ilmiy qarash baxt va hayot mazmuni / Tarjima. ingliz tilidan. [Matn] / M. Seligman - M.: Nashriyot



O‘SMIRLIK YOSHIDAGI BOLALARNING XULQ-ATVORIDAGI O‘ZGARISHLAR

Sanayeva Shohista Ismoil qizi

Navoiy viloyati Xatirchi tumani

87-maktab amaliyotchi psixologi

Telefon: 998 93 462 42 41

Annotatsiya: Maqolada bolalarning o‘smirlik davri o‘tish davri bo‘lishi, bu yoshida ulardagi fiziologik va psixologik xususiyatlarning o‘ziga xos jihatlari haqida fikr-mulohazalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ichki erkinlik, anglash hissi, istaklar, erkin va mustaqil, intilish, qiziqish, harakat, o‘qituvchi, yomon odatlar, do‘st, sirdosh, ijobiy natija.

O‘smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo‘lgan davrni tashkil etadi. O‘smirlik – bolalikdan kattalikka o‘tish davri bo‘lib, bu bosqich bolalardagi fiziologik va psixologik xususiyatlar o‘ziga xosligi muhim davr hisoblanadi. Bu yoshdagi bolalarda jismoniy va psixik rivojlanish juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilish ortadi, xarakterida ham o‘zgarishlar bo‘ladi, ma’naviy dunyoqarashi boyiydi.

O‘smirlik davrida bolada ichki erkinlik rivojlanadi, o‘z-o‘zini anglash hissi kuchayadi, mustaqil xatti-harakatlarida o‘zgarishlari yuz beradi. Ko‘pincha so‘zga kirmaslik, o‘jarlik, tajanglik, o‘z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi salbiy xususiyatlar o‘smirlik davriga xosdir. O‘smirlar yon-atrofida, filmlarda va kitoblarda kattalarning mustaqilligini va erkinligini, ularning katta va qiziqarli ishlarini, dadil harakatlarini, qahramonliklarini, atrofdagilar orasidagi obro‘larini ko‘radilar hamda ularga havas qiladilar.

O‘smir mana shu taassurotlari asosida o‘zining juda ko‘p istaklari, va xohishlarini amalga oshirishga intiladi: katta yoshli kishilar ega bo‘lgan hamma narsalardan foydalanishga, erkin va mustaqil bo‘lishga harakat qiladi. Tevarak-atrofdagi odamlarga o‘zini ko‘rsatish uchun u kuchli, qo‘rqmas va epchil bo‘lishga intiladi.

O‘smirlar bu davrda yomon odatlarga qiziqib qolishlari ham mumkin. Ba’zi o‘smirlar katta odam, shuningdek, chekuvchi, ichuvchi singari “yangi rollar”da o‘zini ko‘rsatgisi kelishi ham mumkin. Psixik rivoji jihatidan bolalarga yaqin, lekin ehtiyojlari jihatidan kattalarga yaqin bo‘lgan o‘smirda juda ko‘p noqulay va tashvishga tushuvchi bu holatlar o‘smirda krizisni yuzaga keltirib chiqaradi. Bu krizis o‘smirning ma’naviy o‘sishi, shuningdek psixikasidagi o‘zgarishlar bilan ham bog‘liqdir. Bu davrda bolaning ijtimoiy mavqeyi o‘zgaradi, o‘zining yaqinlari, do‘stlari, tengdoshlari bilan yangi munosabatlari yuzaga keladi. Lekin eng katta o‘zgarish uning ichki dunyosida paydo bo‘ladi. Ko‘pgina o‘smirlarda o‘zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi. Shuningdek, o‘zi haqidagi mavjud fikrlarining bugun unda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga to‘g‘ri kelmayotganligi o‘smirni asabiylashishiga olib keladi. Bu esa o‘smirda o‘zi haqida salbiy fikr va qo‘rquvni yuzaga keltirishi mumkin. Ba’zi o‘smirlarni nima uchun atrofdagilar, kattalar, shuningdek, ota-onasiga qarsh chiqayotganligini anglay olmaslik holatlari ham yuzaga keladi. Bu krizis holati tashvishli bo‘lib, bu holat boladagi mavjud tushkunlik, yolg‘izlikka intilish, passivlik yoki aksi, o‘jarlik, qaysarlik, agressivlik, hayotga salbiy munosabatlarning kechishida namoyon bo‘ladi. Bunday paytlarda u o‘zi singari katta fiziologik, psixologik o‘zgarishlar kechayotgan o‘rtog‘i bilan muloqot qilishga katta ehtiyoj sezadi. Do‘sti o‘smirga ijobiy ta’sir qiladimi yoki uni yo‘ldan urib, yomon ta’sir qiladimi — bu narsa uning axloqiy qiyofasi bilan bog‘liq.

O‘rtoqlarining ta’siri ostida o‘smir o‘zining ehtiyojlari va istaklarini qondirishi mumkin. Agarda bundan qanoatlanish unga katta mamnunlik bag‘ishlasa, bunday hollarda uning ba’zi bir harakat yoki qiliqlarga nisbatan bo‘lgan tasodifiy qiziqishlari dastavval ishtiyoqqa, undan keyin ehtiros yoki odatga aylanishi mumkin. Ana shunday yo‘l bilan o‘quvchilarda, masalan, matematikaga, fizika, ingliz tili, biologiya yoki kimyo fanlariga, shuningdek, biror kasbiy sohalarga: duradgorlik, chilalarlik yoki qandaydir boshqa bir ishlarga nisbatan ishtiyoq yuzaga keladi. Fanlarni o‘qib-o‘rganish o‘smirlar hayotida katta o‘rinni egallaydi. Ularga mashg‘ulotlarning mustaqil shakllari yoqadi. Boshqa davr bolalariga nisbatan o‘smirlarning fanlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishlari, qiziqishlarining ortishi, o‘qituvchining o‘quv materialini tushuntira olish mahoratiga bog‘liq. Bilim o‘rganish ehtiyojlari asosida asta-sekinlik bilan o‘quv fanlariga nisbatan qat’iy ijobiy munosabat shakllanadi. Bu davrda o‘qishning yangi motivlari yuzaga keladi. Bu motivlar



o‘smirning, hayotiy rejalari, kelajak kasbi va ideali bilan bog‘liq bo‘ladi. Aynan o‘smirlik davridan boshlab, bolalar hayotiy, ilmiy, badiiy bilimlarni kengaytirishga alohida ehtiyoj sezadilar va bunga harakat qiladilar. Bilimli bola tengdoshlari orasida hurmatga sazovor bo‘ladi. Bilim o‘smirlarga alohida bir quvonch bag‘ishlaydi va uning tafakkur qilish layoqatini rivojlantiradi.

Ammo ba’zi o‘quvchilar xuddi shunday hollarda yolg‘onchilikka, bezorilikka va boshqa axloqsiz xatti-harakatlarga ham o‘rganib qolishlari mumkin. O‘smirlik davridagi bunday bolalarga oilada ota-onalar, maktabda o‘qituvchilar ularni biror bir nima bilan band qilishga, bo‘sh vaqtida biror nimaga jalb qilishga erishish kerak. Masalan, ularda ishbilarmonlik sifatini yo‘lga qo‘yish, umumiy foydali tadbirkorlik ishlarida ishtirok etishini tashkil etish orqali ulardagi yomon odatlarni bartaraf etish mumkin. Bu borada o‘quvchi-sinf rahbari ijrochi ro‘lida emas, balki o‘smir bilan yaqin do‘st, ko‘makdosh, sirdosh munosabatda bo‘lgan taqdirdagina ijobiy natijaga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Xaydarov F.I., Xalilova N. —Umumiy psixologiyal. T.: —Fan va texnologiyalarl markazining bosmaxonasi : 2009.
2. Dusmuxamedova SH.A., Nishonova Z.T., Jalilova S.X., Karimova SH. K., Alimbaeva SH.T. —Yosh va pedagogik psixologiya T. TDPU, 2013 .
3. N.S.Safayev, N.A.Mirashirova, N.G.Odilova Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti: o‘quv qo‘llanma. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013
4. www. ziyonet. uz



TURKIYLAR UYG‘ONAYLIK! BIR TILDA SO‘ZLASHAYLIK! YOXUD BUGUNGI KUNIMIZDA O‘RTATURK TILI QANCHALIK DOLZARB?

Tolyaganova Ra‘no Ilyasovna

Toshkent shahar Olmazor Tumani

191-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi

o‘zbek tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada hozirgi barcha turkiy xalqlarning tillarini o‘rtalashtirish orqali bitta umumiy o‘rta til yaratish haqida so‘z yuritiladi. Shu o‘rinda hozirda vositachilik qilayotgan yokivositachilikka da’vo qilayotgan boshqa tillarning ijobiy va salbiy jihatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Etnolingvopанизм, o‘rtaturk tili, o‘rtalashtirish, turkchilik, turkiy tillar, vositachi til.

Annotation. The article discusses the creation of a single common language by sharing the languages of all modern Turkic peoples. It discusses the pros and cons of other languages that are currently being mediated or claimed to be mediated.

Keywords: Ethnolinguopanizm, Middle Turkic, Middle Ages, Turkism, Turkic languages, intermediate language.

Insoniyat yaralibdiki, til uning eng yaqin tayanchi, suyanchig‘i sifatida u bilan birga yashab kelmoqda. Darhaqiqat, til insoniyat uchun aloqa almashinuvi vositasi sifatida bebaho ne‘matdir. Shuning bilan birga til inson ijtimoiy ehtiyoji bo‘lgan insonlar o‘rtasidagi ruhiy yaqinligini, yakdilligini taminlovchi va ajralmas qadriyatining bir qismi bo‘lgan ma’naviy boyligidir. Demakki, tilning asosiy vazifasi bu- insonlarning birligi, hamjihatligiga xizmat qilishdir. Bugungi kunda, millatlararo ziddiyatlar keskinlashib bu ba’zan davlatlar o‘rtasida to‘qnashuvga, ba’zan ichki ziddiyatlarga, ba’zan esa mustahkam ko‘ringan davlatlarning parchalanishiga olib kelayotgan bir paytda tilning asosiy vazifasi, millatlar, xalqlarni birlashtirish vazifasi kun tartibiga chiqadi. Aynan mana shunday barqaror, mo‘tadil bo‘lmagan siyosiy vaziyatda barcha turkiy xalqlarni siyosiy, iqtisodiy va eng muhimi madaniy, ma’naviy jihatdan birlashtirib hamjihat bo‘lishiga xizmat qilishi mumkin bo‘lgan, hozirda mavjud barcha turkiy tillar uchun shaklan va mazmunan bir xil uzoqlikda va yaqinlikda bo‘ladigan o‘rtaturk tili taklif qilinyapdi. Tarixda ming yillar davomida yagona bo‘lgan qadimgi turk tili bugungi kunga kelib mustaqil, shaklan ma’lum darajada bir biridan uzoqlashgan bir nechta tillarga bo‘linib ketgan. Turkiy tilning shakllanish davrida bu tilda so‘zlashuvchi xalaqlar nafaqat til balki madaniy, manaviy, iqtisodiy jihatdan ham yakdil bo‘lgan. Turkiy tilning sheva va lahjalarga bo‘linish jarayoni o‘rta asrlarda boshlangan bo‘lishiga qaramay alohida til darajasidagi farqlanish XX asrda vujudga kelgan. Shu davrdagi ma’lum tarixiy jarayonlar natijasida til parchalangan va bu til bilan birga shu tilda so‘zlashuvchi xalqlarning ham madaniy, iqtisodiy va boshqa muhim ijtimoiy jihatdan bo‘linishiga sabab bo‘lgan. Ushbu tilni qayta birlashtirish harakati XIX asr oxiri XX asr boshlarida qayta jonlanadi. Bu harakat shu davrdagi turkiy ellarning birlikka intilishi jarayoni bilan barobar kechdi hamda birgalikda “turkchilik”, “panturkizm” nomini oldi. turkiy xalqlarning keyingi taqdiri mustamlakasi bo‘lgan davlati bilan bog‘liq bo‘lib qoldi. Barcha qaram bo‘lgan turkiy tillarga rus tili va xitoy tilining fonetik leksik va uslubiy ta’siri kuchayib bordi. Turkiyadan tashqarida turkiy olamning rivojlanishi to‘xtab yagona turkiy til yaratish umidi ham tugatildi. Keyingi davrda esa turkchilik tarafdorlarini taqib va qatag‘on kutib oldi. Natijada, turkiy tillar rivojlanishi qiyin masalaga aylandi. Aslida turkchilik yoki barcha turkiy xalqlar uchun yagona til yaratish erkin, demokratik, xolis tushunchadir. “Turkchilik(panturkizm), slavyanchilik (panslavyanizm), germanchilik (pangermanizm), eronchilik(paneronizm) singari mohiyatan o‘xshash tushunchalarni qamrab oluvchi umumiy tushunchaga kiradi. Bu tushunchani eltilchilik(etnik lingvistik panizm, qisqacha etnolingvopanizm) termini bilan ifodalaymiz. Eltilchilik(etnolingvopanizm) potensial(salohiyat) yaxlitlik falsafiy konsepsiyasining tegishli ellar guruhiga nisbatan qo‘llanilishidir...

Agar muayyan eltilchilikka oid mafkuraviy qarashlar demokratik huquqiy ko‘p millatli davlat konstitutsiyasiga xilof bo‘lmasa, mazkur davlatda ushbu etnolingvopanizmga mansublik boisidan qatag‘on usullarini adolatga zid deb tushunmoq kerak. Aks holda, millatning o‘z taqdirini o‘zi belgilash umumdemokratik huquqi tugul, hatto millat o‘z imkoniyatlarini, rivojlanish yo‘llarini o‘rganishi ham ta’qiqlangan bo‘lib chiqadi.



Fikrimizcha, etnolingvopанизм quyidagi turlardan iborat:

1. Til-madaniyat etnolingvopанизми, ya'ni tegishli ellar guruhi uchun ularning til va alifbolarini yaqinlashtirish, ular uchun yagona yoki yordamchi umumiy tilni yaratish, madaniyatning umumiylikni oshirish, o'zaro muloqotlar va yordamni kuchaytirish g'oyalari.

2. Siyosiy etnolingvopанизм, ya'ni muayyan ellarning milliy davlatlarini birlashtirish yo'li bilan ularning federativ davlatini, konfederativ hamdo'stligi yoki unitar (yagona, bo'linmas) davlatini barpo etish g'oyasi.

3. Avjiga chiqqan etnolingvopанизм, ya'ni yakkayu yagona tilni joriy etish, o'zaro yaqin, lekin alohida ellardan, hatto millatlardan yagona yirikroq millatni shakllantirish va ushbu millatning yagona milliy davlatini vujudga keltirish zarurligi to'g'risidagi g'oyalar... Etilchiliklarning boshqa demokratik shakllari kabi, demokratik panturkizm ham millat va insonning xalqaro huquqiy normalariga zid kelmaydi, balki u umuminsoniy qadriyatdir" [1]. Mana shunday qiyin bosqichlardan o'tgan turkiy tillar va xalqlar oldiga tarixning o'zi yana yaqin madaniyatni yaratish uchun yagona bir umumiy tilni shakllantirish vazifasini qo'ydi.

Biz yaratadigan bu umumiy til mukammal, nuqsonsiz va har tomonlama qulay bo'lishi uchun esa bugungi kunda dunyoda vositachilik qilayotgan hamda vositachilik qilishi uchun taklif qilinayotgan tillardagi afzal jihatlari va kamchiliklarni ko'rib chiqishimiz lozim bo'ladi. Barchamizga ma'lumki, hozirda dunyoda eng ko'p axborotlar almashinuvi vositachi tili bo'lib ingliz tili xizmat qilyapdi. Ingliz tili yoki boshqa biror millat tilining vositachi tili bo'lishining ma'lum ijobiy va salbiy jihatlari bor: Millat tili vositachi tili bo'lishining ijobiy jihati shundaki, vositachi til sifatida tanlanadigan til boshqa xalqlar hayotiga kirib borganda nafaqat shu til, balki shu tilda so'zlashuvchi xalqning madaniyati ham boshqa xalqlar madaniyatini boyitadi.

Salbiy jihatlari esa quyidagilar:

“Millat tili vositachi tili bo'lishining ikki nomaqbul jihatlari bor:

Ma'naviy-huquqiy jihati, ya'ni vositachi til egalari boshqa xalqlar o'zlarini doim ikkinchi darajali, huquqi bir oz kamsitilgan til egalari deb sezadilar, demak, millatlar va shaxslarning til huquqlari buziladi.

Iqtisodiy jihati, ya'ni vositachi til egalari boshqa xalqlar ona tilidan boshqa tilni o'rganishga majbur bo'lishlari tufayli dunyo axboroti boyliklarini o'zlashtirishdan bir necha yil orqada bo'ladilar”[1]

Bulardan shu narsa ko'rinib turibdiki, vositachi til qaysidir bitta millat tili bo'lmagani maqul. Bundan tashqari lotin tilini qayta tiklab vositachi til qilish takliflari ham mavjud bo'lib buning ham bir nechta ijobiy va salbiy tomonlari bor: Bunday ijobiy jihatlari shundan iboratki, lotin tili hozirgi ko'pgina xalqlar uchun bobo til sanaladi. Bu esa shu oilaga mansub tillarda so'zlashuvchi xalqlarning barchasiga lotin tilini bir xil darajada yengil o'rganish imkoniyatini beradi.

“Lotin tilini tiklashga bo'lgan e'tirozlar quyidagicha:

Lotin tili o'lik til bo'lib, uning lug'aviy boyligi hozirgi voqelikni to'la ifodalashga yaroqsizdir. Shu bois, lug'at ustida ishlash va unga boshqa tillardan so'zlar kiritish zarur bo'ladi; Lotin tili grammatikasi ancha murakkab, shuning uchun lotin tilini o'rganish kishidan ko'p vaqt va kuch talab qiladi. Lotin tili hozirgi roman tillar guruhi uchun bobotildir. Shuning uchun bu guruh tillarida so'zlovchilar o'zlarining tillari vositachi tilga yaqinligi tufayli afzalliklarga ega bo'ladilar va shu jihatdan teng huquqlilik buziladi” [1].

Jahon vositachi tili bo'lishi uchun yana bir taklif bu- so'ngi yillarda ishlanib taklif qilinayotgan sun'iy tillardir (masalan, shunday tillardan eng maqulrog'i esperanto tili). Ammo bunda ham ma'lum ijobiy va salbiy jihatlari bor: Bunda ijobiy jihat shuki, hozirgi taklif qilinayotgan sun'iy tillar qisqa so'zlardan iborat bo'lib, bu muloqot ixchamligini ta'minlaydi. Jihatlari lotin tilidan afzal, ammo hozir mavjud sodda, kommunikatsiya uchun yaroqli tillar (jumladan, keng qo'llanilayotgan esperanto tili) biron bir guruh tillar asosida tuzilgan. Aksariyat tillar (esperanto, Ido, Oksidental, Idiom-neytral va boshqalar) G'arbiy Yevropa tillari materiali asosida tuzilgan. Shuning uchun asos tillarning egalari afzal holatda bo'lib, kishilarning va xalqlarning teng huquqliligi buziladi” [1]. Shulardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, jahon vositachi tili yoki mintaqaviy vositachi til qo'llanilishi mo'ljallanayotgan hududdagi asos bo'layotgan tillarga birday yaqin yoki uzoq til bo'lishi kerak. “Mintaqaviy tillarni yaqin tillar guruhi asosida ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Ayni shu usul yuqorida tilga olingan etnolingvopанизmlar xalqlarning xohish-irodasini ifoda etgan taqdirda o'zaro yaqin xalqlar millatdan yuqoriroq darajada birliklarga erishishlarini ta'minlaydi” [1].



Xo'sh, biz aytayotgan o'rtaturk tili qanday bo'ladi? Uning ko'rinishi, ichki grammatikasi qanday tuziladi? Lug'at boyligi qanday tuzib chiqiladi? Eng asosiysi bu til barcha turkiy xalqlar uchun birdek manzur bo'ladimi? Baxtiyor Karimov shu borada o'zining “o'rtalashtirish” deb atalgan usulini taklif qilmoqda.

“Biz bunday tilni ishlab chiqish usulni taklif qilganmiz. Bu usulda biz “o'rtalashtirish” deb atagan yo'l qo'llanib, o'rta tildagi birliklar mumkin qadar ko'proq tillarda mavjud bo'lib, ushbu tillarda so'zlovchi ko'proq kishilarga tushunarli bo'lishi maqbulligi hisobga olingan. Shevalar yoki tillar guruhi uchun matematik tadbir orqali tilning har bir darajasida umumiy fondni aniqlab, shu fond birliklarini o'rtalashtirilgan tilning tegishli darajalari birliklari normasi sifatida ro'yxatlab qo'yiladi. Umumiy fondni aniqlash uchun avval har bir darajada birliklarning ro'yxati tuziladi. Lug'aviy fond uchun bu ro'yxat sifatida chastotali lug'atning yuqori qismi olinadi... Biz o'rtalashtirilgan til tuzish usulini turkiy tillar misolida namoyish qilamiz. Darajali struktura barcha tillarda kuzatilgani tufayli bu usulni tub o'zgarishsiz har qanday yaqin qardosh tillar guruhiga — eron, hind, slavyan, roman, german va hokazo tillar guruhlariga moslashtirish va o'rtaeron, o'rtahind, o'rtaslavyan, o'rtaroman, o'rtagerman va boshqa o'rta tillarni yaratish mumkin. Leksika tilning eng hajmi katta va voqelikni bevosita aks ettiruvchi sistemasi ekanligi tufayli so'zlar darajasida o'rtalashtirish eng ko'rgazmali bo'ladi (turkiy tillar uchun ikki tili lug'atlar sistemasi hali ishlab chiqilib tuzilgan emas. Shuning uchun tillardagi tushunchalar ekvivalentlarini biron bir jahon miqyosidagi til (mas: ingliz yoki rus tili) orqali topishimiz kerak bo'ladi).

Misol uchun o'zbek tilidagi “gapirmoq” leksemasini olaylik. So'ng “gapirmoq” so'zining sinonimlarini topamiz: “gapirmoq, so'zlam, aytmoq, so'ylamoq (kitobiy), demoq”. “Gapirmoq” so'zi ruscha “govorit” ekvivalentining o'zbekcha va turkchaga tarjimalari quyidagicha:

o'zbekcha:	turkcha:
gapirmoq	konusmak
so'zlam	bahsetmek

Ko'rinib turibdiki, bunday lug'atdan olingan ekvivalentlar soni sinonimlar qatoridagi so'zlardan kamroq. Shuning uchun turkiy tillarda fe'lining tugallangan va tugallanmagan turlari qarama-qarshi qo'yilmaganligini hisobga olib, “gapirmoq” tushunchasi uchun rus tili orqali ekvivalentlarni topganda ruscha “govorit” va “skazat” so'zlarining ekvivalentlarini olishimiz kerak. Shunda:

O'zbekcha:	turkcha:
Gapirmoq	konusmak
So'zlam	bahsetmek
Tildan foydalanmoq	söylemek
Aytmoq	demek
Izhor qilmoq	

guruh ekvivalentlar topildi. Ko'rinib turibdiki, o'zbek tilidagi guruh “gapirmoq” so'zining sinonimlari qatoriga yaqinroqdir. Shu tariqa barcha turkiy xalqlar tillarida “gapirmoq” tushunchasining ekvivalentlari topiladi” [1]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Каримов Б.Р., Муталов Ш.Ш. Ўртатурк тили. Тошкент. Мехнат. 1992.
2. Nurmonov A. Yo'ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar.-Toshkent: Sharq, 2001. Каримов Б.Р., Муталов Ш.Ш. Усредненные языки: Попытка решения мировой языковой проблемы. Тошкент. Фан. 2008.



KITOBXONLIK - MA'NAVIYAT SARCHASHMASIDIR

Tovbayeva Feruza Baxtiyorovna

Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani

3-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Inson ma'naviyatining sarchashmasi bo'lmish kitob hamda kitobxonlik, aholi orasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish haqida fikr mulohazalar bildiriladi.

Kalit so'zlar: Kitobxonlik madaniyati, Alisher Navoiy, Shavkat Mirziyoev, PQ-3271 sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”, intellektual saviya.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida”gi farmoyishi ta'bir joiz bo'lsa, hayotimiz, tafakkurimiz va ma'naviyatimizda g'oyat ulkan voqea bo'ldi. Ushbu sa'y-harakat milliy adabiyotimiz va ma'naviyatimiz ravnaqida katta siljishlarning debochasi bo'lishiga astoydil ishonib turibmiz. Ayniqsa, bu o'rinda xorij tajribasini o'rganish, yoshlar o'rtasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o'stirishga xizmat qiladigan kitoblarga talabni o'rganish kabi masalalarning ko'tarilgani g'oyatda tahsinga loyiqdir. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari yozganidek, “kitob – beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai”. Xalqimiz tilida kitob o'qib bilim va munosib tarbiya olish, kasb-hunar o'rganishning ahamiyatiga doir maqollar juda ko'p. Jumladan, “Kitobsiz aql – qanotsiz qush”, “Bilim – aql chirog'i”, “Go'zallik – ilmu ma'rifatda”. Bunday hikmatli naqlarni yana uzoq davom ettirish mumkin. Necha ming yillardan buyon insonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatib kelayotgan, ularning bilimli, tarbiyasi, kasb-hunarli va albatta baxtli bo'lishining muhim omili – bu kitobga do'st bo'lish, va kitob o'qishni kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, yoshlarning hayotida kitobning alohida o'rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabr kuni qabul qilingan PQ-3271 sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”gi qarorining qabul qilinishi ham ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning dalilidir desak, aslo, xato bo'lmas edi. Ushbu qarorga muvofiq, qabul qilingan dastur bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

I bosqich – 2020–2021-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

II bosqich – 2022–2023-yillarda kitobxonlikka oid infratuzilmani mustahkamlash;

III bosqich – 2024–2025-yillarda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, ularning intellektual salohiyati o'sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilash.

“Ayni paytda, - deydi Shavkat Miromonovich, - axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do'st bo'lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ'ib qilishga alohida e'tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi”. Mamlakatimiz rahbarining kitob, kitobxonlik madaniyatini yaxshilash to'g'risida kuyunib gapirayotganliklarining chuqur falsafasi bor. Birinchidan, yuqorida qayd etilgani kabi, kitob insonni yerdan ko'kka ko'taruvchi, uning ma'naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuch hisoblanadi. Ikkinchidan, kitob insoniyatning tarixiy xotirasi, barchamizni o'z ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy zaminimizni mustahkamlovchi, kelajakni yorqin ko'rsatib borishga qodir mash'ala hisoblanadi. Shuning uchun ham bizning yurtimizda ilm olish, kitob yozish, ijod qilish har doim ham millatning mavjudligi va u nimaga qodir ekanligini ko'rsatuvchi muqaddas tushunchalar hisoblanadi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, Boladagi barcha tarbiyaviy hislatlar dastlab oilada



shakllanadi, demak kitobxonlik ham o'z oilasi a'zolari ko'magi va ta'sirida yuzaga keladi, rivojlanadi. Kitobxonlikning yaxshi yoki sust rivojlanishida oiladagi boshqa a'zolarning kitobga, o'qishga munosabati katta ta'sir ko'rsatadi. Ota-ona har bir ishda, jumladan kitobga munosabatva uni o'qishda ham bolalariga o'rnak bo'lishlari lozim. Oilada bola kitobxonligining faollashuvida shaxsiy kutubxonadagi kitoblarni birgalikda o'qish va ularni muhokama qilish; ota-onaning boladan har bir javob haqidagi shaxsiy tushuncha va fikrini so'rash, bu fikrni bildirish uchun bolaning kitob haqida mushohada yuritishni o'rganish (aniqrog'i o'rganish) muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida” (2017 yil 12 yanvar)gi farmoyish
2. <https://www.standart.uz/news/view?id=1627>



MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Tursunova Dilbar Abduraimovna

Termiz davlat universiteti qoshidagi
Pedagogika instituti Musiqa
talimi yoʻnalishi 1- bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda musiqa madaniyati darslariga pedagogik texnologiyalarni foydalanish va darsni samarali tashkil etish boʻyicha soʻz boradi.

Kalit soʻzlar: Pedagogik texnologiya, taʼlim-tarbiya, texnik vositalar, interfaol usullar, texnologik trening.

Hozirgi vaqtda «pedagogik texnologiya» taʼlim berishning texnik vositalari yoki kompyuterdan foydalanish sohasidagi tadqiqotlardek qaralmay, balki bu taʼlimiy samaradorlikni oshiruvchi omillarni tahlil qilish yoʻli orqali, yoʻl va materiallarni tuzish hamda qoʻllash, shuningdek qoʻllanilayotgan usullarni baholash orqali taʼlim jarayoni tamoyillarini aniqlash va eng maqbul yoʻllarini ishlab chiqishni aniq maqsad qilib olganligidadir. Jahon mamlakatlari taraqqiyotidan maʼlumki, har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishi, unda yashovchi aholining maʼnaviy saviyasi nechogʻlik yuksakligiga bogʻliq. Vaholanki, mustaqil Oʻzbekistonning jahondagi rivojlangan mamlakatlar darajasida ijtimoiy-iqtisodiy, maʼnaviy rivojlanishi koʻp jihatdan yosh avlodni kamol toptirishga, uni yangi ijtimoiy munosabatlarga erkin kirisha oladigan, umuminsoniy qadriyatlarni eʼtirof etadigan, maʼnaviy qadriyatlarga yoʻnaltirilgan ijtimoiy faol, yuqori madaniyatli, malakali kadrlar boʻlib yetishishiga bogʻliq. Jumladan, yoshlarga taʼlim-tarbiya berishda madaniyat, qadriyat, milliy sanʼat namunalaridan keng foydalanilmoqda. Taʼlim tizimida “Ustoz - shogird” anʼanalaridan foydalanish masalasiga katta ahamiyat berilmoqda.

Taʼlim tizimining barcha boʻgʻinlarida “Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasbhunarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega boʻlgan masala hisoblanadi” deb taʼkidlaydi prezidentimiz Sh.Mirziyoyev. Shu bois musiqa darslarida oʻquvchilarini maʼnaviy tarbiyalashda taʼlim-tarbiya tizimiga innovasion, yaʼni ilgʻor pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish davr talabi boʻlib kelmoqda. Ana shularni nazarda tutgan holda biz musiqa madaniyati darslari jarayoniga pedagogik texnologiyalarni foydalanish va rejalashtirish hamda ushbu texnologiyalardan foydalangan holda musiqa taʼlim sifatini oshirishga qaratilgan imkoniyatlar toʻgʻrisida fikr yuritamiz. Maqolamizni maqsadi ham oʻquvchilarini musiqiy taʼlim sifatlarini oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning pedagogik yoʻllarini ishlab mashgʻulotlarga joriy etishdir.

Musiqa madaniyati darslari jarayonida oʻquvchilarga bilim berishda zamonaviy yangi pedagogik texnologiyalarni qoʻllash va ularni oʻquv jarayoniga foydalanish mexanizmlari ochib berilmoqda. Bunda har bir oʻquvchining musiqiy – hissiy qabuli va emosional idroki masalasi bosh masala qilib qoʻyilgan. Umumtaʼlim maktab musiqa madaniyati darslari, «Musiqa fani» darsliklar hamda oʻquvchilarini maʼnaviy tarbiyalashda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning mazmun, shakl va metodlari ham ishlab chiqilgan. Pedagogik amaliyotda yangi yoʻl va vositalarini jadal tatbiq etilayotganligini kuzatish mumkin. Biroq baʼzi taʼlim shakl va faol usullar oʻrniga boʻlinmas taʼlimiy texnologiyalar zarur. Lekin taʼlimiy jarayonni texnologiyali loyihalashtirish va rejalashtirishni, faqat texnologik bilim, koʻnikma va malakalarga ega boʻlgan oʻqituvchi bajara olishi mumkin. Chunki, musiqa madaniyati darslarida oʻquvchilarini yangi pedagogik texnologiyalar orqali maʼnaviy tarbiyalash jarayoni dars mashgʻulotlari orqali amalga oshadi. Ular oʻz ifodasini anʼanaviy va noanʼanaviy oʻqitish uchun majmualar texnik vositalarni yaratishda topgan.

Hozirgi vaqtda pedagogik texnologiya oʻqitishning texnik vositalari yoki kompyuterlardan foydalanish sohasidagi tadqiqotlardek qaralmaydi, balki bu taʼlim samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish, ishlab chiqish hamda usul va materiallarni qoʻllash, shuningdek qoʻllanilayotgan usullarni baholash yoʻli orqali taʼlim jarayonining asoslari va uni maqbullashtirish yoʻllarini ishlab chiqishni aniqlash maqsadiga qaratilgandir. Barcha taʼlim va tarbiya ishlarini pedagogik texnologiya yoʻliga oʻtkazish, maktab amaliyoti pedagogik jarayonini ixtiyoriy qurish



va uni amalga oshirishdan keskin burilishini anglatadi.

Shuning uchun ham biz o'qituvchilar bu borada ilg'or pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga loyixalashtirib, uni keng tadbqiq etishimiz darkor. Dars jarayonida o'quvchilarga pedagogik texnologiyani va ta'lim-tarbiyani birgalikda olib borish maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi o'quvchilarni ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatlarini shakllantirishi, ularda milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishini ta'minlashi zarur. Ma'lumki, «Pedagogika» ta'lim – tarbiya haqidagi fan sifatida tarbiyaning mohiyatini tushunishini va uning qonuniyatlarini ochib berishi hamda shu orqali inson manfaatlari tarbiya jarayoniga ta'sir etishini nazarda tutadi. Bu albatta ko'pgina muammolarni hal etishda yaqindan yordam beradi. Ilg'or pedagog murabbiylar tajribasi bilan bir qatorda oddiy o'qituvchilarning faoliyatlari ham o'rganib boriladi. Texnologik loyixalash tajribalarni o'rganish jarayonidagi muammo: yutuq va kamchiliklar aniqlanadi. Bunda kuzatish, intervyu olish, anketalashtirish, o'quvchilarning yozma va og'zaki hamda amaliy va ijodiy ishlari, pedagogik hujjatlarni o'rganish metodlaridan unumli foydalaniladi. Pedagog-o'quvchi darsning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan: natijaga erishish uchun balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, bular o'qituvchi va o'quvchiga bog'liq. O'qituvchi o'qitish jarayoni oldindan darsni loyihalashtirishi zarur, bu jarayonida pedagog o'quv predmetining o'ziga xos tomonini va sharoitini, eng asosiysi, o'quvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin.

Qisqa qilib aytganda, o'qituvchi o'quvchini ta'limning markaziga olib chiqish kerak. Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati dars jarayonida talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondoshish, ma'suliyatni sezish. ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga, pedagogika va o'zi tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishlarni kuchaytiradi.

Umumiy tarzda xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bunday natijaga erishish amaliyotda o'quv jarayonida loyixalash va pedagogik texnologiyalarni qo'llashni taqazo etadi. Ular juda xilma – xildir. Bular yangi interfaol usullar va ta'lim metodlari hamda hozirda dars jarayonida qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar shular jumlasidandir. Ta'kidlash lozim-ki, yuqorida keltirilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglardan keng foydalanilsa, o'quvchilarda aqliy, ijodiy va mustaqil fikrlash shakllanadi. Ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga, yetuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarini oshirishga keng yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T. O'zbekiston 2017 yil, - 489b.
2. Azizxo'jayeva N. «Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat» Toshkent., O'qituvchi», 2006 yil.
3. Karimova D. «Musiqiy pedagogik mahorat asoslari» Toshkent., «Moliya», TDPU., 2008 yil.



YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTON SHAROITIDA TALABALARNING FUQAROLIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Umarov Djamshed Saytmurotovich

Nizomiy nomidagi TDPU, erkin tadqiqotchi

Annotasiya : Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida talabalarning fuqarolik savodxonligini rivojlantirish, insonning o'z-o'zini fuqarolik, axloqiy va siyosiy qobiliyatini kamolga yetkazishda shaxsning integrativ shakllanishidir.

Tayanch so'zlar: O'zbekiston, jamiyat, talabalar, fuqarolik, savodxonlig, rivojlantirish, inson, axloqiy, siyosiy, moddiy, ma'naviy, dunyo, global.

Zamonaviy O'zbekiston jamiyatining ravnaqi – uning moddiy va ma'naviy sohalari bilan bevosita bog'liq. Butun dunyodagi va mamlakatimizdagi global o'zgarishlar tufayli ijtimoiy hayotdagi, iqtisodiy, ekologiya, demografiya inqirozli vaziyatlarni yengish zamonaviy hayotning mavjud salbiy holatlari bartaraf etiladigan yangi turdagi jamiyatni qurish bo'yicha davlat va fuqarolarning hamkorlikdagi urinishlarini talab etadi. Bu qanday jamiyat? Bu javob hamma uchun tanishdek tuyuladi: bu fuqarolik jamiyatidir.

O'zbekiston taraqqiyotining bosh yo'li jamiyatni demokratlashtirish va fuqarolik davlatini kurishdan iboratdir. O'zbekistonda demokratik jamiyatni kurish eng avvalo, aholini o'zbek xalqining ming yilliklar tarixi, ma'naviy taraqqiyoti, buyuk madaniyati, ma'naviy meros va boy an'analari bilan yaqindan tanishtirish, ular to'g'risida yetarli bilimga ega bo'lishlari uchun sharoit yaratish zarur. Ana shunday sharoitlardan biri - bu ta'lim jarayonida talabalarni milliy tarix, madaniyat va turmush tarzi bilan yaqindan tanishtirib borish, o'quv fanlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar mazmuniga milliy kadriyatlarni singdirish sanaladi.

Mustaqil O'zbekiston jamiyat a'zolarining fuqarolik bilimlarini yuksaltirib borish, fuqarolik demokratik davlat qurishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Fuqarolik jihatdan bilimli bo'lgan insonlar fuqarolik davlat qonun ustuvorligiga asoslanishini his qila oladi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, fuqarolik davlatning quroli ham, himoyasi ham, ko'zi ham, so'zi ham qonundir. Fuqarolik davlatda qonunlar doimo ustuvor bo'lishi kerak. Shu bilan birga oliygoh talabalarda fuqarolik savodxonligini rivojlantirish eng avvalo, huquqiy tarbiya ta'sirida shakllanadi. Huquqiy tarbiya tartib-intizom darajasining oshishiga, burch va mas'uliyat hissining mustahkamlanishiga hamda oliygoh talabalarda fuqarolik savodxonligini rivojlantirishga yordam beradi.

Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida talabalarning fuqarolik savodxonligini rivojlantirish fuqarolik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish uchun ayniqsa talaba-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni ham taqozo qiladi. Chunki Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat, vatanparvarlik tuyg'ulari insonda o'z-o'zidan, ongsiz ravishda paydo bo'ladigan, shakllanadigan narsalar emas. Ular har bir kishida jamiyatda uni o'rab turgan ijtimoiy madaniy muhit ta'sirida jamiyatning ta'lim-tarbiyasi asosida shakllanadi va rivojlanadi. Albatta ushbu fazilatlar shaxs faoliyatida kamol topadi. Shunday ekan barkamollik, bilimdonlik, mexnatsevarlik, ahloqiy soflik kabi fuqarolarga xos his-tuyg'ularni shakllantirish, insonparvar, vatanparvar shaxsni voyaga yetkazishda muhim hisoblanadi. Chunki, ushbu fazilatlar insonda ma'naviy-ahloqiy salohiyat va ijtimoiy faollikni oshirib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirish bilan birga, fuqarolik savodxonligini rivojlantirish burchi va vazifalarini bajarish mas'uliyatini rivojlantiradi. Demak, sog'lom, iymon-e'tiqodli, aqlan teran, ahloqan pok, o'z hak-huquqlari, burch va mas'uliyatlarini chuqur anglaydigan yoshlarni voyaga yetkazish fuqarolik savodxonligini rivojlantirish jamiyatini asosini tashkil etadi.

Shunday ekan, mamlakatda demokratik o'zgarishlarni yanada chukurlashtirish va fuqarolik jamiyat asoslarini shakllantirish, uning quruvchilari hisoblangan yosh avlodning fuqarolik tarbiyasini takomillashtirish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Fuqarolik savodxonligini rivojlantirish fuqarolik madaniyatini shakllantirish, jahonda ro'y berib, kuchayib borayotgan xalqaro terrorizm, diniy fundamentalizm va ekstremizmning oldini olish; ayrim yoshlarning o'qishga, mehnatga, ijtimoiy-siyosiy hayotga qiziqishining susayib, ular o'rtasida avj olgan giyohvandlik, ichkilikbozlik, huquqbuzarliklarni bartaraf etish; har bir insonning erkin, mustaqil ongli, bunyodkor, tashabbuskor va to'laqonli huquq va erkka ega, davlat boshqaruvida faol ishtirokchi shaxs qilib voyaga yetkazish kabi talablarini to'liq bajaradi. Axloqiy yondashuv asosida talabalarning fuqarolik savodxonligini rivojlantirish bir vaqtda: o'z burchi va majburiyatlarini



chuqur anglovchi, jamiyat hayotini yo‘lga ko‘yishda faol ishtirokchi, fuqarolik jamiyat oldida turgan joriy va istiqbol vazifalarni xal etuvchi, jamiyatni boshqarishda bevosita va bilvosita ishtirok etuvchi, mamlakat qudratini mustahkamlash yo‘lida moddiy va ma‘naviy boyliklarni yaratuvchi, milliy qadriyatlarni asrab-avaylovchi, milliy an‘analarga sodiq, millat vakillari tomonidan xalqaro maydonlarda qo‘lga kiritilayotgan yutuqlardan faxrlana oluvchi, millat va mamlakat obro‘si uchun kurashuvchi, Vatan mudofaasini ta‘minlovchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

Fuqarolik madaniyati yuqori darajada bo‘lgan shaxs «..jamiyatga beruvchi foydalari va jamiyatdan oluvchi manfaatlar nisbatini teran anglovchi hamda o‘z amaliyotida bu nisbatda muvozanat buzilmasligiga qat’iy rioya etuvchi sub’yektdir»[1]

Yoshlarni tarbiyalash va unda fuqarolik savodxonligini rivojlantirish murakkab hamda davomiylik xususiyatiga ega jarayon hisoblansada, talabalik yillari bu jarayonni yanada kengiroq fikirlash uchun huquqiy bilimni talab qiladi.

Yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida talabalarining fuqarolik savodxonligini rivojlantirish, insonning o‘z-o‘zini fuqarolik, axloqiy va siyosiy qobiliyatini kamolga yetkazishda shaxsning integrativ shakllanishidir.

Yoshlarning asosiy elementlariga axloqiy va fuqarolik madaniyat kiritilib, u insonlarda o‘z davlatiga mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lish va boshqa insonlarga hurmat bilan qarashda ifodalanadi. Uning tarkibiy elementlari axloqiy tarbiya, vatanparvarlik tarbiyasi, fuqarolik tarbiya kabilardan iborat bo‘lib, ular o‘zaro bog‘lik holda tarkib topadi.[2] Yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida talabalarining fuqarolik savodxonligini rivojlantirish madaniyati davlatning ob’yektiv holatiga, jamiyatda demokratiya va insonparvarlikning rivojlanish darajasiga, har bir fuqaro nuqtaiy nazarining, o‘z-o‘zini anglashining shakllanishiga bog‘lik

Yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida talabalarining fuqarolik savodxonligini rivojlantirish madaniyati talabalar tomonidan fuqarolik savodxonligini rivojlantirish va bu holatni ifoda etuvchi sifatlar mohiyatini chuqur anglay olinishi asosida rivojlanadi. Shu jihatdan olganda talabalar turli mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida fuqaro tomonidan amalga oshirilishi zarur bo‘lgan hatti-harakatlar, ularning ijtimoiy-g‘oyaviy xususiyatlari bilan tanishtirib borish maqsadga muvofikdir. Bu o‘rinda oliygohlarda tashkil etilayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar ham muhim o‘rin tutadi. Talabalarda fuqarolik savodxonligini rivojlantirishda ijtimoiy muhitning ta’sirini ham hisobga olish kutilgan natijani qo‘lga kiritishga imkon beradi. Zero, ijtimoiy muhitda ro‘y berayotgan holatlar, ularning yo‘nalishi, mazmuni va mohiyati, jamiyatda ustuvor o‘rin egallagan ma‘naviy-axloqiy qarashlar talabalarining fuqaro sifatida shakllanishlariga bevosita ta’sir etadi.

Muammo yuzasidan yaratilgan ijtimoiy-falsafiy, tarixiy, pedagogik va psixologik adabiyotlar bilan tanishish, talabalarining faoliyatini har tomonlama o‘rganish, talabalar bilan bevosita muloqatda bo‘lish, ularning faoliyatini pedagogik jihatdan tahlil qilish ularda fuqarolik savodxonligini rivojlantirish madaniyatini shakllantirish yo‘lida ayrim muammolar mavjudligini ko‘rsatdi. Jumladan:

- Oliygo‘h faoliyatida (ham ta’lim jarayonida, ham ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil etish chog‘ida) talabalarda fuqarolik savodxonligini rivojlantirish madaniyatini shakllantirish masalasi yetakchi o‘rin egallamagan;

- talabalarining ko‘pchiligi «fuqaro» hamda «fuqarolik» tushunchalari negizida qanday ma‘naviy-axloqiy sifatlar mavjud bo‘lishi to‘g‘risida yetarli tushunchalarga ega emaslar;

- fuqarolik savodxonligini oshirishga doir samarali shakllantirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar yetarli emas;

- ma‘naviy - ma‘rifiy tadbirlar rejasida talabalarining fuqarolik savodxonligiga axloqiy yondashuv, bu maqomga ega bo‘lishning asoslari, tarkibiy elementlari, fuqarolik savodxonligini rivojlantirish omillari to‘g‘risidagi bilimlar bilan tanishtiruvchi, shuningdek, ularda fuqarolik savodxonligini rivojlantirishga doir o‘zaro aloqador tadbirlar o‘z aksini topmagan;

- talabalarda fuqarolik savodxonligini rivojlantirishning yaxlit tizimi yaratilmagan va puxta asoslangan mexanizmi ishlab chikilmagan.

Fuqarolik jamiyatni barpo etishda talabalarining yuksak madaniyat, intellektual salohiyat va jismoniy kamolotga ega bo‘lishlari muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan olganda, jamiyatning faol a’zolaridan bo‘lgan oliygoh talabalarda fuqarolik savodxonligini rivojlantirish dolzarb muammo sanaladi. Talabalarda fuqarolik savodxonligini rivojlantirishning asoslangan tizimini ishlab chiqish, tadqiqot yo‘nalishini belgilab beradi.

Shu bilan birga, fuqarolik jamiyat – bu O‘zbekistonning haqiqiy adolatli, insoniy kelajagini



ta'minlaydigan inqirozli vaziyatlardan chiqishining haqiqiy vositasidir. Ilmiy adabiyotlarda «fuqarolik jamiyat» tushunchasining ta'rifiga nisbatan yagona nuqtai nazar mavjud emas.

ADABIYOTLAR:

1. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'at-Toshkent 2010 yil
2. M.Qirg'izbayev. Siyosatshunoslik.Darslik - Toshkent 2013 yil
3. Halima Kadirova. The Place Of Karakalpak Ethnoculture In The Integration Of Society. The American Journal of Social Science and Education Innovations. Volume III Issue 4, April, USA - 2021, pp. 676-688. OI <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume03Issue04-110>
4. Kadirova. Ya. Legal basis of formation of civic culture in students. Journal Of Information And Computational Science. Vol. 1 Issue 2, June – 2021, pp.35-48
5. <https://www.sciencepublish.org/index.php/ics>



HAVODAGI CHANG MIQDORI VA BOSHQA BIRIKMALARNI ANIQLASH USULLARI

Maxammadiyev Asadulla Sharofiddinovich

Termiz muhandislik texnologiya institutining
(Atrof-muhit muhofazasi) sanoat
korxonalari 1- kurs magistiranti
normurodov.oibek@mail.ru

Bo'riqilicheva Gulchehra Ziyodullo qizi

Termiz muhandislik-texnologiya institutining
(Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi)
sanoat korxonalarida 4 - kurs talabasi
normurodov.oibek@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada chang zarralari nafas yo'llarini zararlaydi va bronxit, emfizema, yurak-qon tomir kasalliklari (masalan, insult), ko'z infeksiyalari, terining zararlanishi va meningokokk meningit kabi kasalliklarni keltirib chiqarishi yoki chuqurlashtirishi mumkin. haqida ma'lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: chang zarrachalari o'lchamlar, pestitsidlar, ko'z infeksiyalari, optik elektr, fotoelektrik, tuproqqa ishlov berish.

Jahon meteorologiya tashkiloti (JMT) qum va chang bo'ronlarini odatda o'simlik qoplami cheklangan qurg'oqchil va yarim qurg'oqchil hududlarda sodir bo'ladigan xavfli atmosfera hodisasi sifatida ta'riflaydi. Kuchli shamol taqir va quruq tuproqdan ko'p miqdordagi mineral changlarni (qum va boshqa tuproqning ustki qatlami materiallari) ko'tarib, ularni yuzlab, minglab kilometrlargacha olib boradi.

Qishloq va suv xo'jaligida bajariladigan juda ko'p texnologik jarayonlarni va ishlarni bajarishda inson organizmiga salbiy ta'sir qiluvchi chang hosil bo'ladi. Masalan, chang yer-tuproq ishlarini bajarishda, tuproqqa ishlov berishda, yer tekislashda, kanallar va ariqlarni aktiv ishchi organga ega bo'lgan meliorativ mashinalar bilan qazishda, qurilish ishlarida, yetishtirilgan hosilni yig'ishtirib olishda, transport ishlarini bajarishda va boshqa ishlarda amalga oshirishda juda jadal ravishda ajralib chiqadi. Chang gazsimon muhitda muallaq (aerazol) yoki cho'kma (aerogel) holatda bo'lgan eng kichik qattiq zarrachalardan tashkil topgan dispers tizim deb ataladi.


Chang atmosfera va sanoatga bo'linadi. Sanoat changlarining paydo bo'lish manbalari materiallarni maydalash (maydalash, kesish) va sirtini qayta ishlash (silliqlash, silliqdash, cho'tkalash va boshqalar), maydalangan materiallarni tashish, tashish va qadoqlash bilan bog'liq texnologik jarayonlar va ishlab chiqarish uskunalari hisoblanadi. Atmosfera changiga sanoat (atmosfera havosining sanoat chiqindilari bilan ifloslanishi) va tog' jinslarining parchalanishi, vulqon otilishi, yong'inlar, ekin maydonlarining shamol eroziyasi, kosmik va biologik kelib chiqadigan changlar (o'simliklar gulchaglari, sporalar, mikroorganizmlar) natijasida paydo bo'ladigan tabiiy chang kiradi. Atmosferaga chang zarralarini chiqaradigan sanoat korxonalariga qora metallurgiya, issiqlik energetikasi, kimyo, neftni qayta ishlash, qurilish materiallari sanoati va boshqalar kiradi.

Chang deb har qanday modda va jismlarning havoda muallaq holda uchib yurgan mayda zarrachalariga aytiladi. Havoda uchib yurgan chang aerazol deb, yuzaga cho'kkani esa aerogel deb ham aytiladi. Kelib chiqishiga qarab ular organik (o'simlik va boshqa tirik organizmlardan ajralib chiqadigan) va noorganik (turli qattiq moddalar, minerallar va metallardan ajralib chiqadigan) hamda yuqoridagi ikkisinin qo'shilgani - aralash changlarga bo'linadi. O'lchamlari bo'yicha changlar quyidagicha sinflanadi: ko'zga ko'rinadigan changlar – o'lchamlari 10 mkm katta; mikroskopik changlar – o'lchamlari 0,25 10 mkm; ultramikroskopik changlar – o'lchamlari 0,25 mkm kichik. Inson organizmiga chang zararli ta'sirining darajasi nafas olishda yutilayotgan chang miqdoriga, chang zarrachalari o'lchamlariga, zarrachalar shakliga, changning kimyoviy tarkibiga va eruvchanligiga bog'liq. Nafas olishda yutilayotgan chang miqdori esa ish o'rni havosining changlanganlik darajasiga bog'liq. Changlangan havo ishlash va undan nafas olish natijasida odam organizmining nafas olish organlari, ovqat hazm qilish organlari, ko'zi, terisi va boshqa organlari turli darajada zararlanishi mumkin. Shularning ichida eng xavfilari o'pka silikozi, ko'zga qorachig'ining xiral-



ashishi, ko'zda oq parda hosil bo'lishi, teri yallig'lanishi, qichima va boshqa teri kasalliklaridir. O'lchamlari 5 mkm dan kichik bo'lgan chang zarrachalari o'ta xavfli hisoblanadi. Ular yuqori nafas olish organlarida ushlanib qolmasdan o'pkaning ichgi qismiga (alveolga) chuqur kirib borib silikoz (kvarsli changni yutganda), antrokoz (ko'mir changini yutganda), asbestoz (asbest changini yutganda) va kimyoviy tarkibiga bog'liq holatda boshqa turdagi kasalliklarni keltirib chiqaradi. Chang zaharli va zaharsiz bo'lishi mumkin. Bu uning kimyoviy tarkibiga bog'liq. Zaharli changlar kukunsimon pestitsidlar, mineral o'g'itlar va boshqa kimyoviy moddalar bilan ishlaganda hosil bo'ladi. Bundan tashqari zaharsiz chang tarkibida turli mikroorganizmlar va mikroblar bo'lishi mumkin. Bu holat uning zararli ta'siri oqibatini og'irlashtiradi.

Chang zarralarining havoda qolish muddati ularning hajmi va ob-havo sharoitlariga bog'liq: hajman yirik zarrachalar tezroq cho'kadi, kichikroq zarrachalar esa yuqorida uchib yurishga ko'proq moyil bo'ladi. Shuningdek, chang atmosferadan yog'ingarchilik bilan yuviladi. O'rtacha hisobda, ular havoda bir necha soatdan (diametri 10 mikrometrdan ortiq bo'lgan zarralar) 10 kundan ortiq (diametri 1 mikrometrdan kichik bo'lgan zarralar) muddatgacha saqlanib qoladi.



1- rasm. «O'zgidromet» ma'lumotlariga ko'ra, bunday hodisa mamlakatda 150 yil ichida, ya'ni butun meteorologik kuzatuvlar davomida birinchi marta kuzatilgan. Bir qator hududlarda atmosfera xavosining ko'rinish darajasi 500–1000 metrgacha, Toshkent shahrida esa 200 metrgacha yomonlashgan.

Chang bo'ronlari qit'alararo tarqalishi tufayli ham ijobiy, ham salbiy global oqibatlarga olib keladi. Masalan, chang o'rmonlar va okean yuzasi suvlarini oziq moddalar bilan ta'minlash orqali Yerning biogeokimyoviy sikllarida muhim rol o'ynaydi. Shu bilan bir qatorda chang issiqxona effekti bilan bir xil ta'sirga ega: u Yer atmosferasiga kirib kelayotgan quyosh radiatsiyasini o'ziga singdiradi va tarqatadi, yer yuzasiga yetib keladigan miqdorni kamaytiradi va Yer sirtida aks etirilgan uzun to'liq nurlanishni o'ziga singdiradi. Sayyoradagi radiatsiya balansidagi o'zgarishlar qurg'oqchilikning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Havoning aralash zarrachalar, shu jumladan, chang bilan ifloslanishi ko'p sonli odamlarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki bunday aralashmalarning ta'sir kuchi xavfli hisoblanmaydigan xavfsizlik chegarasi yo'q. Chang zarralari nafas yo'llarini zararlaydi va bronxit, emfizema, yurak-qon tomir kasalliklari (masalan, insult), ko'z infeksiyalari, terining zararlanishi va meningit kabi kasalliklarni keltirib chiqarishi yoki chuqurlashtirishi mumkin. Bundan tashqari, qum va chang bo'ronlari ko'rishning pasayishi va yo'l-transport hodisalari bilan bog'liq o'lim va jarohatlanishlarga olib kelishi mumkin.

Shuning uchun chang zarralari hajmi sog'liq uchun potensial xavfni aniqlashning asosiy omilidir, jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, diametri 10 mikrondan kichik bo'lgan zarralar (PM₁₀) o'pkaga chuqur kirib, u yerda joylashib olishi mumkin. Diametri 2,5 mikrondan kichik bo'lgan zarralar (PM_{2,5}) salomatlikka yanada yomon ta'sir qiladi, ular o'pkada aerogematik to'siqni kesib o'tib, qon aylanish tizimiga tushishi mumkin. Zarrachalarning



muntazam ta'siri yurak-qon tomir va nafas olish tizimi kasalliklari, shuningdek, o'pka saratoni rivojlanish xavfini oshiradi.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldagi “2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi” 4947-sonli farmoni. “Gazeta.uz”.
2. Mirziyoyev Sh.M. “2018 - 2019 yillarda irrigatsiyani rivojlantirish va sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash” to'g'risidagi Prezident qarori., Toshkent, 27 noyabr 2017y., № PQ-3405.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, Davlat ilmiy nashriyoti , 2001-2006 y, I-IV tomlar. (https://www.krugosvet.ru/eng/strany_mira/UZBEKISTAN.html).



МЕКТЕПКЕ SHEKEMGI BALALAR SHÓLKEMI SISTEMASÍ JEDEL RAWAJLANIW JOLINDA

Aytimova Miyrigúl Komekbaevna .,
Qanlikól rayoni 8-sanli MSHBSH tárbiyashısı
Tel: 995400278

Annotaciya: Bul tezistiń mánis hám mazmunı mektepke shekemgi balalar shólkeminde interaktiv metodlardan paydalanıw zárurlıgı haqqında bolıp, bul tezis metodlardıń balalardı aqlıy jaqtan rawajlanıwınıń tamaynlewın keń túrde jarıtıp beredi.

Tayanış sózler: eń shetki aymaq mektepke shekemgi shólkemi, tarbiyashılar, interaktiv metodlar, tarawdı rawajlandırıw jolındağı Prezident parmanları.

Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2017-jıl 30 sentyabrdegi “Mektepke shekemgi shólkem sisteması basqarıwın túpten jetilistiriw is-ilajları” haqqındağı PP-5198 san parmanında keltirip ótilgende, mektepke shekemgi tálim tarawı úzliksiz tálim sistemasınıń birlemshi buwını esaplanıp, ol hár tárepleme saw-salamat barkamal bala shaxsın tárbiyalaw hám mektepke tayarlawda úlken áhmiyetke iye. Házirgi tez pát penen rawajlanıp atırǵan dáwirde mektepke shekemgi shólkemlerdiń wazıypaları artıp barmaqta hámde balalardı tárbiyalawda pedagoglardan joqarı iskerlikti talap etedi. Búgingi kúnde Qaraqalpaqstan Respublikası Qanlıkól rayonımızda jıl sayın jańadan jańa mektepke shekemgi shólkemler boyın tiklemekte hám qaytadan rekonstrukciyalanbaqta. Sol qatarı rayonniń shetki aymağı Arzimbetqum APJda jaylasqan 8-MSHBSH de qaytadan rekonstrukciyalanıp paydalanıwǵa tapsırıldı. Rayonımız boyınsha hár tárepleme eń aldı, úlgi bola alatuǵın mektepke shekemgi shólkemlerdiń biri bolıp kelmekte. Bul shólkemde balalar shet tillerine úyretilip, zamanagóy tárbiya beriw metodlarında bilim alıp, mektep ornına tayarlanıp kelinbekte. Mektepke shekemgi shólkemimiz tárbiyashı pedagogları da rayonlıq tańlawlarda belsene qatnasıp, óziniń tájiriybelerin arttırıp kelmekte. Balalarǵa tálim beriwde interaktiv metodlardan paydalanılǵan halda ótiwge kóbirek itibar qaratılmaqta.

Dunya psixologları atap ótkende: házirgi zaman balaları dunyada juz berip atırǵan waqıya hám qubılıslardı úlkenlerden de tez sezedi. Sol sebepli búgingi kún tárbiyashıları aldında bir qatar zárur wazıypalar turıptı. Solardan biri tálim processinde interaktiv usıllardan paydalanıw. Tárbiyashılardıń interaktiv usıllardan aqlıǵa muwapıq, maqsetke hám sharayatqa baylanıslı didaktikalıq usıllarǵa tiykarlangan halatta paydalanıwǵa úyretiw búgingi kúnde zamanagóy pedagogıkanıń áhmiyetli máselelerinen biri esaplanadı.

Mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemi tarbiyashıları ózleriniń iskerligine zamanagóy usıllardı mektepke shekemgi tálimge tiyisli bolǵan ilimiy maqalalar, jergilikli úlgi bola alatuǵın aldı tájiriybelerden úyreniw arqalı keń jetilisip kelinbekte. Mektepke shekemgi tálim beriw shólkemlerinde interaktiv usıllardan “Aqlıy hújim”, “Galereyaǵa sayaxat” sıyaqlılardan paydalanıw zárur. Bul usıllar balanıń dunyaǵa názerin keńeytip, átirap-ortalıǵın tanıwda áhmiyetli bolıp esaplanadı.

Mektepke shekemgi bilim beriw shólkemlerinde tárbiyashılar balalarǵa tálim beriwde kóbirek interaktiv metodlardan qollanılsa, hám balanıń aqlıy tárepten tez rawajlanıwına járdem beredi, hám keleshegimiz bolǵan jas awladtıń qaliplesiwinde natiyjelerge erisilgen bolar edi.

Juwmaq retinde atap ótiw tiyisli, Prezidentimizdiń bul tarawǵa kúshli itibar qaratıp atırǵanlıǵı sonı kórsetedi; tálim mektepke shekemgi shólkemnen baslanadı, hám ol jerden baslap bala dunyanı tanıdı hám kamalǵa keledi.

Paydalanılǵan ádebiyat:

1. Yuldoshev J. Usmanov.S “Zamonaviy pedagogik texnologiyalarnı a’malıyotga joriy qilish”-T., “Fan va texnologiya”-2008



ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К РАБОТЕ В ЗАГОРОДНЫХ ДЕТСКИХ ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫХ ЛАГЕРЯХ

Абдумунинова Озода Анваровна

преподаватель кафедры “Дошкольное образование”

Гулистанского государственного университета

Телефон: +998998723588

ozoda@inbox.ru

АННОТАЦИЯ: В статье рассматриваются педагогические условия, обеспечивающие эффективность формирования профессиональной компетентности будущих учителей начальных классов к работе в загородных детских оздоровительных лагерях по организации досуга и развитию творческих способностей школьников.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, учитель начальных классов, загородные детские оздоровительные лагеря, вожатый, педагогические условия, досуг, творческие способности.

Современное развивающееся общество предъявляет повышенные требования к личности учителя, его профессиональной компетентности, нравственному уровню, культуре и духовным потребностям. В этой ответственной и сложной работе особая роль принадлежит учителю начальных классов, поскольку именно он совместно с родителями вводит ребенка в мир знаний и духовно-нравственных ценностей. Для детей младшего школьного возраста личность учителя — основа его разностороннего развития, будущих профессиональных и жизненных достижений, что во многом обусловлено профессиональной компетентностью учителя начальных классов, интегративно сочетающей в себе профессиональные знания, умения и качества личности. Большинство учителей начальных классов свою профессиональную деятельность продолжают и в летнее каникулярное время в качестве воспитателей, вожатых пришкольных и загородных оздоровительных лагерей [1]. Вместе с тем профессиональная компетентность учителя начальных классов к работе в летних оздоровительных лагерях не всегда отвечает требованиям. Это представляется возможным только в процессе накопления опыта переживания и процессе изучения спецкурса «Работа в детском оздоровительном лагере» и прохождения педагогической практики в детских оздоровительных лагерях. В целях изучения отношения учителей начальных классов и студентов третьего курса отделения «Педагогика и методика начального образования» и самооценки своей готовности к работе в летних детских оздоровительных лагерях проведённое анкетирование показало, что у студентов и учителей отношение к работе в пришкольных и загородных детских оздоровительных лагерях положительное. Под профессиональной компетентностью нами понимается осведомленность учителя о знаниях, умениях и их нормативных признаках, необходимых для осуществления этого труда, овладение психологическими, личностными качествами, желательными для его выполнения, реальная профессиональная деятельность в соответствии с эталонами и нормами [4]. Педагогическая деятельность учителя начальных классов как сложная динамическая система имеет свою специфическую структуру, в состав которой входят многочисленные компоненты. Ученые к этому вопросу подходят поразному. Я.С. Турбовский предлагает выявление так называемых «болевых» точек в работе учителя. В основе его подхода лежит идея практического обучения на лучшем опыте тех педагогов, которые заявили о своих потребностях и затруднениях. Учитель начальных классов как специалист универсальный, имеющий интеллектуальную, музыкальную, художественно-эстетическую, технологическую, физкультурную, методическую подготовленность, является уникальным работником в организации детского досуга и развития творческих способностей по интересам детей в условиях детских оздоровительных лагерей [2]. Профессиональная компетентность педагога-вожатого детского оздоровительного лагеря нами понимается как интегральная профессионально личностная характеристика, отражающая готовность его выполнять социально педагогические функции, направленные на раскрытие внутренних возможностей личности каждого ребенка; эффективно и адекватно решать проблемные си-



туации — задачи, принимать решения и отвечать за их последствия; способность использовать ресурсы социокультурной среды и личностные ресурсы каждого ребенка с целью достижения позитивных результатов в его развитии и воспитании. В целях обеспечения формирования профессиональной компетентности будущего учителя начальных классов к работе в загородных детских оздоровительных лагерях, с учетом выявленных затруднений и необходимых качеств личности, нами разработан и внедрен спецкурс «Работа в детском оздоровительном лагере». Спецкурс «Работа в детском оздоровительном лагере» рассчитан на 60 часов, из них аудиторных 34 часа (лекции — 10 часов, практические занятия — 24 часа), 26 часов отводится на самостоятельную работу студентов и имеет следующую содержательную структуру: • нормативно-правовые основы деятельности педагога-вожатого; • психолого-педагогические основы деятельности педагога-вожатого; • методические основы работы педагога-вожатого. В процессе изучения спецкурса особое внимание отводилось подготовке студентов-вожатых к самостоятельной организации детьми своего досуга, так как ребенок, умеющий проводить свой досуг с пользой, интересом, развивает собственную личность. Досуг нами понимается как часть свободного времени, используемая для товарищеского общения, усвоения ценностей культуры, любительского творчества, прогулок, развлечений, обеспечивающая отдых и дальнейшее развитие личности [6]. Результаты контрольного анкетирования отражены в таблице ранжирования затруднений студентов отделения «Педагогика и методика начального образования» по итогам летней педагогической практики: методическая, проектировочно-целевая, исследовательская деятельность, управленческая, этнопедагогическая, экологическая, коммуникативно-стимулирующая, содержательная, диагностическая деятельность, организационная, контрольно-оценочная, воспитательная работа в загородных детских оздоровительных лагерях. Студенты, изучившие спецкурс и проходившие летнюю педагогическую практику в загородных летних оздоровительных лагерях, показали свою профессиональную подготовленность к воспитательной работе в условиях лагеря.

Список литературы:

1. Ковалев В.П. Внеурочная деятельность по развитию творческих способностей учащихся начальных классов сельской школы / В.П. Ковалев, С.Н. Шмелев // Образование и саморазвитие. — 2011. — № 6. — С. 210—216.
2. Ковалев В.П. Готовность учителя начальных классов к развитию творческих способностей младших школьников в условиях села / В.П. Ковалев, С.Н. Шмелев // European Social Science Journal. — 2011. — № 4. — С. 130—135.
3. Ковалев В.П. Социально-педагогические условия послевузовского становления учителя начальных классов сельской малокомплектной школы // Гуманитарные науки и образование. — 2013. — № 3 (15). — С. 19—23.
4. Ковалев В.П. Формирование профессиональной готовности учителя начальных классов к работе в малокомплектной сельской национальной школе: дис. ... д-ра. пед. наук: 13.00.01. — М., 1998. — 330 с.
5. Панченко С.И. День за днем в жизни вожатого. В помощь всем, кто работает или будет работать с подростками в детском лагере. — СПб.: Издательский дом «Петрополис», 2011. — 360 с.
6. Я расту. Сборник программных и методических материалов. — Новосибирск: Изд-во ООО «Немо Пресс», 2011. — 55 с



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TA‘LIMIY DIDAKTIK O‘YINLAR VA USULLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Almatova Aliya Jalilovna

Navoiy viloyati Zarafshon shahar
4-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Boshlang‘ich sinflarda ta‘limiy didaktik o‘yinlar va usullardan foydalanishning ahamiyati ushbu maqolada o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: Interfaol, bilimlar oroliga sayohat, harflar, svetafor, mevalar...

Barchamizga ma‘lumki, interfaol usullardan foydalanish, darsda ta‘limiy didaktik o‘yinlarni qo‘llash darsni jonli tashkil etishni ta‘minlaydi. Shu bilan bir qatorda, avvalgi bilimlar va yangi axborotlar o‘rtasida bog‘lanish hosil qilib, berilgan materialni to‘la tushunishga zamin yaratadi.

Interfaol usuldagi o‘quv jarayonida yakka tartibda, juft bo‘lib ishlash, guruhlarda ishlash, izlanishga asoslangan loyihalar, rolli o‘yinlar, hujjatlar bilan ishlash, ijodiy ishlash kabi metodlardan foydalanish mumkin. Bu, ayniqsa, muayyan iqtidor sohibi bo‘lgan o‘quvchilarning qirralarini yaxshiroq ochishga uning ijodkorligini rivojlantirishga imkon beradi.


Boshlang‘ich sinf darslarida tashkil etilgan usul va o‘yinlar o‘quvchilarning har tomonlama fikrlashga undaydi. Ularning ta‘lim jarayoniga ham foydasi katta. Ta‘lim sifatini va mazmunini oshirishga, tayanch va fanga oid kompetentsiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Sizlarga ana shunday usul o‘yinlarni taqdim etishni joiz topdim.

“Bilimlar olamiga sayohat” usuli.

Bu usul dars davomida o‘quvchilarni darsga qiziqtirish uchun qo‘llanadi. Bunda darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilar bilim darajasi, darsdagi ishtirokiga ko‘ra poyezd vagonchalariga rasmlari ilingan holda joylashtiriladi.



“Harflar adashib qoldi” o‘yini. Dorskaga bosma harflardan iborat so‘z yoziladi. Undagi biror harfning o‘rni almashtirib qo‘yilgan bo‘ladi. Yozuv yoniga shu narsaning rasmini ilib qo‘yish mumkin. O‘quvchiga narsaning nomini bir necha marta talaffuz qilish, bo‘g‘inlab aytish tavsiya qilinadi. Shundan so‘ng doskadagi so‘zning adashib qolgan harflari o‘z o‘rniga qo‘yiladi va so‘z yozma harflarda yozdiriladi.



“Svetafor” o‘yini. Bunda o‘quvchilarga ranglar tarqatiladi. Ular mevalarni ranglarga mos joylashtiradi.



“Mevalar tilga kirganda” usuli.

Bunda mevalar va sabzavotlarning qanday vitaminlarga boy ekanligi, foydasi rasmlar asosida tushuntiriladi.



Demak ta'lim-tarbiyaning sifati, samaradorligi birinchi navbatda sifatli ta'limga bog'liq. Sifatli ta'lim esa xalqona tilda aytganda yaxshi muallimga, o'qituvchi va tarbiyachiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gaffarova T.”Boshlang’ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”-T.: “Tafakkur” 2011-yil.
2. Internet saytlari.



TEKNOLOGIYA PÁNINIŇ ZÁRURLIGI HÁM BASQA PÁNLER MENEN BAYLANÍSLILÍGÍ

Ametova Zamira Qazaqbaevna.,

Qanlikól rayoni 20-sanlı mektep
texnologiya páni muǵallimi, 994546390

Annotaciya: Tezistin tiykargi maqseti texnologiya panin en jaydiriw bolip, bul pannin ahmiyetliligini aniq sawlelendiriwde basqa da panler menen baylanisliligini korsetip otir bolip, bul tezis texnologiya paninin zarurligini kenne korsetip beriwde natijeli bolip esaplanadi.

Tayanish sózler: texnologiya, súwret, matematikaǵa baylanısı, detallar, oqıtıwshı, oqıwshılarda kónlikpe payda etiw.

Búgingi rawajlanıp baratırǵan texnologiyalar ásirinde texnologiya pániniń áhmiyeti júda úlken. Mektep oqıwshılarınıń bul pánge bolǵan qızıǵıwshılıǵın arttırıw, olarda pánge degen kónlikpe payda etiw oǵada zárurli esaplanadı. Texnologiya pániniń áhmiyetliligini ańlaw ushın onıń basqa pánler menen tutaslıǵın, baylanıslıǵın tereń úyreniw kerek.

Bul pánge tıǵız baylanısqa pánler qatarına sızıw pánin kiritsek boladı. Texnologiya páni sabaqlıqlarında basqa pánlerge tiyisli túsinik hám maǵlıwmatlardan paydalanıw boyınsha, ayırım kórsetpeler hám hár túrli usıllı usınıslar berilgen. Texnologiya sabaǵında sızımlardıń tutqan ornı júda úlken. Sebebi belgili bir detal yáki buyımdı jaratıwdan aldın onıń súwreti yáki eskizi sızımları oqıwshılardıǵa kórsetiledi. Oqıwshılar sol súwretlerdi dápterlerine kóshirip alıp sızadı. Oqıwshılar áne sol súwretler arqalı sol detal yáki buyım haqqında úlken túsinikke iye boladı. Kórinip turǵanıday, bul jerde oqıwshılarda hár túrli súwretler, sızımlar sızıw uqıbı qalıplese baslaydı. Biraq sızıw biz oylaǵanday ańsatlıq penen ámelge aspaydı. Sol sebepli de oqıtıwshı texnologiya sabaǵında oqıwshılardıǵa buyımlardıń texnikalıq súwretlerin, perspektivaları haqqında, súwretlerdi sızıwda is izbe-izligi jánede, reńlerdi parqlaw, olardı tuwrı qatnasta jaylastırıw hám solar haqqında túsiniklerdi túsindiriwine tuwrı keledi.

Texnologiya pánine jine bir baylanıslı pán bul matematika. Texnologiya páni sabaǵında oqıwshılardıǵa tuwrı múyesh, perpendikulyar hám parallel sızıqlar, tuwrı múyeshli hám tuwrı tórtmúyeshli sıyaqlı formalarlı payda etiwge tiyisli túsinikler zárur boladı. Bulardan tısqari, oqıwshılar texnologiya páni sabaqlarında simmetriya oǵı, formalarlı simmetriyalıq jaylastırılıwın, dońgelek, onı bóleklerge bóliwde, matematikadan keń túrde qollanıladı talap etedi. Texnologiya pániniń oqıwshılar turmısında tutqan ornı úlken bolıp, aynıqsa olardı kásipke tayarlawda baslı qádem wazıypasın atqaradı.

Bunıń mısalı retinde sonı ayıp ótiw kerek, mektep tálim beriw sisteması texnologiya sabaǵında oqıwshılardıǵa oqıtıwshı ózi qoldan qanday da bir buyımdı islep kórsetip, keyinshelik oqıwshı menen birgelikte jumıs alıp barıladı hámde bul pánniń kerekligini, hár bir oqıwshı túsinip baradı. Jánde qosımsha sıpatında keltirip ótiw tiyisli bul pán tek ǵana ul balalar arasında emes al qızlar ushın da kerekli óner úyrenip, turmısta paydalanıwda áhmiyetli esaplanadı.

Joqarıdaǵılardan kelip shıqqan halda tómendegilerdi keltirip ótiw múmkin; texnologiya pániniń oqıwshılardıǵa áhmiyetliligini ańlatıw, arttırıw ushın bul pándi en jaydırıw, pánniń basqa pánlerge tıǵız baylanısqaqlıǵın úyretiw zárurli esaplanadı.

Paydalanılǵan ádebiyat:

1. O.A.Qoysinov, U.O.Toxirov, D.N.Mamatov, D.F.Aripova “Texnologiya fanidan” metodik qollanma.T-2017.



AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI TADQIQOT JARAYONIDA QO'LLASH

Babajanova Nodira Zaripboyevna

Urganch tuman xalq ta'limi bo'limi

Aniq fanlar metodisti

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot texnologiyalarini tadqiqot jarayonida qo'llash o'qitish jarayonida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim muhim ahamiyatga ega ekanligi tog'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Macromedia Flash texnologiyasi, yangi, qiziqish, samarali, o'qitish, jarayon

Hozirgi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari insonlarning intellektual faoliyatiga kirib kelib, ilmiy texnik taraqqiyotning o'sishiga asosiy sababchilardan biri bo'lib kelmoqda. Magnitoelastiklik hozirgi davrga kelib juda muhim amaliy samara bermoqda va zamonaviy texnikaning turli sohalariga tadqiqot qilinmoqda. Jumladan: real konstruktiv elementlarni hisoblashlarda, zamonaviy o'lgach tizimlarini yaratishda, shuningdek, elektron avtomatik stansiyalarning elektron boshqaruv mashinalarida va mikroelektronika, radioelektronika, elektrotexnikaning har xil sohalarida uchraydigan elektromagnit maydoni ta'siri ostida ishlaydigan yupqa plastinka va qobiqlar shaklidagi konstruktiv elementlar tebranishi, mustahkamligi kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatlarini tadqiq qilishda va hokazo. EHM ning qo'llanish sohalaridan biri tabiatdagi turli jarayonlarni va obyektlarni matematik modellashdir. Jarayonlarni kompyuter yordamida modellash va tadqiq etish usuli turli fan sohalarida keng qo'llanilib kelmoqda. Magnit maydonida elektr o'tkazuvchi jism deformatsiyalanish jarayonini matematik modellash va jismda paydo bo'ladigan elektro-magnit effektlarni tadqiq qilish amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. O'zaro ta'sir muammolari magnitoelastiklik muammolariga, xususan magnit maydonida elastik deformatsiyalanuvchi, elektr o'tkazuvchi jism harakati masalalariga asos bo'lib xizmat qiladi. Bog'liqlik maydonlar mexanikasida tutash muhit harakatini elektromagnit effektlarni hisobga olgan holda o'rganish juda muhim o'rinni egallaydi. Kuchli impulsli magnit maydoni mavjud bo'lganida va tutash muhit nuqtalarinig katta ko'chishlarida ponderomotor ozaro tasir juda kuchlidir. Bunday sharoitda ishlaydigan juda ko'p bir qator texnik qurilmalar mavjuddir, ularning konstruktiv elementlari bo'lib tok o'tkazuvchi egiluvchan plastinka va qobiqlar xizmat qiladi. Shu sababli o'zgaruvchan elektromagnit maydoni ta'siri ostida bo'lgan egiluvchan tok tashuvchi plastinka va qobiqlarning kuchlanganlik –deformatsiyalanganlik holatini tekshirish juda dolzarb masaladir. Bu o'z navbatida toktashuvchi plastinka va qobiqlarning kuchlanganlik–deformatsiyalanganlik holatini tekshirishda elektrodinamik kuchlarning, xususan, Lorents kuchining ta'sirini hisobga olishni talab etadi va bunday masalalar nazariy hamda amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Bu masalalarni chuqur o'rganish talab etiladi. Oxirgi yillarda yangi elektromagnit xossalari materiallar va nanomateriallar yaratildi va bu materiallar o'zgaruvchan elektromagnit maydoni ta'siri ostida ishlaydigan mikroelektronika, radioelektronika, elektrotexnika va zamonaviy yangi texnikaning har xil sohalarida qo'llanilmoqda. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi masalalar yechildi: multimediyali ilovalarni ishlab chiqish texnologiyalarini tahlil qilish; multimedia vositalarini tasniflash; grafik ko'rinishdagi multimedia ilovalarini tayyorlash; magnitoelastiklik masalalarining matematik modelini qurish;

magnitoelastiklik tenglamalarini Eyler va Lagranj ko'rinishlarida keltirib chiqarish; elektromagnitdinamika masalalarini vizuallashtirish jarayonini baholashda «Macromedia Flash» texnologiyasi qo'llash; elektromagnit maydonida zaryadlangan zarrachaning harakati jarayonini vizuallashtirish; elektromagnit induksiya jarayonini vizuallashtirish; tadqiq etilgan ob'yektlarni vizuallashtirish jarayonini baholashda «MATLAB» tizimining modullarini qo'llash; ishlab chiqilgan algoritmlar asosida amaliy masalalarni yechish uchun dasturiy vositani yaratish; elektr o'tkazuvchi jismning deformatsiyalanish jarayonini tadqiq etish uchun sonli tajribalar o'tkazish va olingan sonli natijalarni, shuningdek jismda paydo bo'ladigan elektromagnit effektlarni tadqiq qilish tahlil qilish. Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, ya'ni elektromagnitdinamika masalalarini «Macromedia Flash» texnologiyasi, hamda tadqiq etilgan ob'yektlarni vizuallashtirish jarayonini baholashda «MATLAB» tizimining modullarini qo'llash uchun yaratilgan amaliy dasturiy ta'minotlardan fizika fanining «Elektrodinamika» bo'limi mavzularini o'qitish jarayonida foydalanish mumkin.



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING SAVODINI CHIQARISHDA INTERFAOL USULLAR VA O‘YINLARDAN FOYDALANISH BO‘YICHA TAVSIYALAR

Gulmanova Zauresh Seydaliyevna
Navoiy viloyati Zarafshon shahar
4-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodini chiqarishda interfaol usullardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ushbu maqolada o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: ko‘zboyloqchi, mevalar, harflar, tez aytish, sehrli qalamchalar...

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, ta’lim sohasida ham katta islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, „Ta’lim to‘g‘risida“gi Qonun, „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ qabul qilindi, „Davlat tili to‘g‘risida“gi Qonun qaytadan ko‘rib chiqildi, Davlat ta’lim standartlari ishlab chiqildi, dasturlar va darsliklar yangilandi. Ta’lim maskanlarida o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishda yangicha yondashuv, innovatsion texnologiyalar asosida darslarni tashkil etish eng muhim vazifalardan biriga aylandi. Ayniqsa, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, og‘zaki nutqilarini rivojlantirishga e’tibor berish eng dolzarb vazifaga aylandi.

O‘quvchilarning hayotiy faoliyatini, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining asosiy faoliyatini **qiziqarli usullar va o‘yinlar** tashkil etadi. Ular o‘quvchilar shaxsini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Bunda o‘quvchi har tomonlama shakllanadi. Ta’lim jarayonining esa natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Usul va o‘yinlar o‘quvchilarda diqqatni jamlash, xotirani mustahkamlash, to‘laqonli fikrlash, irodasini mustahkamlash kabi ta’limiy sifatlarni shakllantirsa, bir- biriga mehribon bo‘lish, jamoani qadrlash, sadoqat, intiluvchanlik, bir- birining fikrini qadrlash kabi tarbiyaviy jihatlariga ham ega. Bundan tashqari, bu jarayonida o‘quvchilar o‘rtasida jamoani shakllantirish, hamkorlik, do‘stlikni qaror toptirish, muloqot qilishga, hamfikir bo‘lish muhitini ham yaratadi. Bu esa o‘quvchilarning yanada hamjihatlikka olib keladi.

Quyida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodini chiqarishda interfaol usullardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalarni taqdim etishni joiz topdim:

“Bosh harfi bilan o‘qing” usuli. Bu usul o‘quvchilarni darsga jalb etishda, diqqatini jamlashda va yangi mavzuni mustaqil topishda qo‘llaniladi.



M e v a + lar

“Ko‘zboyloqchi” o‘yini.

Bu o‘yinda o‘quvchilarning ko‘zlari yopilib, mevalar qo‘llariga beriladi. Ular shakliga qarab nomini topishi kerak bo‘ladi.







Tez aytish o'yinlari- to'g'ri nafas olishga tovushlarni ravon talaffuz qilishga o'rgatadi. O'quvchilar o'qish tezligining oshishida ham tez aytishlarning ahamiyati katta. Xalq og'zaki ijodi janrlaridan maqollar, ertaklar o'quvchilarni odob-axloqqa o'rgatsa, topishmoqlar esa ularning zihnini o'tkirlaydi, aqlini charxlaydi va albatta nutqini ham tivojlantirib, darsning ta'lim-tarbiyaviy jihatdan samarali bo'lishiga katta hissa qo'shadi.



O'ylang, qaysi harflar tushib qolgan?

A	R	R	A
I	K	K	I
	K	K	I

A	V	V	A	L
T	I			A
H	A	M	M	a



“Sehrli qalamchalar” usuli. Bunda o'quvchilarning yozma savodxonligi sinalladi. Bu usul orqali o'quvchilarga husnixat qoidalari asosida yozish o'rgatiladi. Ularga o'zlarining qo'llaridagi ruchka sehrli ekanligi anglatiladi.



Xullas, o'z fikrini erkin bayon qila oladigan, bilimli, zakovatli va barkamol shaxsni tarbiyalash bizning eng oliy maqsadimizdir. Dars o'tishda bir xillikdan qochib, yangilikka intilsak, albatta, maqsadimizga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.X.Teshaboyev. “Interfaol usullari”. T.2009-yil
2. Gaffarova T. “Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”-T.: “Tafakkur” 2011-y
- 3.Internet saytlari.



OILADAGI SOG‘LOM RUHIY MUHIT VA UNING FARZANDLAR TARBIYASIGA TA’SIRI

Haydarova Zarnigor Doniyorovna
Navoiy viloyati Zarafshon shahridagi
3-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqola hozirgi kundagi barcha bo‘lajak ota-onalarga kerakli bilim, tavsiyalar berish, sog‘lom turmush tarzini yaratish va oila muqaddas dargoh ekanligi haqida ma’lumot beradi.

Kalit so‘zlar: Sog‘lom turmush tarzi, sog‘lom avlod, oila muqaddas, boy madaniy ananalar, halollik, rostgo‘ylik, jamiyat taraqqiyoti, ilm ma’rifat, sog‘lom avlod tarbiyasi, ma’naviy kamolot, hayot chorrahilari, sog‘liqni saqlash.

Sog‘lom avlod tarbiyasi hozirgi kundagi eng ustuvor va muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki sog‘lom avlodni tarbiyalash – sog‘lom turmush tarzini yaratishni va shakllantirishning muhim bo‘lagi hisoblanadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda sog‘lom turmush tarzini yaratish borasida juda ahamiyatga molik bo‘lgan ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan qilinayotgan ko‘pgina xayrli ishlar, yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar, sog‘liqni saqlash borasida qilinayotgan ko‘zga ko‘rinadigan ishlarning ko‘pchiligi shular jumlasidandir.

Shu bilan birga sog‘lom turmush tarzini yaratishda boy madaniy an’analimizning roli ham beqiyosdir. Jumladan biz uchun muqaddas bo‘lgan mo‘tabar islom dinimizda ham sog‘lom avlod tarbiyasigi katta e’tibor berilgan.

Ma’lumki islom dini avvalo inson faravonligiga, uning ma’naviy kamolotiga xizmat qiladi va ayni paytda, jamiyat taraqqiyotiga, ilm ma’rifatga, halollik, rostgo‘ylik va ezgulikka chorlaydi. Yana ahamiyatli jihati shundaki, islom dinida sog‘lom turmush tarzining tayanchi bo‘lgan - oila muqaddas hisoblanadi va e’zozlanadi.

Bilamizki, oila naslni davom ettiradigan muhim muassasadir. Oila har tamonlama mustahkam bo‘lishi uchun ota-onalarning o‘rinlari beqiyos ahamiyatga egadir.

Farzandga ilm, hunar o‘rgatish farz. Ilmli kishilar doimo el orasida hurmatga loyiq bo‘lib, alohida e’zozlanadilar. Xalqimizda «yoshlikda olingan bilim go‘yo toshga o‘yilgan naqsh kabidir» degan naql bor. Shunday ekan ilm olishga yoshlikdan harakat qilish kerak. Har bir kishi yoshlik davrini g‘animat bilib, beparvo bo‘lmay, kelajakda o‘zi va xalq manfaati, baxt-saodati yo‘lida foyda beradigan bilim olishga harakat qilishi muhimdir. Bu borada buyuk donishmandlar o‘z qarashlarida quyidagi fikrlarni ilgari suradi. “Ilm-sahroda do‘st, hayot chorrahalarida tayanch, yolg‘iz damlarda yo‘ldosh, baxtiyor daqiqalarda rahbar, qayg‘uli onlarda madadkor, odamlar orasida zebu - ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda quroldir», deganlar. Ha, darhaqiqat sog‘lom hayot va sog‘lom turmush tarzini yaratish - oiladan, ya’ni farzand tarbiyasidan boshlanadi.

“Mol davlat va farzandlar dunyo hayotining ziynatidir”. Ha farzand qalb rayhonidir. Yoshlik chog‘laridan ularni ko‘rib ko‘zimiz quvonsa, katta bo‘lganlarida yordamlaridan bahramand bo‘lib, dilimiz yayraydi. Farzandlar insonlarga berilgan aziz ne’matlardan biridir. Bu ne’matning munosib farzand bo‘lib yetishishida ota-onaning xizmati beqiyosdir. Shunday ekan farzand tarbiyasida otaning ham, onaning ham o‘ziga yarasha vazifalari mavjuddir. Otaning vazifalari quyidagilardan iborat.

-ota farzandlariga, o‘zining otasiga yaxshilik qilishi bilan o‘rnak bo‘lishi, ularni jonidan ham ortiq ko‘rishi muhim hisoblanadi. Shundagina farzand otasining tutgan yo‘lidan yuradi, undan ta’sirlanadi, shu holatda unib o‘sadi va voyaga yetadi.

-er o‘ziga bilimli, ma’naviyatli, aql-farosatli umr yo‘ldoshi tanlashi kerak-ki, bu ayol kelajakda farzandlarining onasi, ularning tarbiyachisi bo‘ladi.

Ota farzandining tarbiyasiga, bilim olishiga, shuningdek, odob-axloq qoidalarini singdirib borishi muhimdir.

Yomon do‘st va yomon bolalar ta’siridan farzandini asrash kerak. Chunki, buzuvchi axloqli bolalar bilan do‘stlashib qolsa, farzandining ham tarbiyasi buzulishi tayin. Shuning uchun farzandlarini faoliyatini nazoratga olishi, ular bilan ko‘proq hamsuhbat bo‘lishi, qilayotgan ishlarini to‘g‘ri-yoki noto‘g‘ri ekanligini tushuntirib borishi va oilada otaning o‘rni borligini his qildirish olishi



muhim ahamiyatga egadir.

Farzand tarbiyasida onaning vazifalari quydagilardan iborat:

Ona - uy bekasi sifatida oilaning barcha yumushlariga mas'uldir. Xonadonning oroyishi va osoyishtaligi, ro'zg'ordagi tartib-intizom, oila an'alarining umrboqiyli, tinch-totuvli, fayzli hayot ayol kishiga bog'liq. Uddaburon rejali, tadbirkor ayol - oilada to'kin-sochinlik garovidir. Uning aksi bo'lsa, oiladan qut-baraka ketadi, oila jamg'armasi tanazzulga yuz tutadi. Oiladagi barcha masalalar yuzasidan erga ma'lumot beruvchi, ularni o'zaro maslahatlashib, yechimini topuvchi, ota bilan farzand o'rtasidagi munosabatlarni yo'lga qo'yib boruvchi ham onadir. Ayol - oila tinchligining tarozisidir. Jismi-jonidan tirik bir jonni ne azobda dunyoga keltiruvchi ham ayoldir. Turmush o'rtog'ini ertalab tabassum bilan ishga kuzatgan, qaytganda xursandchilik bilan kutib olgan ayol jannatidir. Bu toifadagi ayollar er urug'ini o'z urug'idek, qaynona-qaynotasini esa o'z ota-onasidek hurmat-izzat qiladi.

Oilada ayolning sadoqati, ozodaligi, shirin muomalasi, ishbilarmonligi qizlar uchun namunadir. Onaning mehmon kutish, taom tayyorlash, muomala va kiyinish madaniyatiga rioya etish, bola tarbiyalash, ma'naviy-madaniy savodxonligi qiz bola uchun oila maktabidir.

Ota-ona farzand oldida o'z aql-zakovati, muomalasi, kiyinishi, shirin so'zligi, qat'iyatliligi, yolg'on gapirmasligi, mehnatsevarligi, oila yuritishda adolatparvarligi, ilmparvarligi bilan namuna bo'lishi kerak. Bolaning ruhiyatiga ota-onaning o'zaro janjallari, oilaga, jamiyatga, atrof-muhitga salbiy munosabati, yolg'on so'zlashi, qat'iysizligi, kiyinishida, ro'zg'or yuritishdagi, pala-partishligi, mehnatni sevmasligi, tezda o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Ota-onaning bir-biriga nisbatan yuksak axloqiy munosabatini ko'rgan, bilgan bola kelgusida oila qurganda ham o'z turmush o'rtog'i bilan shunday yashashga tayyor bo'lib boradi.

Ba'zi ota-onalar farzandining kelajagini faqatgina moddiy ta'minlashdan iborat deb biladi. Shuning uchun ham turli yo'llar bilan uzoq avlod-ajdodlariga yetadigan molu-dunyo to'plashga harakat qiladi. Ochko'zlik kasaliga muhtalo bo'ladi. Inson jismi-jonidagi kasalliklarni davolash mumkin, lekin bu kasallikni davolash juda murakkab. U insonni insoniylikdan mahrum etadi. Turli jinoyatlarga noaxloqiy hatti-harakatlar sodir etishga yetaklaydi. El-yurt ichida obro'sizlantiradi. Bunday boylik farzandga baxt emas, baxtsizlik keltiradi.

Ota-onadan behisob molu-dunyo emas, ilmu-ma'rifatga intilish, insof-u diyonatga sadoqat, mehru shafqat, hayotga muhabbat, xalq. Millat, vatan uchun jon-fidolik sifatleri meros bo'lib qolmog'i zarur. Bola uchun o'z millati, madaniyati, san'ati, dini, axloqiy-ma'naviy qadriyatlari, oila an'analari, urf-odatlarini chuqur bilish va ulardan ma'naviy ozuqa olish, g'ururlanish, tarbiyaviy xarakter kasb etadi.

Oilada farzandni tejamkorlikka, tadbirkorlikka, tashabbuskorlik o'rgatish, dunyoviy ilmlar va hayot ilmidan voqif etish, kasb-hunar sirlarini qunt bilan egallashlari uchun shart-sharoit yaratib berish, ularning hayot so'qmoqlarida adashib qolmasligi va ravon yo'ldan borishda yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, xalqimizda shunday ibratli urf odatlar mavjudki, bu odatlarga har bir inson rioya etsa albatta u inson kelajakda hamma uchun namuna bo'ladigan va ibratli komil inson bo'lib yetishadi. Bu esa sog'lom hayotning va sog'lom turmush tarzini yaratishda muhim ahamiyatga egadir. Shunday urf odat va an'analari bilan har bir xalq faxrlansa arziydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Davletshin M.G va boshqalar Yosh davrlari va pedagogik psixologiya: T 2004
- 2.G'oziyev E.G' Umumiy psixologiya: darslik I,II kitob 2002
- 3.Z.Axmedova O'zligingizni o'zingizdan izlang: Psixologik maslahatlar
- 4.Jo Vitale Baxt sari to'rt qadam: Toshkent 2018 yil



TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Nizamova Zamira Jo'raboyevna

Siddiqova Aziza Yoqubjanovna

Namangan viloyati Namangan tumani

30 - son maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llash, interfaol metodlardan samarali foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirish usullari va yo'llari haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: metod, innovatsion texnologiya, mantiqiy fikr, kasbiy kompetentlik, interfaol, dars, pedagogik texnologiya, ta'lim, sifat.

Xuquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan izchil borayotgan mamlakatimiz bunday jamiyatni ko'rish uchun avvalo, ishni ta'lim tizimini isloh qilishdan boshlanganligi bejiz emas. Jamiyatni yangilash asosida ta'lim sohasini isloh qilish jarayoni kechayotgan hozirgi davrda ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirish eng muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Zukko, bilimli shaxsni shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonida ustuvor masala bo'lib, pedagogik jarayonni pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta'minlash bugungi kundagi dolzarb muammolardan biridir. Shu sababli o'quvchilarni har tomonlama bilimli, mustaqil, mantiqiy fikrlovchi, ma'naviy- axloqiy fazilatlariga ega yetuk kadrlar qilib tayyorlash ta'lim beruvchi o'qituvchilardan katta mas'uliyatni talab etadi. Bu esa o'tilayotgan darslarni pedagogik va axborot texnologiyalar, interfaol metodlarga tayangan holda o'tishni taqozo etadi.

Darhaqiqat, darsda zamonaviy mazmunga ega an'anaviy hamda interfaol metodlar, mashqlardan foydalanish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini va motivlarni keskin o'zgartiradi. Pedagogik texnologiyalar mazmuni, mohiyatiga ko'ra quyidagicha tavsiflanadi: shaxs malakasi strukturasi mo'ljallanganligiga ko'ra; mazmuni va tuzilishiga ko'ra; ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishga ko'ra; ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi shaxsining tutgan o'rniga ko'ra; hozirgi zamon ta'lim tizimida amal qilayotgan an'anaviy ta'limni mazmunan yangilash va ta'lim jarayonini tashkil etishni tubdan o'zgartirilgan texnologiyalar.

Ta'limda interfaol metod – bu o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida ta'limni o'zlashtirish munosabatlarini kuchaytirish, faollashtirish demakdir. Mazkur metodlar hamkorlikda ishlash vositasida dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ular o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Interfaol degani bu - berilgan mavzuni o'qituvchi va o'quvchilar orasida o'zaro hamkorlik asosida dars samaradorligini oshirish, mustaqil fikr berish ko'nikmasini shakllantirish, fikr-mulohaza, bahs orqali o'rganish demak. Har bir o'quvchi qo'yilgan maqsadga mustaqil o'zi faol ishtirok etgan holda yakka, juftlikda, guruhlarda javob topishga harakat qiladi, fikrlaydi, yozadi, so'zga chiqadi, dalil va asoslar orqali masalani yoritib berishga harakat qiladi. Bu esa qatnashchilarning xotirasida uzoq vaqt saqlanadi. Yangi axborotni o'zlashtirishda tanqidiy, tahliliy yondasha oladi. O'qituvchi faqat fasilitator (yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, tashkil qiluvchi, kuzatuvchi) vazifasini bajaradi.

Interfaol o'qitish - o'qitilayotgan shaxsning o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini o'quv muhiti va unga ta'sir etuvchi omillar bilan bog'liq holda o'rganish jarayoni. To'laqonli interfaol o'qitishda uning ishtirokchilari moslashuv va ijtimoiy, aqliy faollikda bo'lib, jarayonda qatnashadilar. Bu uchala faollik turi o'zaro bog'langan bo'lib, albatta, dars jarayonida qo'llaniladi. Bunda: Moslashuv - ish, joy almashtirish, gaplashish, yozish, eshitish, rasm chizish va h.k; ijtimoiy – savol berishadi, javob berishadi, fikr almashishadi va h.k; aqliy – o'qituvchi bayoniga qo'shimcha kiritishadi, muammolar yechimini topishadi, va h.k.

Interfaol o'qitishda o'quv jarayonidagi holat va o'quv axborotini o'zlashtirish bilan bog'liq bilish faoliyati tashkil etiladi, sinfda va sinfdan tashqarida tengdoshlari bilan muloqotga kirishish bilan kommunikativ xususiyatlarni rivojlantirish, jamiyatda yashash uchun kerak bo'ladigan fuqarolik sifatleri shakllantiriladi. Interfaol o'qitishning muhim tomoni shundaki, o'quv jarayoni guruhlar bilan ishlashning barcha shakllarini qamrab oladi.

Interfaol metod nechog'lik o'qitishning muayyan aktini tavsiflasa, u shunchalik ko'p o'qitish samarasini ta'minlaydi. Masalan, pedagog asosiy metod sifatida “bahs”ni tanlaydi va uni



o‘tkazish mantiqini quradi, shuningdek, munozara davomida o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun “aqliy hujum” metodidan foydalanadi, bu esa kutilgan samarani beradi.

Interfaol metodlarni ro‘yobga chiqarish shakllari joriy etish vositalari kabi turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, aqliy hujum, tanqidiy fikrlash, ajurli arra, menyular og‘zaki so‘z, darslik o‘qish, kino yoki televideniye, boshqa tasviriy vositalar orqali amalga oshirilsa, klaster, sinkveyn, o‘z o‘rningni top kabi metodlar o‘qituvchining oldindan ko‘rsatib bergan faoliyat usullarini takrorlashini taqozo etadi.

Xulosa shuki, o‘quv jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash natijasida:

- o‘quv-tarbiyaviy jarayonda ta’lim oluvchining motivatsiyasini oshirish;

- darsda o‘quv materiallarining mazmuni va hajmini oshirish;

- o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish;

- ta’lim-tarbiya jarayonida ta’lim oluvchining shaxsiy ishtiroki faolligi va mas’uliyatini yanada oshirish eng muhim darajaga chiqadi.

Bunday usullar o‘quvchida bilimga ishtiyoq uyg‘otadi. O‘quvchi darslarga puxta hozirlik ko‘rishga intiladi. Muxtasar aytganda, pedagoglarimizning darslardagi innovatsion faoliyati kelajak avlodning hech kimdan kam bo‘lmay voyaga yetishiga, ilg‘or fan va texnika yutuqlarimiz, ilmiy loyihalarimiz dunyoda e’tirof etilishiga zamin yaratadi. Zero, ta’lim va tarbiya ustuvor mamlakatda beqiyos yangilanishlar tobora yuksak bo‘y cho‘zadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xidirova B. Ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyani qo‘llashning nazariy va amaliy asoslari. – T.: Fan va texnologiya, 2009.

2. Muqimov K. Innovatsion fikrlash maktabdan boshlanishi zarur. Ma’rifat, 2017 3. Shodmonova Sh.S. va boshq. Pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2011.

4. G‘afforova T. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf, 2009.



TALABALARDA YETAKCHILIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY ZARURATI

Raxmatova Dilbar Anvar qizi

Navoiy viloyati Karmana tumani

15-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

NDPI 2-kurs magistranti

Telefon:+9989(91)3343373 RDA1997@list.ru

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada talabalarda yetakchilik qobiliyatini shakllantirishning ijtimoiy zaruriyati ochib berilgan. Shuningdek, yetakchining hozirgi zamondagi o'rni va nega kerakligi, uning xususiyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: yetakchi, lider, qobiliyat, rahbar, boshqaruv mahorati, guruh manfaati.

KIRISH

Mamlakatning umumiy taraqqiyoti individual komillikning yig'indisi ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. Xalqimiz mentalitetiga xos bo'lgan ana shu o'ziga xoslik ya'ni jamoaga qarab fikrlash, qaror qilishdan iborat mazkur tamoyildan kelib chiqib, yoshlarda liderlik qobiliyatini shakllantirish va boshqaruv mahoratini rivojlantirish katta ahamiyatga ega.

«Yetakchi» so'zi guruh a'zolariga ta'sir o'tkazuvchi va maqsadga yetaklovchi shaxsga nisbatan qo'llaniladi. Ilmiy adabiyotlarda ba'zan «lider» so'zini «yetakchi» atamasi bilan almashtirish hollari ham uchraydi. Yetakchi - o'z atrofidagi odamlarning fikri va xulq-atvoriga ijobiy ta'sir o'tkaza oladigan, maqsadli vazifalarni amalga oshirish qobiliyatiga va yuqori shaxsiy mavqega ega bo'lgan ijtimoiy guruh a'zosi. Yetakchilik guruh tarkibini, undagi munosabatlar tizimini tahlil etish orqali insonda shakllangan qobiliyatga suyanish va qobiliyatni imkoniyatga qarab, namoyon etish holatidir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yosh yetakchi degani o'ziga tengdosh shaxslar manfaatlari uchun qonun doirasida faol ish yuritishni anglatadi. Yetakchi o'z kuchiga ishongan, jasur va xarizmatik inson bo'lishi lozim. U hatto, yosh avlodning himoyachisi bo'la oladi. Odatda, yosh yetakchilar tengdoshlari orasida ajralib turadigan yorqin xislatlarga ega shaxslardir. Ular nafaqat tengdoshlarini o'ziga jalb qila oladi, balki o'zidan katta yoshdagilar bilan ham tez til topisha oladi. Bunday yetakchi tengdoshlaridan ko'ra ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi, bu esa unga muhim masalalarni hal etish imkonini beradi.

Yetakchining asosiy xususiyatlaridan biri - yoshlar orasida “bir qadam oldin”da bo'lish. U yangiliklardan doimo xabardor, boshqalar uchun ochiq bo'lmagan axborotga ega bo'lishi kerak. Barcha jabhada yoki sohada axborotga egalik qilish boshqalardan ustun bo'lish imkonini beradi. Yetakchi bunday manbani qayerdan, qanday topishni yaxshi biladi. Bunday axborotga ega bo'lmagan o'spirinlar uning o'rnini xayol, gumon va shubha bilan to'ldiradi. Ular hayotidagi unutilmas kun yoki umuman bo'lmagan voqealar bilan o'rtoqlashadilar, bunday narsalarni yaxshi qabul qiladilar. Shu tariqa o'spirinning yetakchilik xususiyatlari o'z fikrini erkin bildirishida namoyon bo'ladi. Yoshlar yetakchisi aniq dalil va isbotlar bilan o'z bilimni boyita oladi. Bunday holatda yetakchiga nisbatan ishonch ortadi.

Yosh yetakchining yana bir xususiyati shundaki, u o'ziga xos va takrorlanmas fikrlarni dadil bildira oladi. U fikrlarini qiziqarli tarzda ifodalaydi va boshqalardan ham dadillik kutadi. Bunday xususiyatga ega bo'lgan yetakchiga yoshlar ishonadi va unga ergashadi. Shuning uchun yoshlarga yetakchilik xususiyatlari bilan birga axloqiy qoidalar asosi va ko'nikmalarini singdirish hamda har bir xatti-harakatning natija va oqibatlarini anglashni o'rgatish kerak. Bu, o'z navbatida, barkamol, yetuk insonni shakllantirish imkonini beradi. Yoshlar va o'spirinlar ichida turli ijtimoiy guruhlar, harakatlarga a'zo bo'lish alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, yetakchi shaxs tug'ma qobiliyatining yetarli darajada shakllanganligi bilan xarakterlanadi. Yuqorida aytganimizdek, yetakchining asosiy xususiyatlaridan biri - guruh manfaati haqida g'amxo'rlik. Shuning uchun “yetakchi” ta'rifidagi asosiy ma'no shaxsning vaziyatni muvaffaqiyatli hal eta olish qobiliyati va guruh maqsadi yo'lidagi jonbozligi deb tushunilishi mumkin.

Zamonaviy psixologiya fani yosh yetakchiga xos bo'lgan jihatlarni 3 toifaga bo'ladi:

- 1) jamoa manfaatining ustuvorligi;



2) kasbiy mohirlik, ya'ni har qanday muammoli vaziyatda qiyinchilikni o'z bo'yniga olish va ishini hal etishda tashabbuskor bo'lish;

3) 3) emotsional, ya'ni hissiy jalb etuvchanlik.

Biz talaba-yoshlarda yetakchilik qobiliyatlarini milliy qadriyatlarimiz, qomusiy allomalar, buyuk va tarixiy siymolar, davlat arboblarning bizga qoldirgan so'nmas meroslarini o'rganish orqali ham shakllantirishimiz mumkin. Yuqorida misol tariqasida keltirilgan «Temur tuzuklari» ayniqsa boshqaruv, rahbarlik faoliyatida alohida ahamiyatga molik. Abu Nars Forobiy boshqaruv tizimida ilm va san'atning maxsus turlari borasida fozil, aqlli va turli darajali mahoratga ega bo'lgan kishilarning o'rnini alohida ifodalagan. Abu Nasr Forobiy esa davlat boshqaruvchisining 12 fazilatini sanab o'tadi. U, «...bu 12 fazilat bir kishida mujassam bo'lsa – o'sha odam davlatni boshqarsin, agarda bu 12 fazilat 12 kishida mujassam bo'lsa unda davlat boshqaruvini o'sha 12 ta odam birgalikda olib borishi kerak», - deb ta'kidlagan. Shunday ekan yetakchi, boshqaruvchi bo'lish uchun maxsus qobiliyat, tarbiya, tayyorgarlik, fazilat va sifatlar bo'lishi lozim.

Talabalarda yetakchilik qobiliyatini shakllantirish nima sababdan bu qadar muhim degan savol tug'ilishi mumkin. Mamlakatimiz rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilar ekan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, fan-texnika, ilm-fan taraqqiyoti globallashuv natijasida bo'lishi tabiiydir. Ammo bu globallashuvning salbiy oqibatlari; turli oqimlarning paydo bo'lishi, «ommaviy madaniyat»ni turmush tarzimizga singib ketishi, milliy qadriyatlarimizni yo'qolib ketishi, yot g'oyalarning hali endi ham psixologik, ham fiziologik shakllanayotgan talaba-yoshlarga ta'siri bo'lmoqda. Bularga qarshi esa hozirda respublikamizning har bir muassasasi, tashkiloti, pedagog-o'qituvchilar, ishchi-xodimlari o'zlarining soha va kasblaridan kelib chiqqan holda kurashmoqda.

Bo'lajak yetakchi va rahbarlarni shakllantirish hozirgi taraqqiyot davrida rivojlangan mamlakatlarning strategiyalaridan biridir. Odamlarning psixologiyasi va turmushiga o'nlab yillar davomida ko'pincha zo'ravonlik yo'li bilan boshqarilgan rahbarlikni bir zumda o'zgartirish mumkin emas. Buning uchun ijtimoiy jamoalar o'rtasidagi rahbarlik munosabatlarining keskinlashuviga va ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yishga barham berish yo'li bilan jamiyatni boshqarish va o'zgartirish zarurligiga odamlarni ishontrish, harakatga keltiruvchi rahbarlik kuchlarini va boshqarishning rag'banlantiruvchi omillarini o'zgartirish mumkin».

Mustaqillikdan keyin bo'lib o'tgan o'zgarishlar, ta'lim tizimidagi islohotlar barchamizga ma'lum. Ayniqsa, mustabid tizimidagi ko'r-ko'rona ergashish bu xalqning mustaqil fikrlashini, erkin tanlovini, shaxsiy ehtiyojlarining qondirilishini, milliyligini, madaniyatini yo'qotib borar edi. O'z milliyligini, o'z madaniyatini saqlab qololmagan xalqdan qanday qilib Vatanga sadoqat, oilani asrash, ota-onani e'zozlash kabi yuksak insoniy fazilatlarni kutish mumkin. Shuning uchun ham mustaqillik insonlarning erkin fikrlashi, o'z fikrini himoya qilishi, dunyoqarashini o'stirishi, barcha uchun belgilangan bir xil qolipni emas, o'zining shaxsiy sifatleri va individual qobiliyatlarini inobatga olgan holda harakat qilish va o'ziga maxsus sharoitni yaratishni keng targ'ib qildi. Bu targ'ibotni insonlar ongidagi bo'shliq erkinlikni, demokratiyani noto'g'ri tushunish oqibatida shaxsiy va moddiy mafaatlarni ehtiyojdan qat'iy nazar qondirish, egosentrik xarakterning shakllanishini yuza keltirdi.

Talaba-yoshlarda shakllantirilayotgan «rahbarlik», «liderlik» fazilatlari barchada bir xil mavjud bo'lavermaydi. Buning uchun esa, eng asosiysi, unda qobiliyat bo'lishi lozim. Balki shuning uchun ham rahbarlik, boshqaruvchilik - bu san'atdir. San'at – bu qobiliyat, tug'ma va albatta, yillar davomida tinimsiz mehnat natijasida tarbiyalangan, shakllangan va rivojlangan iste'doddir.

Psixologik nuqtai nazardan insonda mavjud qobiliyat uning xarakter xislatlariga, xatti-harakatiga, turmush-tarziga, faoliyatiga, shaxslararo munosabatiga bevosita ta'sir qiladi. Har qanday qobiliyat shaxsning ijtimoiy hayotida yillar davomida tarbiyalanib, takomillashtirilib borilmasa u dogmatik holatda, ya'ni turg'un holatida qolib ketadi va rivojlanmaydi. Shuning uchun yetakchilik qobiliyati mavjud talabalarga alohida e'tibor qaratishimiz lozim.

Rahbar o'z qobiliyati, iste'dodini ishga solib izlanadi, shu maqsadda hayotni, odamlarni chuqur o'rganadi. Natijada to'plangan bilimlari, tajribalarini boshqaruvning umumiy qonuniyatlari asosida shakllantirib o'zining rahbarlik usulini yaratadi. U o'z boshqaruv usullarini shakllantirishda mutlaqo erkin shaxsdir, ammo uning rahbarlik usuli ijobiy natija berishi kerak.

Rahbarlik faoliyatining samaradorligi rahbar shaxsining tafakkuri, aql-idrokiga ham bevosita bog'liq bo'ladi. Tafakkur rahbarga keng va chuqur fikrlay olish, yaxshini yomondan, foydani zarardan, muhimni nomuhimdan bexato ajrata olish imkoniyatini beradi. Bu hammaga ham nasib qilavermaydigan yuksak fazilat bo'lib, agar rahbarda ular shakllangan bo'lsa, bunday rahbar



boshqaruvning sir-asrorlarini qiynalmasdan egallab oladi. Har bir rahbar keng va chuqur fikrlay olish bilan birga, chaqqon va uddaburon, harakatchan va shijoatli bo'lishi ham kerak. Shuning uchun ham rahbarlik faoliyatini tafakkur va harakat birligi deb atash mumkin. Bunda fikrlash va harakat bir paytning o'zida ro'y beradi. Boshliq o'zi o'ylashi, o'zi mantiqiy xulosaga kelishi va ularni amalga oshirishga kirishishi kerak. Rahbardagi o'ziga xos talabchanlik, mehribonlik hamda mas'uliyat jamoa a'zolarida ham javobgarlik hissining shakllanishiga sababchi bo'ladi. Bunday muhitda nafaqat jamoaning balki, butun bir mamlakatning ertasi porloq, kelajagi buyuk bo'ladi.

Talaba-yoshlarda yetakchilik qobiliyatini va boshqaruv mahoratini rivojlantirish orqali yuksak ma'naviyatli yetakchi yoshlarni tarbiyalash, ularni mamlakatimiz taraqqiyoti va uning istiqboli uchun yo'naltirish talab etiladi. Bunda quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

- Yetakchi va yetakchilik xususiyatlarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o'rganish;
- Davlatimiz tomomidan yoshlarda yetakchilik qobiliyatini shakllantirish va boshqaruv mahoratini rivojlantirish sohasida olib borilayotgan ishlarni tizimli tahlil qilish;
- Yoshlarda yetakchilik xususiyatlarini shakllantirishga ta'sir etuvchi turli ehtiyoj va omillarni o'rganish;
- Yoshlar faolligini yanada oshirish orqali yetakchilik qobiliyatini rivojlantirishda ularning yangi qirralarini yuzaga chiqarish.

XULOSA

Talaba-yoshlarda yetakchilik-rahbarlik qobiliyatlarini oldindan tarbiyalab borish natijasida ular nafaqat boshqaruv tizimning mohiyatini chuqurroq anglashi, balki, boshqaruvchi, rahbar uchun eng muhim hisoblangan tajriba, ko'nikma, mahorat, bilim, aql, tafakkur, idrok va eng asosiysi, ko'ngli poklik, o'z ishiga mehr, xushmaomalalik, qalbi tozalik, adolatlilik va nafsining quliga aylanmaslik kabi fazilatlarini ham ertaroq tarbiyalash imkoni bo'ladi. Eng asosiysi esa, uning rasmiy rahbar lavozimini egallashidan oldin maxsus tashkil etilgan, kichik guruhlarda o'z tajribasini oshirish imkoniyati ham bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Maxmudov M. Boshqaruv psixologiyasi. – T.: “Akademiya”, 2006.
2. Razzoqov Sh. Rahbarlik san'ati. – T.: “Sharq”, 1997
3. Raximova D. Bekmurodov M. Liderlik va tashkilot madaniyati. –T.: “Akademiya”, 2006
4. Hamdamova M. Yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish mexanizmining pedagogik-psixologik asoslari. Uslubiy tavsiyalar. – Toshkent, 2007 yil.
5. Internet materiallari



ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Плиева Руслана Владимировна,
преподаватель кафедры “Дошкольное образование”
Гулистанского государственного университета
Телефон: +998909905071
ruslana@inbox.ru

Аннотация: В данной работе рассматривается изучение педагогических технологий при обучении детей с ОВЗ в процессе инклюзивного образования, а также представлены важные условия взаимодействия педагога с детьми ограниченными возможностями здоровья в процессе учебной деятельности.

Ключевые слова: инклюзивное образование, ограниченные возможности здоровья, педагогические технологии

Инклюзивное образование — это совместное обучение, включая организацию совместных учебных занятий, досуга, различных видов дополнительного образования лиц с ограниченными возможностями здоровья и лиц, не имеющих таких ограничений. [2, с. 6] Наблюдения за детьми с ОВЗ показывают, что именно умение использовать оказанную помощь и осмысленно принимать усвоенные в процессе дальнейшего обучения знания приводят к тому, что через некоторое время эти дети могут успешно обучаться в массовых школах. [1, с.128] Поэтому перед учителями стоит большая задача, т. к. нужно подобрать эффективные методы и формы обучения, а также обеспечить дополнительные занятия по отработке форм адекватного учебного поведения, умения вступать в коммуникацию и адекватно воспринимать похвалу и замечания. Инклюзивное образование на ступени начального общего образования направлена на организацию комплексной педагогической, психологической и социальной помощи школьникам с ОВЗ для обеспечения возможности коррекции недостатков в их психофизическом развитии и освоения основной образовательной программы. При этом самым важным звеном всей системы коррекционной работы, на наш взгляд, является психолого-педагогическая компетентность учителя. Так как, важная роль в системе становления и развития личности ребенка отводится учителю. При обучении ребенка с ограниченными возможностями здоровья в школе особенно важным является создание условий для благоприятной адаптации ребенка, т. е. обеспечение благополучного развития и обучения с учетом его индивидуальных возможностей. Особенностью инклюзивного образования является то, что учитель учитывает разнообразие детей в классе, их особенности, возможности, интересы. В связи с этим возникает необходимость менять технологии работы. Можно выделить две большие группы инклюзивных технологий: организационные и педагогические. Педагогические технологии могут быть успешно использованы в инклюзивной практике учителем на уроке: технологии дифференцированного обучения, технологии индивидуализации образовательного процесса, технологии коррекции учебных и поведенческих трудностей, технологии, направленные на формирование социальных (жизненных) компетенций, технологии оценивания достижений в инклюзивном подходе. [4, с.85] Учителя с первого класса уже после начала учебного года знают, что не всем детям легко удастся адаптироваться в школе, у многих возникают сложности (не может усидеть на месте, вскакивает, бродит по классу, не слышит обращенную речь учителя, задания не выполняет). При включении ребенка во взаимодействие с одноклассниками мы использовали технологию гуманного воспитания Сухомлинского. Детям надо объяснить, что каждый ребенок — особенный. Рассказать, что ему трудно, и объяснить, чем ему можно помочь. Как правило, дети с готовностью откликаются на просьбы взрослых, если имеют достаточную информацию. Если педагог показывает положительное отношение к «особому» ребенку: не старается выделить его из всех детей, включает в занятие, организует взаимодействие на занятии и перемене, то в группе формируются отношения доверия, сотрудничества и взаимопомощи. Пока еще дети плохо знали друг друга, поэтому предложили им разделиться на 2 группы и дали задание. Сначала выполняли работу самостоятельно, а потом эту же работу, — но все вместе. В процессе знакомства мы заметили возможности, черты характера



каждого ребенка. Важно уже при первом знакомстве установить контакт не только с детьми, но и с родителями. Очень важно при этом, чтобы родители сами захотели поделиться с педагогом проблемами своих детей, рассказали о своих пожеланиях. Во время знакомства родители задавали вопросы, делились советами друг с другом, т. к. каждый родитель волнуется за своего ребенка. Также на первую встречу мы пригласили специалистов. Таким образом, технология сотрудничества при организации инклюзивного образования состоит в знакомстве и формировании основ взаимодействия всех участников образовательного процесса — детей, педагога, специалистов, родителей. На втором этапе использовали технологии индивидуального обучения и технологию создания успеха для обучающихся. Здесь особенно важным является создание условий для благоприятной адаптации ребенка к школе, т. е. обеспечение благополучного развития и обучения с учетом его индивидуальных возможностей. Для облегчения адаптации можно предложить ребенку план дня в картинках. На третьем этапе использовали групповое обучение как одну из ведущих технологий инклюзивного образования. Организационная структура групповых способов обучения может быть комбинированной, т. е. содержать в себе различные формы: групповую (один учит многих), парную (это ситуация, когда один ребёнок учит другого под наблюдением педагога). Специалисты, которые проводят углубленное обследование ребенка составляют предварительные рекомендации для его эффективного обучения. Представляем важные условия взаимодействия педагога с особенным ребенком в процессе учебной деятельности: Для ребенка важно чувствовать вашу помощь и поддержку. Вы должны относиться к ребёнку как к обычному. Найдите занятия, которые бы удавались ребенку и повышали его уверенность в себе. Подберите материал по теме урока и наглядные средства с учетом особенностей детей. Оберегайте ребёнка от переутомления. Тесно взаимодействуйте с родителями, давайте им рекомендации. Старайтесь выслушать то, что хочет сказать ребёнок. Используйте формы и приемы, соответствующие возможностям ребенка. Хвалите ребенка в каждом случае, когда он того заслужил. Учитывайте желание ребёнка особенного «быть как все». Выбирайте задания, которые соответствуют возможностям ребёнка. Особенностью инклюзивного образования является то, что учитель учитывает разнообразие детей в классе, их особенности, возможности, интересы. Поэтому учителям важно использовать эффективные технологии работы.

Литература:

1. Гонеев А. Д. Основы коррекционной педагогики: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / А. Д. Гонеев, Н. И. Лифинцева, Н. В. Ялпаева; Под ред. В. А. Сластенина. — 3-е изд., перераб. — М.: Издательский центр «Академия», 2004. — 272 с.
2. Педагогика и психология инклюзивного образования: учебное пособие / Д. З. Ахметова, З. Г. Нигматов, Т. А. Челнокова, Г. В. Юсупова и др. — Казань: Издво «Познание» Института экономики, управления и права, 2013. — 255с.
3. Педагогические технологии: Учебное пособие для студентов педагогических специальностей / Под общей редакцией В. С. Кукушина.-М.: ИКЦ «МарТ»: — Ростов н/Д: издательский центр «МарТ», 2006. — 336с. Самсонова Е. В. Основные педагогические технологии инклюзивного образования // Инклюзивное образование: результаты, опыт и перспективы: сборник материалов III Международной научно-практической конференции. 2015. С. 85.



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI O'RNI

Qozaqova Xurmatxon Tursunpolatovna

Homidova Xurshida Abdulboqiyeva

Namangan viloyati Namangan tumani

30 - son maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarning o'rni, pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan darslarning o'quvchi ehtiyojiga to'g'ri kelishi haqidagi fikrlar bayon qilingan. Boshlang'ich ta'lim darslarida foydalaniladigan innovatsion texnologiyalardan namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: o'quvchi, o'qituvchi, innovatsiya, motiv, texnologik xarita, aqliy salohiyat, baliq skeleti, venn diagrammasi, boshlang'ich sinf.

Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri.

Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi mas'uliyatli ekanligini ko'rsatadi.

Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslarni o'tkazish metodlariga ko'ra, o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishi, xohish va istaklarini qo'zg'atish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir.

Boshlang'ich sinfda ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki, motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Interfaol metodlar o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda ko'proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o'yin mashqlardan foydalanib, darslar o'tish yaxshi samara beradi. Ko'proq atrof-muhit bilan bog'lab o'tilgan mashg'ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. O'z ishiga ixlos bilan qaragan o'qituvchida chinakam ehtiros bo'ladi.

Innovatsion texnologiyalarni qo'llashda darsning oldindan loyihasi, ya'ni texnologik xaritasi tuziladi. Texnologik xarita tuzish uchun o'qituvchi darsning har bir bosqichida amalga oshiriladigan ishlar, ularda o'qituvchining pedagogik va o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini tashkil etish, boshqarish va faollashtirish yo'llari, teskari aloqani amalga oshirish, ularga ajratilgan vaqtni aniq belgilash lozim. Texnologik xaritada, albatta, tashkiliy qism, yangi mavzuning motivatsiyasi, o'quvchilar bilimini tekshirish, yangi mavzuni o'rganish va uni mustahkamlash, erishilgan natijalarni tahlil qilish va yakun yasash kabi bosqichlari bo'ladi. Bunda o'qituvchi va o'quvchining dars davomida bajaradigan ishlari bosqichma-bosqich qayd etiladi. Dars texnologik xaritasining mukammal tuzilishi, maqsad va vazifalarini amalga oshirish, samaradorlikka erishish va bosqichlar o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash, vaqtdan unumli foydalanish imkonini beradi.

Yuqorida aytganimizdek o'quvchi shaxsini shakllantirishda innovatsion texnologiyalar juda yaxshi samara beradi, ana shunday texnologiyalardan ayrimlarini ko'rib o'tamiz.



“Baliq skeleti” texnologiyasi. Ushbu texnologiya baliq model chizmasi orqali namoyish etilib, bunda o‘quvchilar o‘rtaga tashlangan muammoni har tomonlama ochib berishga harakat qiladilar. Baliq skeleti chizmasi varaqqa chizilib uning tepa qismiga yechilishi kerak bo‘lgan muammo yoziladi. Pastki qismiga muammoni hal etilish yo‘llari yozib boriladi. Masalan, yo‘l harakati darslarida “Yo‘l qoidalari” mavzusida “Svetofor nima uchun kerak?” muammosi qo‘yilsa, bolalar o‘z fikrlari bilan baliq skeletini boyitib boradilar. Bu usul orqali o‘quvchilar mustaqil, keng, ijodiy, tanqidiy fikrlashga o‘rganadilar.

“Venn diagrammasi”. Ushbu texnologiya ona tili, o‘qish darslarida o‘tilayotgan mavzu haqida o‘z fikriga ega bo‘lish, matn bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodda saqlash, so‘zlab berish, fikrini erkin holda bayon etish hamda dars mobaynida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarni baholay olishga qaratilgan metodlardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalardan foydalanib, o‘tilgan darsda o‘quvchilar o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyish qilishga erishadilar, jamoa bilan ishlash malakasiga ega bo‘ladilar, o‘zgalar fikrini hurmat qilishni o‘rganadilar. Bu esa, darsning samaradorligini oshirib, ta’lim sifatini kafolatlashga xizmat qiladi. Ana shu manoda darslarda ko‘proq o‘quvchilarni ishlashga undaydigan innovatsion texnologiyalarni qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari.
2. Boymurodova G. va boshqalar. 3-sinf o‘qituvchilari uchun ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha metodik qo‘llanma. - Toshkent: Sharq, 2016.
3. Zaripov K. Yangi pedagogik texnologiyani tatbiq etish bosqichlari.
4. Yo‘ldoshev J. Yangi pedagogik texnologiya.
5. www.ziyouz.com



TA'LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA

Qudratova Nilufar Rafiqovna
Rahimova Muqaddas Ramazonovna
Rahmonova Nodira Jamolovna
Bahronova Feruza Shavkatulloevna
Tog'oyeva Dilorom Zaynitdinovna,
Buxoro viloyati Vobkent tumani
3 – maktabning o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik texnologiya tushunchasi, uni ta'lim jarayonida qo'llash samaralari, ta'lim tizmiga kirib kelayotgan yangiliklar va pedagoglarni qilishi zarur bo'lgan ishlari haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, dars, pedagogika, texnologiya, ilmiy, metod, o'qitish texnologiyasi, o'quvchi, bilim, ko'nikma, ta'lim-tarbiya, yangilik, pedagog.

Ta'lim jarayoni nihoyatda murakkab jarayon bo'lganligi uchun ta'lim samaradorligi pedagog va o'quvchi faolliligiga, ta'lim vositalarining mavjudligiga, ta'lim jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga bog'liq.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy tuzilmalar yaratilayotgan hozirgi kunda keng, chuqur bilimli va bilimlarni amalda qo'llay oladigan shaxslarga talab kuchayib bormoqda. Bilimdon va tadbirkor, ijtimoiy faol shaxs jamiyat hayotida, mehnatda o'zining o'rnini topadi. Bunday faollik vujudga kelishi uchun bilimdon va harakatchan, milliy istiqlol g'oyasiga sodiq bo'lgan shaxsni shakllantirish kerak va avvalo har tomonlama rivojlangan, sog'lom fikr yuritadigan, jahon yoshlari bilan har sohada raqobatbardosh, ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalamoq zarur.

Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining ilg'or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o'qituvchi tomonidan yaratiladi, ta'lim-tarbiya bosqichlarini o'zaro bog'lashga xizmat qiladi. Uning mazmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta'lim tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchida shakllantirish ko'zda tutilgan ma'naviy sifatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Ta'limning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, u yoshlarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatsin. Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati o'quvchilarni qiziqtirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishishdir. Ta'limda berilayotgan bilimlarni o'quvchilarning ko'pchilik qismi puxta o'zlashtirishi pedagogik texnologiya joriy etilishining asosiy maqsadi hisoblanadi. Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining mavjud qonuniyatlariga, mamlakatimiz rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga, tarixiy taraqqiyot tajribalariga asoslanadi. Pedagogik texnologiyani yaratish milliylik va muminsoniylik tamoyillariga, insonparvarlik va demokratiya prinsiplariga, ijodkorlik va tashabbuskorlikka tayanadi.

Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati nihoyatda kengayib, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o'zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli, vositalar ham mavjud bo'lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni aniq voqelikka aylantirdi. Pedagogik texnologiya mohiyat-e'tibori jihatidan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki ular ham boshqalari qatori o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga egadir. Biroq pedagogik texnologiya inson ongi bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish va axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos xususiyati – tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganidir.

Pedagogik texnologiya boshqa sohalaridagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz boyib boradi va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash avvalo, pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va demokratlashtirishni talab etadi, chunki ularni amalga oshirmay turib qo'llangan har qanday pedagogik texnologiya



kutilgan samarani bermaydi. Pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish, ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. An'anaviy o'qitish tizimi, aytish mumkinki, yozma va o'g'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli "axborotli o'qitish" sifatida tafsiflanadi, chunki o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib borayotganligini ta'kidlagan holda baxolanmoqda.

Bugunning har bir pedagogi har tomonlama rivojlangan, yetuk, barkamol avlodni tarbiyalab, davlatimizga munosib mutaxassis yetkazishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'yadi. Shunday ekan, u pedagogik texnologiyalar asosida darsni tashkil etish va ta'lim sifati, samaradorligini oshirishda o'z hissasini qo'shish zimmasidagi asosiy vazifalardan biri ekanligini unutmasligi lozim. "Texnologiya" tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan texnos- san'at, hunar va logos-fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topib, "hunar fani" ma'nosini anglatadi. Demak, texnologiya samaradorligi inson o'zining ko'p qirrali tomonlari bilan unda qanchalik to'liq namoyon bo'lyapti, uning psixologik-kasbiy jihatlari, ularning kelajakda rivojlanishi (yoki pasayishi) qanday hisobga olinyapti, degan savollarning yechimiga bog'liq ekan. Shu jihatdan olganda texnologiya shaxsning rivojlanish bosqichlarini loyihalashtirish, tashxislash kabi imkoniyatlarga ham ega bo'ladi. Bu esa pedagogning texnologik jarayon bilan ishlash qobiliyatiga bog'liq.

Ta'lim tizimiga yangiliklarni olib kirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kun ta'limi oldiga qo'yilgan muhim vazifalardandir. Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Pedagogik texnologiya mohiyat jihatdan boshqa texnologiyalar bir safda turadi, chunki ular kabi boshqalari ham o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga ega, ma'lum "material" bilan ish ko'radi. Biroq pedagogik texnologiyalar inson ongi bilan bog'liq bilimlar soxasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish, biologik xatto axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos tomoni – tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganligidir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga qo'llash har bir pedagogning vazifasidir, zero bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davr shuni talab qiladi. O'quvchilar esa bizning kelajagimiz, ularga mukammal bilim berish, ularni olam sir sinoatidan xabardor qilishimiz zimmamizga yuklatilgan. Pedagogik texnologiyalar ana shu jarayonda bizning eng yaqin ko'makchimizdir. Bu texnologiyani amalda qo'llash ta'lim maqsadini to'la amalga oshirish sari zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.A. Mavlonov, M. Arabova, G'. Salohitdinova "Pedagogik texnologiya" T. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. "Fan" nashriyoti. 2008.
2. J. G'. Yo'ldosheva, F. Yo'ldosheva, G'. Yo'ldoshev "Interfaol ta'lim sifat kafolati" T. 2008.
3. J. G'. Yo'ldosheva, F. Yo'ldosheva "Interfaol ta'lim sifat kafolati" T. "O'qituvchi" 2008.
4. G'oziev E. Pedagogik texnologiyaning psixologik asoslari. – «Xalq ta'limi», 1999- yil 6-son.
5. www.ziyonet.uz



TEMUR TUZUKLARI TAMOYILLARI ASOSIDA TALABALARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBİYALASH.

Samadov Vohih Tolibovich

Buxoro davlat universitetining Pedagogika
instituti 1-bosqich magistranti.

Anatatsiya: Buyuk davlat arbobi Amir Temurning “Temur tuzuklari” tamoyillari asosida oʻsib kelayotgan yosh avlodni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyashga doir keng maʼnodagi hikmatli soʻzlarida urfu-amallar bayon etilgan.

Kalit soʻzlar: Komillik, tarbiya, sadoqat, burch, ehtirom.

Zamonaviy komil insonni tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridandir. Komil inson tarbiyasida ajdodlarimiz pandnomalari, oʻgʻitlari muhim ahamiyatga ega.

Buyuk davlat arbobi Amir Temurning “Temur tuzuklari” mana shunday pandnomalardan boʻlib, unda podsholarning turish turmushi, axloq-odob normalari haqida fikrlar bayon etilgan. Risola ikki qismdan iborat: birinchisi, Temur hayoti, ikkinchisi, vorislarga atalgan vasiyat va pand-nasihatlari.

«Temur tuzuklari»da davlat idorasi, fuqarolarga munosabatda adolat va diyonat mezonlariga amal qilish, yurt tinchligi va obodligi bosh gʻoya sifatida ilgari surilgan. Amir Temurning parokanda xalqni birlashtirib markazlashgan davlat tuzish haqidagi fikrlari asosida mamlakat obodligi, xalq osoyishtaligini taʼminlashga yoʻnaltirilgan bunyodkor gʻoyalar paydo boʻlgan.

Bu gʻoyalar Temuriylar davlati gʻoyaviy tamoyillarining ustivor yoʻnalishi edi. Amir Temurning bunyodkorlik gʻoyalari va amaliy faoliyati katta ahamiyatga ega boʻlib uning asosiy maqsadi bunyodkorlik va yaratuvchilik edi.

«Temur tuzuklari»da: «Agar fuqarodan birining uy-imorati buzilib, tuzatishga qurbi yetmasa, kerakli uskunalarni yetkazib berib, unga yordam berilsin», degan fikrlar bayon etilgan. Sohibqiron oʻz bunyodkorlik maqsadiga erishish uchun sobitqadamlik bilan harakat qilgan. Uning «Temur tuzuklari»da «Biror ishni bajarishni oʻylasam butun zehnim, vujudim bilan bogʻlanib, bitirmagunimcha undan qoʻlimni tortmadim», degan fikrlari bugun sham oʻz ahamiyatini yiqotmagan. Uning Movarounnahr, Xuroson va boshqa yurtlarda barpo etgan inshootlari, temuriylar sulolasi davridagi madaniyat, fan va adabiyot sohasidagi yutuqlari buning yorqin misolidir.

Amir Temur feodal tarqoqlik va oʻzaro nifoq avj olgan bir sharoitda xalqni oʻz gʻoyalari atrofida birlashtira olganligi temuriylar davlati bir necha asr mobaynida gullab yashnashi, ilm-fan rivojlanishiga yoʻl ochib berdi. «Men oʻz saltanatimni dini islom, tiyra va tuzuk asosida mustashkamladim, degan edi buyuk sarkarda, saltanatni boshqarishda uchragan har qanday voqea va ishni tuzuk asosida bajardim».

Amir Temur «Kim menga doʻstlik qilgan boʻlsa, doʻstligi qadrini unutmadim va unga muruvvat, ehson, izzatu ikrom koʻrsatdim» deb doʻstlikni yuksaklarga koʻtaradi. Doʻstlikning oʻziga xos qonuniyatlari borligini, doʻstlik faqat doʻstlik bilan qaytarilishini, oʻning zahirida sadoqat tushunchasi mujassam ekanligini taʼkidlagan. U insonlarni kechirimli, insonparvar, jasur va mard boʻlishga chaqiradi. Amir Temurning magʻlub boʻlgan Sulton Boyazidga koʻrsatgan ehtiromi uning insoniylik, bagʻrikenglik, kechirimli boʻlishdek fazilatlaridan dalolat beradi.

Amir Temur oqil va tadbirli sarkarda sifatida ishga tayinlash va ozod etishda adolat mezoniga amal qilgan. U vaʼdaga vafo har bir mard insoning burchi ekanligini taʼkidlaydi va shunday yozadi: «Men kimga vaʼda bersam, unga vafo qildim, har bir vaʼdaga xilof ish qilmadim. Men doimo vaʼdalarimni aniq bajarsam, shundagina odil boʻlishimni va hech bir kimsaga jabr yetkazmasligimni angladim».

Sohibqiron ilm ahlini qoʻllab-quvvatladi, insonlarga mehr muruvvat koʻrsatdi. «Har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqolar qurishni, musofir yoʻlovchilar uchun yil ustiga rabotlar bino qilishni, daryolar ustiga koʻpriklar qurishni buyurdim», deydi u.

Amir Temur oʻzidan keyingi avlodga «**Qudratimizga shak - shubshangiz boʻlsa, biz barpo etgan inshootlarga boqing**», «**Chaqaloqlarni yigʻlatmangiz, bolalarga ozor bermangiz - bu gunohi azim erur**», «**Sizlarga qoldirayotgan vasiyat va «Tuzuklar» ilmini oʻqing, aslo unutmang va tadbiriq eting**», deb murojaat qiladi.

Amir Temurning fikricha, «Davlat agar dinu oyin asosida qurilmas ekan, bunday saltanatni shukuhi, qudrati va tarkibi yoʻqoladi. Bunday saltanat yalangʻoch odamga oʻxsharkim, uni koʻrgan



har kimsa, nazarini olib qochadi. Yoxud kasu nokas tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigi – to‘sig‘i yo‘q uyga o‘xshaydi». Amir Temur «dinu oyin» deganda adolatli jamiyatni nazarda tutadi.

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, Amir Temur vatanimiz tarixida buyuk shaxs sifatida o‘chmas iz qoldirgan, ikkinchidan, Amir Temur ma’naviy qiyofasi badiiy adabiyotda yorqin ifodasini topgan bo‘lib, kishilar ma’naviyatini yuksaltirishga samarali ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. To‘rtinchidan, Amir Temur o‘g‘tlari avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Usmonov.Q O‘zbekiston tarixi. O‘quv qo‘llanma. 2008 y.
2. M.Y. Sa’dullayev va boshqalar. Harbiy tarix. T.: 2005 y.
3. Q. Usmonov O‘zbekiston tarixi. II qism T.: 2002 y.
4. Harbiy tarix (O‘quvqo‘llanma) «TDPU»,2017 y.
- 5.Temur tuzuklari. – T; 1991 y.
- 6.Amir Temur o‘g‘tlari. T., 1992 y.



ZAMONAVIY TO‘GARAKLAR FAOLIYATINING SHAXS RIVOJLANISHIDAGI PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Xudayberganov Dilmurod Tuxtabayevich

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Urganch filiali akademik litseyi yoshlar
bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari.

Bekchanova Adolat Sutonmuratovna

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Urganch filiali akademik litseyi psixologi.

Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Urganch filiali akademik litseyi to‘garak rahbari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy to‘garaklar faoliyatining shaxs rivojlanishidagi psixologik ahamiyati, ta’lim muassasalarida to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil etish, to‘garak rahbari va psixolog hamkorligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: To‘garak, to‘garak rahbari, psixolog, to‘garak a‘zosi, bilim, ko‘nikma, malakalar, hamkorlik.

XXI asrda insoniyatni yangicha yashashga majbur qilayotgan koronavirus pandemiyasi butun dunyoda ta’lim olish tarzini o‘zgartirib yubordi, desak xato bo‘lmaydi. Shu jihatdan bugungi kunda bolalarning bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil etishda ta’lim muassasalarida to‘garak mashg‘ulotlariga alohida e‘tibor berilmoqda.

Mazkur o‘zgarishlar, shubhasiz sizuz-bizga muayyan noqulayliklarni keltirib chiqardi. Biroq, pandemiya ta’lim sohasidagi yangi innovatsiyalarga sabab bo‘ldi. COVID-19 pandemiyasi globallashgan butun dunyodagi ta’lim tizimiga ta’sir ko‘rsadi. Biroq bu maktab va sinfdan tashqari ta’limni tashkil qilishda uzoq muddatli istiqbolda innovatsiyalar va raqamlashtirish ahamiyatini oshirdi. Shaxsni rivojlantirishdagi psixologik yosh qonuniyatlari, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo‘lib qolmoqda.

Bunday sharoitda asosli yechimlar, muammolarni ijodkorlik yo‘li bilan hal etish, ehtimol moslashuvchanlik katta ahamiyatga ega. Ana shu ko‘nikmalar barcha o‘quvchilarga ustuvor bo‘lishi uchun ta’lim tizimida ham moslashuvchanlik bo‘lishi lozim.

Ta’limi muassasalarida zamonaviy moslashuvchan to‘garak mashg‘ulotlari o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini namoyon etish imkoniyatini yaratadi. Ushbu to‘garaklar o‘quvchilarda tashabbuskorlikni, mustaqil ishlay olishni va ijodkorlik qobiliyatini o‘stirishga yordam beradi. O‘quvchi to‘garakda o‘z qiziqishi va istagiga ko‘ra biror-bir ishni o‘rganar ekan, to‘garak rahbari uni rag‘batlantirib turishi va to‘g‘ri ko‘rsatma berib borishi lozim.

To‘garak faoliyati davomida har bir o‘quvchida hayotga ijodiy munosabat va individual xususiyatlar taraqqiyotining ta’minlanganligi va psixologik xizmatning to‘g‘ri tashkil etilganligi bilan hamohang desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Umuman olganda, to‘garak - ma’lum bir bilim sohasiga qiziqishni kuchaytiradigan va amaliy faoliyat bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarning ixtiyoriy birlashmasidir. Pedagogika lug‘atiga ko‘ra, to‘garak ishlari bolalar uchun qo‘shimcha ta’lim shakllaridan biri bo‘lib, u turli xil to‘garaklar, seksiyalar va to‘garaklarni tashkil etishdan iborat bo‘ladi.

Ta’limi muassasalarida to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil etishda to‘garak rahbari va psixolog hamkorligini yo‘lga qo‘yish yaxshi samara beradi. To‘garak rahbari va psixolog o‘zlarining inson xulq-atvori va ruhiy faoliyati, ruhiy taraqqiyotning yosh qonuniyatlari haqidagi kasbiy bilimlariga, ularning o‘quvchilar va kattalar, tengdoshlari bilan o‘zaro munosabat xususiyatlariga, to‘garak faoliyati davomida o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishga bog‘liqligiga tayanib, bola uchun individual yondashuv imkoniyatlarini ta’minlaydi, uning qobiliyatlarini aniqlaydi, normadan chetlashishlar bo‘lishi mumkin bo‘lgan sabablarni psixologik-pedagogik korreksiya qilish yo‘llarini aniqlaydi. Bu bilan psixologik xizmat ta’lim muassasalarida to‘garak mashg‘ulotlarining mahsulдорligini oshirishga, ijodiy faol shaxsni shakllantirishga imkon beradi.

To‘garak rahbari va psixolog hamkorligi faoliyatining maqsadi o‘zlashtiriladigan faoliyat va birgalikdagi harakatlar, munosabat va muloqotning boshqarish mexanizmini yaratishdir. Ham-



korlikdagi faoliyatning mahsuli -talabalar-o‘quvchi mustaqil holda ilgari surgan yangi g‘oya va o‘zlashtirilayotgan faoliyatining mohiyatiga bog‘liq maqsadlar va sheriklikdagi shaxs pozitsiyasini boshqarish istaklarining yuzaga kelishidir.

Hozirgi psixologiyada mavjud hamkorlikning yettita shaklini to‘garak rahbari (o‘qituvchi) va to‘garak a‘zosi (o‘quvchi) faoliyatida qo‘llash mumkin hamda ular quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- 1) faoliyatga kirish;
- 2) mustaqil harakatlar (o‘qituvchi va o‘quvchi o‘zicha hal qiladi);
- 3) o‘qituvchi harakatni boshlab beradi va bunga o‘quvchini jalb qiladi;
- 4) taqlid harakatlari;
- 5) madad harakatlari (o‘qituvchi oraliq maslahatlarni berib boradi);
- 6) o‘z-o‘zini boshqarish harakatlari (o‘qituvchi maqsadni belgilab beradi va oxirgi natijani baholashda qatnashadi);
- 7) o‘zini-o‘zi qo‘zg‘atuvchi va uyushtiruvchi harakatlar.

Yosh psixologiyasida o‘quvchi shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tekshirish, o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorlikdagi va alohida faoliyatlarini tekshirish, talaba-shaxs psixologik xususiyatlarining ko‘pgina tomonlarini tekshirish hamda diagnostika qilish bo‘yicha bir muncha tajriba to‘plangan.

To‘garak mashg‘ulotlari jarayonida tinglovchilarga berilayotgan bilim, ko‘nikma va malakalarning chuqurroq, puxtarroq o‘zlashtirilishi uchun pedagogik va axborot texnologiyalari vositalari: muammoli vazifalar, tarqatma materiallar, slaydlar, multimediya, elektron darsliklardan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Ta’lim muassasalarida o‘quvchilar to‘garaklarni o‘zlari erkin tanlashi, bir vaqtning o‘zida bir necha to‘garakka qatnashishi va qiziqishiga ko‘ra to‘garakni almashtirishi mumkin. Bu kelajakda o‘quvchilarning biror-bir kasbni tanlashida hal qiluvchi boshlang‘ich pog‘ona vazifasini o‘taydi. To‘garak rahbari to‘garak mashg‘ulotida samaradorlikka erishish uchun to‘garak mashg‘uloti ishlanmasiga alohida e’tibor qaratishi, uni zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida tuzilishi lozim. Bunda to‘garak rahbari oldiga qo‘ygan maqsadga xolisona, o‘quvchilarni tushunishi uchun uning soddaligiga alohida e’tibor berish kerak.. Mashg‘ulotlar dasturning mavjudligi, muntazamligi, vaqt davomiyligi va ishning o‘ziga xosligi pedagogik-psixologik jarayon bilan tavsiflanadi.

Zamonaviy to‘garak o‘quvchilar qiziqishlariga asoslanib, ixtiyoriy ravishda tanlangan faoliyatning shaxs uchun muhim qadriyatlarga asoslangan, individual tajribasini o‘zlashtirish sohasiga aylandi. Zamonaviy to‘garaklar faoliyatining asosi jismonan sog‘lom, ma’nan yetuk, mustaqil fikrlaydigan, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalash bo‘lish lozim. Zero, o‘quvchi-yoshlarda yuksak ma’naviy fazilatlarini kamol toptirish, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, kasb-hunarga yo‘naltirish orqali mustaqil hayotga tayyorlash va intellektual shaxs kamolotining bir vositasi sifatida zamonaviy to‘garaklar faoliyatining to‘g‘ri tashkil etilishiga bog‘liq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Innovatsion ta’lim texnologiya seriyasi. – T.: Iqtisodiyot, 2011.
2. Tolipov O‘.Q., Sharipov Sh.S. va b. Darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘llash texnologiyasi. - T., 2004.
3. Sharipov Sh.S. Kasb-hunar ta’limi tizimida o‘quvchilar to‘garak ishlarini tashkil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishning uzluksizligi. Monografiya. –Toshkent: «FAN», 2005.
4. <http://www.kun.uz>
5. <http://www.pedagog.uz>
6. <http://www.ziyounet.uz>
7. <http://www.google.com>
8. <http://infourok.ru>



ТУРЛИ ЛИСОНИЙ ТУЗИЛМАЛАР ТАДҚИҚИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

А.Мусаев,

корақалпоқ давлат университети
ассистент ўқитувчиси, тел: 999544024

***Калит сўзлар:** феъл семантикаси, лексик-семантик, концептуал структура, аспектлар, кластерлар, структуралар*

Феълларни тадқиқ қилиш ўз ичига феълларнинг лексик-семантик ва грамматик жиҳатларини ёритиш асосан феълнинг синтагматик хусусиятларини ўрганиш билан уйғунликда олиб борилади. Тилшуносликда тилнинг функционал томони унинг тузилиши ва ривожига таъсир кўрсатиши кўпгина томондан тан олинган, зеро тил нутқда яшайди ва ривожланади¹. Демак тилнинг ривожланиши унинг функционал томони билан ҳам боғлиқ. Тил функционалликда муҳим ўрин тутган феъл бошқа сўз туркумларига нисбатан полисемиялиги, шакл ясадаги турлилиги, бойлиги, бирикмалар ҳосил қилиши ва улардаги маъноларни фарқлаши ҳамда маъно ўзгартира олиш хусусиятлари билан фарқ қилади.

Феъл семантикаси тилда мавжуд бўлган барча воситалар билан синтактик-семантик муносабатда бўлади. Феъл билан бирикадиган барча сўзлар ва синтактик воситалар феъл лексемасининг реалликдаги маъноларини очиқ беради. Т. Лайфринк “сўз” тирик ҳодиса ва тилда яқка ҳолда келмайди², дея таъкидлайди. Албатта, ҳар бир лексик бирликнинг синтактик сатҳда грамматик категориялар маънолари ўзгаради. Маълумки сўз, шунингдек гапда, нутқда турли вазифаларда, ҳар хил функцияларни бажарган ҳолда келади. Ҳар қандай лисоний бирликнинг гап таркибида, нутқда фаоллашувида синтагматик дифференциал белгилари ҳамда грамматик шакллари ўзгариб боради. Тилдаги ушбу семантик-синтактик маъноларининг ўзгариши, феълларнинг бошқа бирликлар билан бирикиши ва грамматик шаклларга боғлиқ ҳисобланади. Бизга маълумки, феъл семантикаси бошқа лексик грамматик синфларга қараганда, гапда, нутқда синтагматик боғланиши анча бой бўлиши билан бир қаторда, гапдаги грамматик воситаларнинг семантикасининг бошқарилишига, маънолар мазмунининг ўзгаришига олиб келади. Феълларнинг маълум бирликлар билан бирикиб тузилма тарздаги маъноси семантик майдонининг кенглигини кўрсатади. Тузилмаларнинг гапдаги маъноси турли-туманлилиги феълга бирикадиган тўлдирувчининг маъно тузилишига боғлиқ. Демак, феъл тузилишининг таҳлили лексик-грамматик микросистемада, контекст муносабатида таҳлил қилиниши нафақат тузилмаларнинг функционал хусусиятлари, балки объектив реаллик маънолари, нутқнинг маъно ва мазмунини ўзгаришидаги фарқларини ёритиб беришга хизмат қилади. Феълларнинг лексик-семантикасининг таҳлили полисемантик масалаларини очиқ беришда, семантик-синтактик майдондаги таркибланиши, тузилмалар шаклланишидаги вазифалари ва морфологик белгилар ўртасидаги муносабатларни белгилашда муҳим ўрин тутди.

Қорақалпоқ тилида феъллар асосан умумий ҳаракатни ифодаловчи сўз туркуми деб саналгани билан, унинг лексика-семантик жиҳатлари жуда кенг ва уларнинг семантикасини конкрет санаб утиш жуда қийин. Шунинг учун феълларнинг асосий лексика-семантик гуруҳин белгилаб ўтишимиз мумкин. Улар асосан қуйдаги лексика-семантик гуруҳларга бўлишимиз мумкин: 1) ҳаракат феъллари, 2) ҳаракат-ҳолат феъллари 3) сезиш-ойлаш феъллари 4) гапириш феъллари 5) психологик процесга ва эмоцияга боғлиқ феъллар 6) еликлеў феъллари 7) биологик процесга боғлиқ феъллар 8) табиатга боғлиқ феъллар³.

Қорақалпоқ тилидаги феъллар юқорида кўрсатиб ўтилган асосий лексика-семантик гуруҳларга бўлинишига қарамастан, бирнеча кўчирма маънога эга бўлиши ва бошқа лек-

1 Панфилов В. З. Философские Проблемы языкознания. Москва, 1977. с.6.

2 T. Laifrink. Semantiko-syntax. London, 1972. p.8.

3 Даулетов М., Дауенов Е., Бекбергенов А., Ҳазирги қарақалпоқ адабий тилининг грамматикаси. Нөкис: «Билим» - 1994. 179-181 б.



сика-семантик гуруҳга кўчиши мумкин. Масалан, қорақалпоқ тилидаги *тўсиў, салыў* феъллари лексика-семантик тарафидан ҳаракат гуруҳга тегишли. *Тўсиў* феъли ҳаракатнинг тепадан пастга буладиган ҳаракат маъносини билдиради. *Салыў* феъли ҳаракатнинг объектга қаратилганини билдиради. Иккинчидан бу феъллар ҳаракат маъносидан кўчиб, иккинчи бир лексика-семантик гуруҳ – сезиш феъллар гуруҳига кўчади: *көзи түсти, көз салды* сўз бирикмаларида *түсти, салды* феъллари *қаради* деган маънода ишлатилади.

Феъллар лексик-семантикасининг таҳлили полисемантик масалаларни очиб беришда, семантик-синтактик майдондаги таркиби, иширокчилар ўртасидаги муносабатларни белгилашда муҳим ўрин тутди. Таниқли ўзбек тилшунос олимлари Р.Расулов, С.Мухамедовалар ҳам мақолаларидан бирида сўз маъноси хусусида ўз фикрларини билдириб ўтишади: “Сўзнинг маъноси, маъно таркиби мантиқий бўлаклардан ташкил топади. Сўзнинг маъно тузилишини ўрганиш, сўз маъносининг мантиқий бўлақларини аниқлаш, таркибий қисмларнинг хилларини белгилаш, ҳар бир семанинг маъно (сема) таркибидаги ўрни, аҳамиятини ёритиш, бошқа семаларга бўлган муносабатини очиш маънолар орасидаги мантиқий алоқани топишдир. Шунга кўра, сўзларнинг ўзаро парадигматик ва синтагматик муносабатларга киришиш, сўзлар қаторини тузиш, парадигматик муносабатдаги сўзларни бир-биридан фарқлаб турувчи семаларни аниқлаш, топиш имконини беради (Р.Расулов, С.Мухамедова; 2002, 26-29).

Кейинги даврда лингвистикада шакл ва маъно ўртасидаги муносабатлар тилшунослар эътиборида бўлиб келмоқда. Аммо замонавий тилшуносликда учинчи соҳа, денотат ҳам ўз ўрнини эгаллаб бормоқда. Денотат – Фрегенинг таъкидлашича, бу маънонинг тил ифодаси шаклигагина бўлган муносабат эмас балки, объектга бўлган муносабатни билдирувчи концепт сифатида қаралади. Бунинг натижасида вазиятнинг концептуаллашуви тушунчаси ҳам юзага келди. А.Вежбицкойнинг “семантическая структура” (высказывания, предложения, текста) атамаси билан бир қаторда “концептуал структура” атамаси ҳам пайдо бўлди. Концептуал структура реалликдаги тил концептуаллашувининг бир фрагменти ҳисобланади. Концептуал структура атамаси реаллик ва унинг тилда акс этишини таъкидловчи маънони ифодалайди.

Феъл семантикаси тилда мавжуд бўлган барча воситалар билан синтактик-семантик муносабатда бўлади. Феълни ўраб турган барча сўзлар ва синтактик воситалар феъл лексемасининг реалликдаги маъноларини очиб беради. Лайфринк таъкидлаб ўтганидек, бўлак сўз тирик, табиий тилда изоляцияланган ҳолда келмайди. Албатта ҳар бир лексик бирликнинг синтактик сатҳда грамматик категориал маънолари ўзгаради. Маълумки сўз, шунингдек гап нутқда кўчирма ҳолатда ёки ўзлаштирма шаклда келади. Кўчирма гапнинг ўзлаштирма гапга ўзлашганида баъзи сўз ва гапларнинг нутқдаги синтагматик дифференциал белгилари ҳамда грамматик шакллари ўзгариб боради.

“Аспектуал кластерлар” аспектуал полисемияларнинг кўрсаткичларининг модели сифатида дунёнинг кўплаб тилларида тарқалган бўлиб, уларни қуйидагилар ташкил этади; имперфектив (дуратив ва хабитуалис маъноларини ўз ичига олади), перфектив (пунктив, комплетив, инцептив ва лимитатив маъноларини маъноларини ўз ичига олади), инкомплетив (результатив ва прогрессив маъноларини маъноларини ўз ичига олади), фактатив (перфектив ва дуратив маъноларини маъноларини ўз ичига олади), антирезультатив (тугалланмаган результатив маъноларини маъноларини ўз ичига олади) ва бошқалар. Шундай қилиб аспектуал кластерлар аспектнинг универсал-типологик модели сифатида хизмат қилади. Дунёнинг тил харитасида аспектуалликнинг асосий масалалари сифатида қуйидагилар қаралади: аспектуал кластерларнинг мураккаб семантик тузилиши; аспект оппозициясининг морфологик кўрсаткичларининг бир хил кўрсаткичга эга эмаслиги; аспект оппозициясини ташкил қиладиган сўзларнинг таснифланиши (феъл лексемаларини акционал (чегараланган/ чегараланмаган) гуруҳларга ажратиш) муаммолари; аспектуал синфларни таснифланишида суффиксиал ва аналитик шаклларнинг номутоносиблиги; аспектуал маъноларни талқин этишда бутун предикатциянинг семантикаси; аспектуал семантиканинг таснифланишида аспектуал вазиятларнинг ўрнини белгилаш; перфектив ва имперфективликнинг семантик



фарқланиши; аспектual семантиканинг когнитив-прагматик жараён сифатида дунё тилларининг ўзига хос хусусиятларининг намоён бўлиши.

Тил тизимидаги структуралаш ва қайта ишлаб чиқиш маълум фундаменталь категорияга асосланган ҳолда амалга оширилади. Мисол учун объект, субъект, ҳаракат, муносабат, макон, вақт ва бошқа шу каби белгилар ҳар бир когнитив системада бирикиб, ўша системага хос бўлган фреймларни ҳосил қилиши мумкин. Барча фреймлар ҳам берилган система учун специфик (ўзига хос, тегишли) бўлмаслиги мумкин, аммо уларнинг инвентари ушбу вазиятга мос келиши мумкин.

1) феълнинг лексик маънолари лексиканинг систем таҳлили доирасида семантик компонентлар жамланмаси сифатида ўрганилади;

2) феъл маънолари функционал-семантик майдонда концептуал таҳлил методи ёрдамида ўрганилади ва унинг категориал белгилари аниқланади.

Мазкур тематик бўйича тадқиқотлар натижаси қуйидаги асосий йўналишларини аниқлайди:

1. феълларнинг лексик бирликларини системали компонент таҳлил доирасида уларнинг лексик маъноларини ўрганиш;

2. ҳиссий қабул қилиш феълларининг категориал семантикасини концептуал таҳлил этиш орқали уларни функционал хусусиятларини ўрганиш.

Феъл лексикасининг семантик аспектда таснифлашда тилшунослар асосан учта принципга асосланиб амалга оширишади: 1. денотатив (ёки тематик), 2. парадигматик, 3. синтагматик. Шунингдек, психоллингвистик тажрибада ассоциатив принцип ҳам кенг қўлланилади¹. Қўриладиган парадигматик тасниф деривацион асосли ва аниқ оппозитив хусусиятга эга бўлиши, предикатив ва структура таркибидаги алоқадорликни очиб бериши муҳим ўрин тутди.

Тилшуносликда гапнинг ташкил этувчиси сифатида асосий эътибор феълга қаратилади, чунки унинг семантик моҳияти ёки семасиологик ўзаги замон ва вақт билан биргаликда намоён бўлади. Бундан ташқари, феъл динамик белги сифатида қаралади (В.Л. Егоров; 1989, 86). Гапдаги қолган бўлақлар, яъни эга, тўлдирувчи, ҳол кабилар феъл ҳаракати билан узвий боғлиқ ҳолда амал қилади. Гапдаги ҳар бир иштирокчи бирлик феъл ҳаракатининг ифодаланишида, семантик фарқланишида, феъл маъноларининг бойишида муҳим ўрин тутди. Таниқли рус тилшуноси А.М. Пешковский феъл тўғрисида қуйидаги фикрни келтиради: “Феъллар - бу “тирик” сўзлар, улар ўзларига яқинлашган барча сўзларни жонлантиради” (А.М. Пешковский; 1974, 96-99). Келтирилган ушбу фикрдан келиб чиқадиган бўлсак, феъл контекст таркибидаги ҳар қандай сўзнинг маъносини ўзгартиришга қодир. Феълнинг лексик-грамматик маъносига қараб эга вазифасидаги субстант ҳаракат бажарувчиси, ҳаракат бошқарувчиси, ҳаракатни қабул қилувчи бўлиши мумкин.

Тадқиқотчилар томонидан феъл, феъл категориялари, феъл бирикмаларининг таҳлилида ҳар хил сатҳларда турлича ёндашилиши мазкур объектнинг трансформацион ва деривацион хусусиятларини очиб бериш билан бир қаторда, тадқиқотнинг тилшуносликнинг турли йўналишлари доирасида ҳам олиб борилиши имкониятига эга эканлигини кўрсатади. Бунинг исботи феълнинг антропологик, психологик, когнитив ва бошқа тилшунослик сатҳларида ўрганилишида намоён бўлади. Умуман олганда, феълларнинг лексик, лексик-семантик, лексик-грамматик, функционал-семантик нуқтаи назардан таснифланиш имкониятининг кенглиги ушбу категориянинг келтирилган соҳаларда тадқиқ этилишининг сабабларидан бири деб ҳисоблаш мумкин. Кўпгина ҳолларда туб маъноли феъллар модал, таксис, каузатив, пассив, бенефактив, аспектual, темпорал, инкор” (А.К. Оглоблин, В.С. Храковский; 2001, 9-17) грамматик категорияларни ташкил қилади.

Маълумки, феъл семантикаси тилда мавжуд бўлган барча воситалар билан синтактик-семантик муносабатга киришади. Феъл билан модификациялашадиган барча тил бирликлари ва синтактик воситалар лексеманинг аниқ маъноларини очиб беради. Албатта, ҳар бир лексик

1 Васильев Л.М. Семантика русского глагола. Москва «Высшая школа» 1981 –С 39.



бирликнинг синтактик сатҳда категориал маънолари ўзгаради, лексик-семантик маънолар бойийди. Сўз ва гапларнинг нутқдаги синтагматик дифференциал белгилари ошиб боради. Тилдаги ушбу дифференциал белгиларнинг, семантик-синтактик маъноларнинг ўзгариши, феълларнинг қўлланилишига боғлиқ. Бу когнитив жараённинг маҳсули бўлиб, ҳар бир тилда ўша тил соҳибларининг мулоқот имкониятлари доирасида амалга оширилади. Бизга маълумки, феъл семантикаси бошқа лексик-грамматик синфларга қараганда, гапда, нутқда синтагматик боғланиши самаралироқ бўлиши билан бир қаторда, маънолар мазмунининг ўзгаришига олиб келади. Феълларнинг лексик-семантик майдони хилма-хил синтактик шакл ясаиши, гап семантикасининг турли-туманлилиги билан бошқа сўз туркумларидан ажралиб туради. Феълларнинг кўп маънолиги масалаларини очиб беришда, семантик-синтактик майдондаги структуравий компонентлар ўртасидаги алоқаларни аниқлашда функционал-семантик майдон муҳим ўрин тутди.

Адабиётлар:

1. Панфилов В. З. Философские Проблемы языкознания. Москва, 1977. с.6.
2. T. Laifrink. Semantiko-syntax. London, 1972. p.8.
3. Даулетов М., Дәуенов Е., Бекбергенов А., Ҳазирги қарақалпақ әдебий тилиниң грамматикасы. Нөкис: «Билим» - 1994. 179-181 б.
4. Васильев Л.М. Семантика русского глагола. Москва «Высшая школа» 1981 – с.39



РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Вафина Альфия Ильгизовна

Учитель начальных классов специализированной
государственной общеобразовательной школы № 3
города Ургенч Хорезмской области

Аннотация: В данной статье написано о том, что такое творчество, какую роль оно играет в развитии творческих способностей младших школьников.

Ключевые слова: школа, творчество, ученики, творческие способности, творческий интерес, творческое мышление, творческая личность, творческий потенциал, задача.

В процессе обучения учащиеся должны не только овладеть установленной системой научных знаний, умений и навыков, но и развивать свои познавательные способности и творческие силы.

Для этого необходимо, чтобы в школе особое место занимали такие формы занятий, которые обеспечивают активное участие в уроке каждого ученика, повышают авторитет знаний и индивидуальную ответственность школьников за результаты учебного труда. Эти задачи можно успешно решать через технологию игровых форм обучения.

Ученики начальной школы не могут учиться «для самих себя». Иногда они учатся за отметку, иногда за похвалу, иногда за подарки. Но любому из этих мотивов приходит конец. Поэтому учителю необходимо формировать учебную мотивацию на основе творческого интереса. Ребенку должна нравиться его деятельность, и она должна быть ему доступна.

Перед современной школой стоит очень важная задача – подготовка подрастающего поколения к жизни в быстро меняющемся информационном обществе и мире, в котором ускоряется процесс появления новых знаний, постоянно возникает потребность в новых профессиях, в непрерывном повышении образования. И ключевую роль в решении этих задач играет компетенция современного человека, которая направлена на развитие творческого мышления учащихся. И эффективность работы школы в данном направлении определяется тем, в какой мере учебно-воспитательный процесс обеспечивает развитие творческих способностей каждого ученика, формирует творческую личность школьника, готовит его к творческой познавательной и общественно-трудовой деятельности. Главной целью школы в современных условиях является разностороннее развитие детей, их познавательных интересов, обще учебных умений, навыков самообразования и, конечно, творческих способностей. Наше время — это время перемен. Сейчас нужны люди, способные принимать нестандартные решения, умеющие творчески мыслить. Школа должна готовить детей к жизни. Поэтому развитие творческих способностей учащихся я считаю, одной и важнейшей задач, стоящих перед современной школой. Этот процесс пронизывает все этапы развития личности ребенка, пробуждает инициативность и самостоятельность принимаемых решений, привычку к свободному самовыражению, уверенность в себе.

Сегодня многие педагоги уже осознают, что истинная цель обучения — это не только овладение определенными знаниями и навыками, но и развитие воображения, наблюдательности, сообразительности и воспитание творческой личности в целом. Как правило, отсутствие творческого начала зачастую становится непреодолимым препятствием в старших классах, где требуется решение нестандартных задач. Творческая деятельность должна выступать таким же объектом усвоения, как знания, умения, навыки, поэтому в школе, особенно начальной, нужно учить творчеству. Для того, чтобы богатый творческий потенциал детей мог актуализироваться, нужно создать определенные условия, прежде всего, ввести ребенка в настоящую творческую деятельность. Ведь именно в ней, как давно утверждает психология, из предпосылок рождаются и развиваются способности.

Младший школьный возраст является очень важным периодом в становлении ребёнка, в развитии его мыслительных процессов, интенсивном формировании творческой активности, умении учиться. Детский возраст открыт и восприимчив к чудесам познания, к умению удивляться. Психологические особенности младших школьников, их природная любознательность, отзывчивость, особая расположенность к усвоению нового, готовность воспринимать всё, что дает учитель, создают благоприятные условия для развития



творческой деятельности.

В истории педагогики проблема творчества всегда была одной из самых актуальных. Однако до сих пор проблема остаётся наименее изученной в теории и недостаточно представленной в практике воспитания детей. Это обусловлено сложностью данного явления, скрытностью механизмов творчества. Как правило, во всех определениях творчества отмечается, что творчество – это деятельность человека, направленная на создание нового, оригинального продукта в сфере науки, искусства, техники, производства и организации. Творчество по природе своей основано на желании сделать что-то, что до тебя ещё никем не было сделано или сделать по-новому, лучше. Психологи давно пришли к мнению, что все дети обладают самыми разнообразными творческими способностями. Творческие потенциалы заложены и существуют в каждом человеке. При благоприятных условиях каждый ребёнок может проявить себя. Бесталанных детей нет. Задача школы состоит в том, чтобы выявить и развить эти способности в доступной и интересной деятельности.

Творчество – очень важный момент в развитии ребёнка. Хорошо, когда ребёнок видит красоту и разнообразие окружающего мира. Но ещё лучше, если он не только замечает эту красоту, но и творит её. Полученный результат эстетически эмоционально привлекателен для ребёнка, поскольку ту или иную милую вещь он сделал сам. После того, как ребёнок своими руками начнёт создавать красоту, он непременно начнёт с любовью и заботой относиться к нашему миру. И любовь и гармония войдут в его жизнь. Творчество – это постоянное усовершенствование своей личности, мышления, сознания, интеллекта и постоянная устремленность совершать нечто новое, делать больше и лучше, чем раньше. В творческой деятельности человек развивается, приобретает социальный опыт, раскрывает свои природные дарования и способности, удовлетворяет интересы и потребности. Творческая личность – это национальное достояние и истинное богатство страны. Творческая личность от других отличается стремлением выходить за пределы норм.

Творчество предполагает наличие у человека определенных способностей. Творческие способности не развиваются стихийно, а требуют специального организованного процесса обучения и воспитания, пересмотра содержания учебных программ, разработки процессуального механизма реализации этого содержания, создания педагогических условий для самовыражения в творческой деятельности. Одной из главных задач, стоящих перед школой, является создание оптимальных условий для развития каждого учащегося в различных видах деятельности.

Ученики должны принимать самое активное участие в конкурсах, соревнованиях. Надо привлечь к участию и детей со средними способностями. Главное дать возможность детям поверить в свои силы, получить удовлетворение и радость от своего труда, почувствовать вкус учёбы и прелесть победы над собой. Создание среды, обеспечивающей активизацию социальных, интеллектуальных интересов учащихся, развитие творчески растущей личности, подготовленной к жизнедеятельности в новых условиях, способной на социально значимую практическую деятельность. Разнообразие организационных форм и учёт индивидуальных особенностей каждого обучающегося обеспечивает рост творческого потенциала, познавательных мотивов, обогащение форм взаимодействия со сверстниками и взрослыми в познавательной деятельности.

Список использованной литературы

1. Шликенё Т.Н. Метод проектов как одно из условий повышения мотивации обучения учащихся.
2. Ермолаева М.Г. Интерактивные методики в современном образовательном процессе.
3. Т.А.Козлова «Методические рекомендации», Методические пособие.
4. И.Р.Гайнутдинова, Г.В.Эйгелис «Основы педагогики».
5. Интернет ресурсы.



МУСИҚА МАДАНИЯТИ ДАРСЛАРИДА МУСИҚА САВОДИ ЎРГАТИШ МЕТОДИКАСИ.

Ибрагимова Нилуфар Адхамовна

ГулДУ “Муסיқий таълим”

кафедраси катта ўқитувчиси

Телефон: +998972480575

Аннотация: Муסיқа инсон ҳаётида алоҳида ўрин тутати. Муסיқа санъати – нафосат тарбиясининг муҳим омили бўлиб, ёш авлодни камолотга етиши учун таъсир этувчи жараён. Бу жараён мактабдан бошлаб шаклланади ва ёш авлоднинг ички дунёсини бойитиб, бутун ҳаёти мобайнида унга ҳамроҳ бўлиб боради. Ушбу мақола муסיқа маданияти дарсларини муסיқа саводи билан чамбарчас боғлаб ўтиши ҳақида.

Калит сўзлар: Муסיқа саводи, гармоник эшитиш, хор овозлари, товуш, нота ёзуви, метр, ритм.

Муסיқий билимларни ўзлаштириш деганда биз муסיқага оид бўлган барча билимларни ўзлаштиришни тушунамиз. Хусусан:

- 1) Муסיқа саводи (муסיқа назариясининг бошланғич билимлари);
- 2) Муסיқа тинглаш ва таҳлил қилиш;
- 3) Жамоа бўлиб қўшиқ куйлаш;
- 4) Муסיқий ижодкорлик (муסיқага мос ҳаракатлар қилиш, болалар чолғу чолғуларида чалиб, муסיқага ритмик жўр бўлиш).

Муסיқа дарсининг асосий хусусияти шундаки, муסיқа таълимининг тўрт фаолияти мустақил жараён бўлиши билан бирга, уларни бир-бири билан узвий алоқада, ўзаро боғлиқ равишда олиб бориш керак. Ушбу жараёнларни ўқувчилар томонидан ўзлаштирилиши, уларнинг ижодий шахс бўлиб етишишларига замин яратади.

Муסיқа дарси ҳар хил муסיқий назарий фаолиятларни ўз ичига олади: ашула айтиш (вокал хор тарбияси, сольфеджио), муסיқанинг элементар назарияси (муסיқа саводи), муסיқа тинглаш, муסיқа таҳлили, муסיқа адабиёти, муסיқа остида ҳаракатлар бажариш.

Муסיқа ўқитувчиси ҳар томонлама етук билимга эга бўлиши лозим. Муסיқа ўқитувчиси авваламбор, муסיқа назариясини, яъни муסיқа саводидан 1-ўринда хабардор бўлиши лозим. Назария билан амалиёт ўзаро бир-бирига боғлиқ бўлиб, улар доимо биргаликда фаолият юритадилар. Муסיқа ўқитувчиси шуни билган ҳолда болаларга авваламбор, муסיқа саводини ўргатиши лозим.

Муסיқа саводи муסיқанинг мазмунини тушиниб олишга ёрдам беради, энг муҳими эса нотага қараб куйлаш ва ашула айтиш малакаларини ҳосил қилиш, гармоник эшитиш қобилиятини ўстиришга таъсир кўрсатиш, хор овозларини аниқ талаффуз этишга ва хор билан ижро этиш сифатини оширишга қулайлик туғдириш йўли билан синфда қўшиқлар ўрганишни осонлаштиради.

Муסיқа саводини ўргатиш болаларнинг муסיқа товушларини эшитиш сезгиларининг ўсишига асосланиши керак. Ўқувчи бирор товушни овоз билан эсга туширишидан олдин унинг қандай янграшини аниқ-равшан тасаввур қилиши ва эшитиб билиши, яъни кўряпман-эшитяпман-куйлаяпман деб, кўзга кўринадиган нарсадан эшитиладиган нарсага қараб бориши лозим. Кўпчилик бўлиб қўшиқ айтишда ҳам, муסיқа саводини ўрганиш жараёнида ҳам эшитиш қобилияти, метр-ритм сезгиси тараққий этади.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, муסיқа саводидан хабардор бўлган ўқувчи янада муסיқа асарларини севиб эшитадилар ва куйлайдилар. Ўзлари мустақил назарияни билган ҳолда, бирор бир куйни ёки асбобни ўрганишга интиладилар.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Каримова Д. “Муסיқий педагогик маҳорат асослари” Т., “Иқтисод-молия” 2008.
3. Соипова Д. “Муסיқа ўқитиш назарияси ва методикаси” Ўқув методик қўлланма. Т., 2009



ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИ САМАРАДОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ПЕДАГОГИК КРЕАТИВЛИК ВА УНИНГ ЗАРУРИЯТИ

Сарибоева Шахноза Мусурмоновна

Сирдарё вилоят Гулистон шаҳар

ГулДУ “Педагогика психология” 2-курс магистр

Аннотация: Ушбу мақолада таълим жараёни самарадорлигини таъминлашда педагогик креативлик ва унинг зарурияти, педагогларда креативлик сифатларини ривожлантириш улар томонидан педагогик, психологик ҳамда ўқитиладиган фанлар асосларидан тўла хабардор бўлиш, улар томонидан ўзлаштирилган билимларни амалиётда фаол қўллай олиш кўникма ва малакаларини шакллантириш масалалари хусусида мулохаза юритилган.

Калит сўзлар: Таълим сифати, креативлик, малакали мутахассис.

Ҳозирги кунда маҳоратли кадрларни тайёрлашда креативликка кучли урғу берилмоқда. Бу қобилиятни ривожлантириш инсондан анчагина саъй-ҳаракатлар талаб этилади. Креативлик сўзи нима Креативлик (инглизча “create” яратиш, “creative” яратувчи, ижодкор)- бўлажак ўқитувчининг янги ғояларни ишлаб чиқаришга тайёргарликни тавсифловчи ҳамда, мустақил омил сифатида иқтидорликни таркибига кирувчи ижодий қобилият маъносини ифодалайди.

Бугунги кунда ёш авлоднинг юксак маънавий фазилатларини камол топтириш, бой маданий меросимиз ҳамда тарихий қадриятларимизга ҳурмат-эътибор, Ватанимизга меҳр-муҳаббат руҳида тарбиялаш олдимизга муҳим вазифаларни қўймоқда. Замонавий кадрлар олдида қўйилаётган энг муҳим вазифалардан бири - малакали мутахассислар сифатида ўзлиги, ўз қобилиятлари, индивидуаллиги, шахсий фазилат ҳамда хислатларини билган тарзда атрофидагилар меҳнатини оқилона ташкил этиш ва ижтимоий фойдали меҳнатнинг барча соҳаларида иқтидорли касб соҳиби сифатида фаолият кўрсатишдир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев 2019 йил 24 май куни Ўзбекистон Миллий университетида олий таълим ва илмий-тадқиқот муассасалари раҳбарлари, академиклар, олимлар, ёш тадқиқотчилар билан бўлган учрашувда таъкидлаганидек, «Истеъдодли ёшларни излаб топиш ва уларни мақсадли тарбиялаш борасидаги ишларни кучайтириш керак». Ана шундан келиб чиққан ҳолда, таълим устуворлиги, таълим мазмуни ва тузилиши ўзгармоқда, ёшларга айнан педагогик-психологик билимлар асосларини берса-да, умид қиламизки, уларни ўз атрофида рўй бераётган ислохотларга ҳолис баҳо бериш, ўзи ва ўзгалар руҳияти сир-асрорларига бефарқ бўлмаслик, ўз лаёқатларини ўстиришнинг элементар воситаларидан бохабар бўлишга ёрдам беради. Чунки шахсгина ўз қобилияти, иқтидори, лаёқати, тафаккури, диққати, характери хусусиятларини билиб, уни тўғри йўналтира олса, бу нафақат шахснинг ўзига, балки жамият учун ҳам катта наф келтиради.

Бугунги кун ёшлари ниҳоятда катта ҳажмдаги ахборотга эга. Бирок, моҳиятан ушбу ахборотнинг аксарияти уларнинг шахс сифатида камол топиши, интеллектуал жиҳатдан ривожланиши, мавжуд қобилиятларини ошириши, самарали ижтимоийлашуви, ўз устида изчил ишлаши, касбий камолотга етишига ҳеч қандай ёрдам бермайди. Чунки улар назарий жиҳатдан бунёдкорлик, яратувчанлик, инсонпарварлик ғояларига эга эмас, аксинча, шахсни асосий ҳаётий, олижаноб мақсадлардан чалғитувчи, унга «ҳар қандай ташвиш, муаммолардан ҳоли, кўнгил майллари асосида яшаш имконияти»ни ваъда қилувчи қарашлардан иборат. Ижтимоий тараққиёт эса фақатгина ижтимоий субъектларнинг кучи, янада аниқроғи, уларнинг интеллектуал салоҳияти, жисмоний фаоллиги асосида таъминланади. Ривожланган хорижий мамлакатларда шахс интеллекти энг қимматбаҳо «товар» саналади. Бинобарин, хорижлик инвесторлар ва ишлаб чиқарувчилар айнан шахс интеллекти имкониятлари асосида ишлаб чиқаришни самарали йўлга қўйиш йирик молиявий маблағлар айланмасига эга бўлиш имкониятини яратишини яхши англайди. Педагогларда креативлик сифатларини ривожлантириш улар томонидан педагогик, психологик ҳамда ўқитиладиган фанлар асосларидан тўла хабардор бўлиш, улар томонидан ўзлаштирилган билимларни амалиётда фаол қўллай олиш кўникма ва малакаларини шакллантириш ҳисобига кечади.

Педагогик креативлик педагогнинг анъанавий педагогик фикрлашдан фарқли равишда таълим ва тарбия жараёни самарадорлигини таъминлашга хизмат қилувчи янги ғояларни



яратиш, шунингдек, мавжуд педагогик муаммоларни ижобий ҳал қилишга бўлган тайёргарлигини тавсифловчи қобилияти. Педагогнинг креативлик потенциали унинг умумий хусусияти сифатида акс этади. У ижодий фаолиятнинг дастлабки шarti ва натижаси саналади. Мазкур сифат шахснинг ўз-ўзини намоён қилиш лаёқатига эгалик ва тайёрликни ифодалайди. Қолаверса, креатив потенциал негизида ҳар бир мутахассиснинг шахсий қобилиятлари, табиий ва ижтимоий қуввати яхлит ҳолда намоён бўлади. Креатив потенциал билиш жараёнига йўналтирилган ижодкорлик билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, анъанавий тафаккур юритишдан фарқли равишда тафаккурнинг тезкорлиги ва эгилувчанлигида, янги ғояларни яратиш қобилияти, шунингдек, шахс характериға хос жиҳатлар – бир қолипда фикрламаслик, ўзига хослик, ташаббускорлик, ноаниқликка тоқат қилиш, заковатли бўлишда акс этади.

Хулоса қилиб айтганда, Креативлик потенциалига эга педагог ўзида қуйидаги малакаларни намоён эта олади, бажариладиган вазифанинг моҳияти ва аҳамиятини белгилай билиш, масаланинг қўйилишини таҳлил қила олиш; масалани ҳал қилиш режасини тузиш, масалани ҳал қилишда самарали методлар (анализ, синтез, индукция, дедукция, таққослаш ва б.)ларни қўллаш; масалани ҳал қилиш усуллариини танлай олиш, қабул қилинган қарорнинг тўғрилигини асослаш ва қайта текшириш.

АДАБЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Толипова Ж.О. Фан таълими технологиялари. Т . “Ўқитувчи” 2004 йил. 128 .
2. Толипова Ж.О., Ғофуров А.Т. Фан ўқитиш методикаси. Ўқув-методик қўлланма. Т . “Билим” 2014 йил. 160 б.
3. Педагогика Б. Зиёмуҳаммадов. Т. 2016 й.



ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА

Муродимов Мансур Бахриддинович

самостоятельный соискатель УОБ РУз

Утенбаева Гульжазира Мухтаровна

преподаватель кафедры «Изучение языков» УОБ РУз

телефон: +998974091197

e-mail: mukhtarovna9420@gmail.com

АННОТАЦИЯ: В статье рассмотрены лингводидактические аспекты использования инновационных педагогических технологий на занятиях русского языка. А также, приведены статистические данные публикаций статей и научных работ в зарубежных и отечественных научных журналах и сборниках.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: инновация, инновационные технологии, методика обучения, курсанты, русский язык.

Политические, социальные, экономические и межнациональные отношения между разными странами способствуют глубокому осознанию необходимости изучения курсантами высших военно-образовательных учреждений Республики Узбекистан русского языка, а следовательно, поднимают на качественно новый уровень и роль преподавателя иностранного языка.

Всё более важное место в структуре профессиональной компетенции преподавателя занимают инновационные педагогические технологии. Инновационные педагогические технологии в наше время приобретают всё более важное значение для создания и обеспечения стимулирования и интерактивности обучения, а также, эффективного моделирования специальной среды для обучения иностранным языкам в нефилологическом вузе, в том числе русскому языку в высших военных образовательных учреждениях.

Проблемам создания, развития и распространения педагогических инноваций посвящены работы: Н.Р. Юсуфбековой, М.М. Поташника, К. Ангеловски, М.В. Кларина, О.Г. Хомерики, С.Д. Полякова, А.В. Лоренсова, А.И. Пригожего и других.

По словам В.Г. Колосова, «инновационные технологии – набор методов, средств и мероприятий, обеспечивающих инновационную деятельность». Под термином «инновационные технологии в профессиональном образовании» понимают «технологии, ориентированные на формирование системного творческого технического мышления учащихся и их способности генерировать нестандартные технические идеи при решении творческих производственных задач» (Научная электронная библиотека).

Анализируя вышеуказанные лингводидактические аспекты, нами было разработано авторское определение термину «Инновационные педагогические технологии» (далее ИПТ): *Инновационные педагогические технологии (ИПТ) – это технологии, которые ориентированы не на процесс, а на результат обучения и накопления тех знаний, умений и навыков, которые обучающийся (курсант) может применить в практической деятельности. Главным отличием ИПТ от традиционной технологии является способ получения знаний в образовательном процессе. Другими словами, ИПТ – это те педагогические технологии, которые направлены на личностное, индивидуальное совершенствование качеств отдельно взятого обучающегося (курсанта).*

Научные исследования, встречающиеся в научных публикациях за 2019-2021 гг., посвящены к теме изучения и использования инновационных педагогических технологий. Мы в нашем исследовании проанализировали научные работы, вышедшие по результатам проведения конгрессов и международных научных конференций Россотрудничества в Ташкенте, а также в некоторых научных журналах, рекомендованных ВАК Республики Узбекистан. Полученные материалы представили в диаграммах. В них указаны цифровые показатели общего количества статей в анализируемых научных изданиях, а также значения, показывающие, сколько именно статей, написанных узбекскими, а также российскими и зарубежными специалистами, посвящены непосредственно и именно инновационным



педагогическим технологиям в преподавании русского языка как иностранного и неродного.

Ниже приведенные нами диаграммы наглядно показывают увеличение количества публикаций статей по теме «Инновационные педагогические технологии» как отечественными, так и российскими и зарубежными исследователями, что дает основание говорить о росте интереса к вопросу об инновационных технологии.



Рис. 1.1. Публикации по ИПТ за 2019 г.



Рис. 1.2. Публикации по ИПТ за 2020 г.




Рис. 1.3. Публикации по ИПТ за 2021 г.



Таким образом, в настоящем исследовании анализируя вышесказанное, можно сделать вывод, что интерес к теме «Инновационные педагогические технологии» в научных журналах ВАК, написанных на русском языке увеличивался с каждым годом, причём можно отметить, за последний 2021 год он увеличился на 9% в узбекских публикациях, на 11% в российских, а также на 5% в зарубежных статьях. Наличие статей и научных публикаций на тему ИПТ в ведущих научных изданиях является свидетельством актуальности и перспективности нашего исследования.

Список использованной литературы

1. Балыхина, Т.М. Методика обучения русскому языку как иностранному в контексте стратегий и перспектив развития высшей школы сб. науч.-метод. ст. – Ростов-на-Дону: НМЦ «Логос», 2006. – С. 5-11.
2. Зимняя, И.А. Педагогическая психология: учебник для студентов вузов, обучающихся по педагогическим и психологическим направлениям и специальностям / И.А. Зимняя. – М.: Логос, 1999. – 384 с.
3. Наркулова И.Р. Самостоятельная работа курсантов как фактор формирования навыков самообразования (на материале интерактивной программы «Русский язык для военных юристов») / науч.статья. Eurasian Journal of Academic research/ doi: 10.5281



LISONIY MEROS – O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTINING POYDEVORI

Isroilova Nilufar Xusanovna

Toshkent shahar Olmazor tumanidagi
191-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi
o‘zbek tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqola o‘zbek tili izohli lug‘atining amaliyotda qo‘llanilishi muammolariga qaratilgan bo‘lib, ana shu muammolarni bartaraf etish yo‘llari hamda uning asosiy xususiyatlari ochib berilgan. Lug‘atlar orqali ana shu jarayonga yanada aniq oydinlik kiritish muhimligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tilining izohli lug‘ati, so‘zning ma’no tomoni, sinonimlar lug‘ati, omonimlar lug‘ati, ularning amaldagi o‘rni va ahamiyati

Annotation. This article takes into consideration for difficulties of application of the Uzbek explanatory dictionary and issues related to this complication are depicted in this article. The necessity of process with working dictionary is emphasized.

Keywords: The Uzbek explanatory dictionary, semantic theory of word, the dictionary of synonyms, homonyms, their role and importance in the sentences.

Til inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir inson o‘zining tilidan foydalanib, jamiyat bilan muloqot qiladi, o‘z fikr-mulohazalarini tinglovchiga bayon qiladi. Biz uchun o‘zbek tili ana shunday imkoniyat beruvchi ona tilidir. Darvoqe, ona tilimizning boyligi-yu qudratini, g‘o‘zalligi-yu nafosatini, hayotimizda tutgan o‘rni-yu va salohiyatini kim ham bilmaydi?!

O‘zbek tilining boy til ekanligiga XV asrda yashab ijod qilgan ulug‘ mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy(o‘z asarlarida 26 mingdan ortiq so‘z qo‘llagan)ning ilmiy va badiiy merosi ham dalolatdir. Turkiy til qudratini dunyoga yoygan bobomiz Alisher Navoiy o‘zining ikki til muhokamasiga bag‘ishlangan “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida juda ko‘plab turkiy so‘zlarning keng imkoniyatlarini ochib, ma’nosi va mazmunini hamda samarali foydalanish o‘rinlarini asoslab berdi. Asrlar davomida til jamiyat taraqqiyoti natijasida boyib, sayqal topib kelgan. Til taraqqiyotida buyuk mutafakkirlarimiz, so‘z san’atkorlarining lisoniy merosi va so‘z qo‘llash mahorati muhim omillardan sanaladi. Til hamisha so‘z bilan tirikdir. So‘z jamiki insoniyatning voqelikni idrok qilish va bayon qilish vositasidir.

Tilning barcha imkoniyatlari so‘z va uning ma’nolari orqali borlig‘icha namoyon bo‘lishi e’tiborga olinsa, til jamiyatining bugungi vakillari, xususan, yosh avlod til imkoniyatlarini qay darajada o‘zlashtirishi; so‘zni, uning ma’no tomoni va ularning nozik tovlanishlarini qay darajada idrok etishi, his qilishi birlamchi dolzarb masala sifatida qayd qilinishi tabiiy. Ma’lumki, umumta’lim maktablari va akademik litseylarda ona tili fanini o‘qitish faqatgina grammatik qonun-qoidalarga asoslanadi. Fikrimizcha, ona tilining ulug‘vorligi, qudrati va jozibasini faqat nazariy bilimlarni o‘rganish orqali his qilish juda ham mushkuldir. Binobarin, 10-, 11-sinflar Ona tili darsliklarida so‘zlarning ma’nosi izohlanganligini ko‘ramiz. Ammo bu ma’lumotlar, izoh va manbalar yetarli darajada emas. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da 85 000 dan ortiq so‘z jamlanganligining o‘zi ham ona tilimizning nihoyatda boy til maqomida ekanligini ko‘rsatib turibdi. Tilimiz lug‘at boyligi rang-barang so‘z va ifodalarga to‘la, turli ma’no va ularning nozik tovlanishlari beqiyos va betakrordir. Faqat ularni o‘rganish, his qilish, maqsadli va samarali foydalana olish talab etiladi, xolos. Ana shunday so‘zlar miqdori va turli munosabatli ko‘rinishlarini istagancha kuzatishimiz mumkin. Xususan, nutq ta’sirchanligini ta’minlash, go‘zal ifoda yaratish, nutqni chiroyli tuzish va uni ifoda etish kabilarga xizmat qiluvchi so‘z va uning ma’nolariga diqqat qaratamiz. Masalan:

Boshliq I – 1 Idora, muassasa, tashkilotlarga rahbarlik qiluvchi shaxs.

Boshliq bo‘lish oson, boshlamoq qiyin.

2 Umuman, boshchilik, rahbarlik qiluvchi; rahnamo.

Boshliq II – 1 Ba’zi Sharq xalqlarining sovuq, qor-yomg‘ir va oftobdan saqlanish uchun boshga kiyadigan jun yopinchig‘i.

2. Oyoq kiyimining yuzi va yonini qoplab turadigan qismi va shu qism uchun bichilgan teri.

Boshliq III - 1 Yuganning yuqori qismi.

2 Mokining ichida uning ikki qovurg‘asini birlashtirib turgan ikkita temir qism.

Ananas I - 1 Ananasdoshlar oilasiga mansub o‘tlar turkumi.



2 Shu o‘simliklardan ba’zisining yirik, cho‘zinchoq, xushbo‘y va shirali mevasi.

Ananas II – Ertapishar, to‘rlama, eti va urug‘i qizg‘ish kuvrak va xushbo‘y qovun navi.

Qirov I -Ayoqli, havo ochiq, sokin tunlarda tuproq, o‘t va yerdagi narsalar ustida hosil bo‘ladigan muz kristallari.

Qirov II- Yangi charxlangan pichoq, xanjar va shu kabi asboblarning betida qolgan zarralar.

Qirov III (vet.) - Mollarning tilida qipiqsimon bo‘rtiqlar paydo qiladigan kasallik.

Chog‘ I - Vaqt, davr, kez, kun, on.

Chog‘ II- Xursand, shod, yaxshi.

Chog‘ III - O‘lchovi, o‘lchami mo‘ljaldan kichik, kichkina.

Chog‘ IV - Chog‘ bo‘lib turmoq, tayyor, shay bo‘lib turmoq.

Chog‘ V - Kuch-quvvat, imkoniyat, istak.

E’tibor qilinsa, mazkur o‘rinlarda boshliq, ananas, qirov, chog‘ so‘zlari va ularning leksikografik ma’nolari qayd qilindi. Bu so‘zlar bir tomondan shakldoshlik, yana bir tomondan ko‘p ma’nolilik munosabatlarida ekanligini namoyon qilgan bo‘lsa, o‘z qatlam so‘zi yoki o‘zlashganlik belgilari, qo‘llanilish davri va doirasi, nutq vaziyati va maqsadi, nutq uslubi va sohaga mansublik nuqtayi nazaridan ham o‘zaro farqlilik xususiyatlarini ham o‘zlarida mujassamlashtirgan lisoniy hodisalardir. Qayd qilingan ushbu so‘zlarning har biri alohida olam, har biri mustaqil va alohida, har biri betakror ma’no va vazifalarga egaki, ularni kuzatish, tahlil qilish, imkoniyat va samaradorligini aniqlash zamonaviy tilshunosligimiz, nutq madaniyatimiz, qolaversa, texnika va kompyuter tili uchun katta imkoniyat va manba sifatida xizmat qiladi. Agar biz ta’lim tizimimizda lug‘atlar ustida ishlashni yo‘lga qo‘ysak, yosh avlodning savodxonlik darajasi yanada yuqori bo‘lar edi. Ona tilimizni yanada yuksaltirish va uning keng imkoniyatlarini lug‘atlarsiz tasavvur etish qiyin, mayli u qog‘oz yoki elektron shaklda bo‘lsin. Yuqoridagi kabi har bir so‘zni anglash, his qilish, undan oqilona foydalana olish ko‘nikma va malakalarni faqat lug‘atlar yordamida, ular ustida ishlash orqaligina ta’minlash eng qulay va yuqori samarador yo‘l, usul yoki omil hisoblanadi. Ona tili ta’limi jarayonini o‘quv lug‘atlari, umuman ta’limiy lug‘atlar bilan ta’minlash, imlo lug‘ati, izohli lug‘at, omonimlar lug‘ati, sinonimlar lug‘ati, paronimlar lug‘ati, frazeologizmlar lug‘ati, etimologik lug‘at kabi manba va vositalarni o‘quvchilarga qo‘llanma sifatida yetkazib bermog‘imiz shart va zarur deb hisoblayman. Negaki hozirgi paytda yoshlarimiz o‘rtasida so‘zlarni bilib-bilmasdan qo‘llash holatlari juda ko‘p uchramoqda. Aynan shu sababdan ko‘cha-ko‘yda istagancha uchratish mumkin bo‘lib qolgan, savodsizlarcha yozilgan so‘zlarga, chet tili so‘zlariga mansub yot nomlarga chek qo‘yolmayapmiz. Men shuni faxr ila tan olamanki, ona tilimiz biz uchun har qanday tildan go‘zal, jozibador, betakror va bebaho xazina tildir. Buni faqat anglamoq va undan faxr hissini tuymoq kerak, uni muqaddas deb asramoq, sofligi va daxlsizligiga sadoqat bilan xizmat qilish kerak, ona tilimizni bilmagan tildoshlarimizga uni o‘rgatmoq, bor bo‘y-bastini ko‘rsatmog‘iz kerak.

Ana shu maqsadlar yo‘lida biz lug‘atlarimizni mukammal o‘rganmog‘imiz kerak, deb hisoblayman. Hukumatimiz tomonidan bizning mana shu tabarruk universitetimiz ona tilimizni yanada yuksaltirish, rivojini ta’minlash, muammo va kamchiliklarni bartaraf etish, tilimizni dunyoga yoyish, uning jozibasidan butun duyo ahlini bahramand etish kabi yuksak maqsadlar yo‘lida bunyod etildi. Biz esa mazkur universitetimizning yetuk mutaxassisleri, jonkuyar fidoyi ustozlarimiz ko‘magida yuqoridagi ishlarni amalga oshirmog‘imiz darkor.

Xulosa shuki, o‘quvchida so‘zga bo‘lgan hisni uyg‘otishda yordam beradigan, so‘zning sehri va sinoatlarini o‘rgatadigan lug‘atlar banki ko‘paytirilsa; umumta’lim maktabidan to oliy o‘quv yurti bosqichi talabalari uchun alohida fan va yo‘nalishlar bo‘yicha lug‘atlar yaratilsa, yosh avlod ona tilimizdagi so‘zlarning ma’nosi, ichki tovlanishlari, jozibasini his qiladi. So‘zni anglash qobiliyati shakllanib, tafakkur dunyosi boyib boradi. Bu holat yoshlarning kitobxonlik madaniyatini oshirishda, asarlarni tahlil qila olish ko‘nikma va malakasini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu tilda Navoiylar go‘zal ash‘orlar bitgan, bu tilda Zahiriddin Muhammad Bobur ona Vataniga o‘z muhabbatini izhor etgan. Bu tilning betakrorligidan Gadoiy, Lutfiylar hayratga tushgan, Jaloliddin Manguberdining yuragiga mardlik kabi tuyg‘ularni alla bo‘lib singdira olgan tildir. Uning jozibasidan bir paytlar butun dunyo hayratda edi. Shunday buyuk tilimizni yanada qudratli qilishimiz uchun lug‘atlarni mukammal tarzda va zamonaviy talablar darajasida yaratish



va undan oqilona foydalana olish, qisqa muddat ichida yangilash imkoniyatiga ega shakllarda barpo etish kabi vazifalarni jadallashtirishimiz, o‘zimizning munosib hissamizni qo‘shmog‘imiz lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. - Toshkent: Yangi avlod, 2009.
2. Каримов Б. Р., Мираъзамов К. Миллат равнақи ва тил муаммолари. – Т.: Tafakkur, 1993.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдли. 1–5-жилдлар. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2006-2008.



SHAXSNI SHAKLLANTIRISHDA MULOQOT PSIXOLOGIYASI

Boboyorova Sevinchbonu Ikrom qizi

Toshkent davlat pedagogika instituti

Tarix fakulteti talabasi

Telefon: +998971029929

bsevinchbonu@gmail.com

ANNOTATSIYA: Muloqot inson hayotining asosiy sohalaridan biridir. Muloqot turlari va shakllari juda xilma-xildir. Ming yillar davomida bir-biri bilan muloqot qilishda turli avlod vakillari bo'lgan odamlar ma'lumot almashgan, ularni to'plagan va saqlagan. Bunday muloqot tufayli odamlar zamonaviy ilmiy va dunyoviy bilimlarga ega. XXI asrda yashaydigan har bir insonning tanqidiy fikrlashi uchun avvalo muloqotga o'rgatish zarur. Inson dunyoda rivojlangan shaxsga xos bo'lgan hech qanday xususiyatsiz tug'iladi. Bu barcha xususiyatlarni u odamlar bilan muloqot qilish orqali oladi. Oxir-oqibat bolada paydo bo'ladigan shaxsiy xususiyatlar, shuningdek, kattalar butun hayoti davomida ega bo'lgan yangi shaxsiy xususiyatlar ushbu bola yoki bu kattalar shaxsan muloqot qiladigan odamlarga xosdir. Ushbu ishning maqsadi insonning boshqalar bilan muloqoti uning psixologik rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini ko'rib chiqishdir.

KALIT SO'ZLAR: Tug'ilgandan boshlab, bola hech qanday qobiliyatga ega emas, faqat ularning rivojlanishi uchun asoslar mavjud. Moyilliklar o'z-o'zidan qobiliyatga aylana olmaydi. Agar kichkina bola boshqa (kattalar) odamlar bilan muloqot qilish imkoniyatidan mahrum bo'lsa, bu uning aqliy rivojlanishini sezilarli darajada kechiktiradi va juda katta cheklovlar bo'lsa, qaytarilmas o'zgarishlar yuz berishi mumkin.

Ilmiy va boshqa adabiyotlarda ko'pchilikka ma'lum bo'lgan holatlar mavjud bo'lib, ular odamlar bilan muloqot qilish imkoniyatidan mahrum bo'lgan odamning psixologik jihatdan umuman rivojlanmasligini (hayvonlar orasida bolalarni topish holatlari) yoki uning rivojlanishida orqada qolishini ko'rsatadi. yoki psixologik jihatdan yomonlashtiradi, ya'ni hayvonga o'xshash hayot tarziga qaytadi. Ushbu holatlarning eng mashhuri 20-asr boshlarida Hindistonda sodir bo'lgan, u yerda bo'rilar uyasiidagi hayvonlar orasidan ikki bola topilgan. 3 yoshli qiz va 7 yoshli o'g'il bolalar insoniy hayot tarziga moslashmagan. Bolaning normal rivojlanishi uchun kattalar bilan, ayniqsa onasi bilan doimiy aloqada bo'lish kerak. Maxsus tadqiqotlar va tajribalar natijalari shuni ko'rsatadiki, bunday aloqalarni cheklash kognitiv jarayonlarning rivojlanish darajasini pasaytirishga olib keladi. To'g'ridan-to'g'ri aytganda, insonning biron bir qobiliyati insonning odamlar bilan muloqotidan tashqarida paydo bo'lishi mumkin emas. Atrofdagi odamlar, birinchi navbatda, odamlar tomonidan o'zlashtirilgan qobiliyatlarning yagona tashuvchisi. Ikkinchidan, inson bu qobiliyatlarni o'rganishi uchun bu odamlar bilan muloqot qilish kerak. Uchinchidan, biz nafaqat o'zaro ta'sir, balki tashkiliy, ta'lim va rivojlantiruvchi aloqa haqida gapiramiz. To'rtinchidan, qobiliyatlarni rivojlantirish jarayoni nazorat qilinishi va baholanishi kerak va bu qobiliyatlarni rivojlantiruvchining ushbu qobiliyatlarni shakllantiruvchilar bilan bevosita muloqotida ham amalga oshiriladi. Shu bilan birga, og'zaki bo'lmagan muloqot rivojlanadi: yuz ifodalari, imo-ishoralar, nutqning turli xil intonatsiyasi. Teskari aloqa aloqa jarayonida shakllanadi - bola suhbatdoshning yuz ifodasini tushunishni, uning intonatsiyasida ma'qullash yoki norozilikni ushlashni, kattalar so'ziga hamroh bo'lgan va mustahkamlovchi imo-ishoraning ma'nosini tushunishni o'rganadi. Bularning barchasi unga o'z harakatlarini tuzatishga, jamiyatda to'g'ri o'zaro tushunishga erishishga imkon beradi.

Odamlar bilan birgalikdagi faoliyatda, ya'ni ular bilan muloqotda shaxsning individual faoliyat uslubi rivojlanadi. Xarakter uning harakatlarida namoyon bo'ladi, odamlarga ma'lum bir ta'sir ko'rsatadi. Xarakter nafaqat muloqotda namoyon bo'ladi, balki unda shakllanadi. Shunday qilib, erta bolalik davrida xarakter xususiyatlari kattalarning bola bilan qanday muloqot qilishlari ta'siri ostida shakllanadi. O'smirlik davrida xarakterning shakllanishiga bolaning tengdoshlari bilan muloqoti ta'sir qila boshlaydi. O'rta maktabda xarakter o'rta maktab o'quvchilarining nafaqat tengdoshlari, balki kattalar bilan muloqoti ta'sirida rivojlanishida davom etadi. Va kattalarning o'zida xarakter ularning boshqa odamlar bilan muloqoti ta'siri ostida o'zgarishi mumkin.

Iroda boshqa odamlar bilan muloqot ta'sirida ham rivojlanadi. Bu jarayonni bolalarning xulq-atvorini, ularning sa'y-harakatlarini va kattalar tomonidan ongli ravishda boshqaradigan va bolani to'siqlarni yengib o'tishga undaydigan maqsadlarga erishish istagini kuzatish orqali



tasavvur qilish mumkin. Bu ogohlantirishlar bilan bog'liq yoqimli tajribalarni takrorlash uchun bola o'z irodasini amalga oshirishni boshlaydi. Kattalarning bola bilan maxsus tashkil etilgan muloqoti uning ta'sirida bolaning irodasi rivojlanadigan omilga aylanadi.

Shaxslararo muloqotda namoyon bo'ladigan tuyg'ular odamlar bilan muloqot ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi. Boshqa odamlar bilan muloqot qilish hissiyotlarning boshqa turlariga ham ta'sir qiladi. Masalan, estetik tuyg'ularni insonga go'zallikni tushunadigan boshqa odamlar etkazishadi. Axloqiy his-tuyg'ular insonning xatti-harakatlarini atrofdagi odamlar tomonidan ma'qullanishi yoki ma'qullashi bilan ham mustahkamlanadi va bu muloqotdan tashqari sodir bo'lishi mumkin emas.

O'sib borayotgan shaxs boshqa odamlar bilan muloqot qilishda motivlar va ijtimoiy ehtiyojlarni ham oladi. Muloqot jarayonida xulq-atvor motivlarining bir kishidan ikkinchisiga o'tish mexanizmini quyidagicha tasavvur qilish mumkin. Biror kishi o'zi uchun muhim bo'lgan odamlarga o'xshab qolish uchun ularga taqlid qiladi, shu jumladan ularning manfaatlarini qabul qiladi. Muhim odamlarning xatti-harakati va harakatlarini kuzatib, ularni ma'qullagan holda, inson kuzatilgan xatti-harakatni o'zi uchun qabul qiladi. Oxir oqibat, shaxs tomonidan ma'qullangan boshqa odamlarning xatti-harakatlarining motivlari o'z xatti-harakatlarining motivlariga aylanadi.

Shunday qilib, shaxs shaxs sifatida barcha muhim ko'rinishlarida odamlar bilan muloqot qilish jarayonida shakllanadi va rivojlanadi.

Shaxsning shaxs sifatidagi psixologik rivojlanishining bog'liqligi uning boshqa odamlar bilan muloqotiga bog'liq. Agar inson bu ehtiyojni qondirish imkoniyatidan mahrum bo'lsa, unda uning psixikasida ma'lum og'ishlar paydo bo'lishi mumkin: nutqning yomon rivojlanishi, zarur muloqot qobiliyatlari yo'qligi, aqlning zaif rivojlanishi, his-tuyg'ularning kam rivojlanganligi.

Odamlar bilan muloqot yetishmasligi sharoitida nutqning zaif rivojlanishi inson nutqining rivojlanishining asosiy manbai u muloqot qiladigan odamlar ekanligi bilan bog'liq. Erta bolalik davrida bola har kuni muloqot qiladigan kattalarga to'g'ridan-to'g'ri taqlid qilish orqali nutqni o'rganadi. Taxminan 3 yoshdan boshlab bolaning nutqining rivojlanishiga u muloqotda bo'lgan boshqa ko'plab odamlar ta'sir qiladi.

Voyaga etganidan so'ng, odam odamlar bilan muloqot qilish va nutqni rivojlantirishning boshqa manbalari, masalan, kitoblar, muloqot orqali ham nutqni rivojlantirishda davom etadi. Agar bola erda bolalikdanoq odamlar bilan muloqot qilishning yetishmasligini boshdan kechirsa, bu nuqson kelajakda davom etsa, unda bu odamda nutq rivojlanishida muqarrar ravishda kamchiliklar bo'ladi.

Agar biror kishi boshqa odamlar bilan muloqot yetishmasligini boshdan kechirsa, uning muloqot qobiliyatlari va qobiliyatlari etarli darajada rivojlana olmaydi. Eng yaxshi holatda, bu odam meros bo'lib qolgan og'zaki bo'lmagan aloqa vositalarining nisbatan ibtidoiy to'plamiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, u inson madaniyati bilan bog'liq og'zaki muloqot vositalariga, shuningdek, tilni bilish va undan foydalanish bilan bog'liq og'zaki aloqa vositalariga ega bo'lmaydi.

Intellektning zaif rivojlanishiga kelsak, u quyidagi sabablarga ko'ra inson va odamlar o'rtasidagi muloqotning yetishmasligi natijasida paydo bo'ladi. Birinchidan, nutqning yomon rivojlanganligi, ikkinchidan, odam o'zidan ko'ra rivojlangan intellektga ega bo'lgan boshqa odamlardan ibrat olish imkoniyatidan mahrum bo'lganligi sababli. Rivojlanishning boshida bolalar boshqa bolalar yoki odamlar bilan birga o'ynash yoki ular bilan qandaydir biznes qilish, birgalikda, bevosita muloqotda turli muammolarni hal qilishadi. Kattalar va birgalikdagi faoliyatda ko'proq tajribali hamkorlar bolaga muammolarni hal qilish yo'llarini ko'rsatadilar, ularni tushuntiradilar va ularni o'zlashtirishga yordam beradilar. Bola o'z aql-zakovatini nafaqat boshqa odamlarga taqlid qilish orqali, balki ularning rahbarligida ham rivojlantiradi, bu faol muloqot bo'lmaganda mumkin emas. Taxminan xuddi shu narsa kattalarning intellektual rivojlanishini tavsiflaydi.

Tuyg'ularning rivojlanmaganligi quyidagi sabablarga ko'ra odamlar bilan muloqot yetishmasligi natijasida yuzaga keladi. Odamlar birga bo'lganlarida va undan ham ko'proq, ular bir-biri bilan muloqot qilganda, bir kishining tajribasi to'g'ridan-to'g'ri unga hamdard bo'lgan boshqasiga uzatiladi. Bu odamlarning bir-biriga bevosita hissiy ta'sirining maxsus ijtimoiy-psixologik mexanizmi tufayli sodir bo'ladi, bu «yuqumlilik» deb nomlanadi. Agar odamlar muloqot qilmasa, hissiy yuqumli kasallik sodir bo'lmaydi. Bundan tashqari, boshqa ta'lim mexanizmi - «taqlid» orqali odamlar bir-birlari bilan muloqot qilish va kuzatish, tajriba qilishni, ya'ni madaniy me'yorlarga muvofiq holda o'z his-tuyg'ularini ifodalashni o'rganadilar.



Ilmiy adabiyotlarda muloqot psixologiyasi juda yaxshi va to'liq ko'rsatilgan. S.I.Samigina va I.D.Stolyarenkoning fikriga ko'ra turli yoshdagi odamlarning muloqoti ularning har birining to'liq hayotining muhim tarkibiy qismidir, muloqotning yetishmasligi shaxsiyatning shakllanishida namoyon bo'ladi.

Psixolog B.G. Ananov «Odam bilishning predmeti sifatida» asarida bu masalani chuqur tahlil qilgan. U bilimning turli elementlarini egallash muvaffaqiyatli o'zlashtirishning garovi ekanligini ta'kidlaydi. Bilimlarni egallash muloqot orqali amalga oshirilishini ham uqtirib o'tadi. Agar kishilar o'zaro bir-birlariga axborot uzatmasalar, tajribalarini muloqot orqali almashmasalar rivojlanmay qolishlari to'g'risida B.G. Ananov asosli fikrlarni keltiradi. B.G. Ananov fikricha muloqot ijtimoiy va individual holatdir. Shuning uchun nutq bilan uzviy bog'liq, kommunikativ vazifani bajarishda pantomimika, imo-ishoralar muloqot shakllari sifatida yuzaga chiqadi.

Psixolog olim V.N. Myasishov muloqot masalasiga chuqur yondashgan, uni o'rgangan. Boshqa olimlar muloqotni nutq kommunikatsiyasi bilan bog'lab o'rgangan bo'lsalar, V.N. Myasishov muloqotni jarayon sifatida o'rgangan. Ya'ni shaxslarning bir-biriga muloqot orqali ta'sir ko'rsatishlarini, bir-birlarini idrok qilish obyekti sifatida tahlil qiladi. Uning fikricha: “Shaxs turlicha munosabatlarda qarama-qarshi sifatlarini namoyon qilishi mumkin.”

A. Bodalyevning fikricha, «insonni muloqot orqali tarbiyalashda bu unga qanday ta'sir qilishini avvaldan o'ylash zarur».

Psixologik rivojlanish uchun odamlarning bir-biri bilan muloqoti faoliyatdan ham muhimroqdir. Bir-birlari bilan muloqot qilishda bir kishi uchun mavjud bo'lmagan vazifalar hal qilinadi. Aynan qo'shma faoliyatdagi muloqot tufayli odamlar bir vaqtlar o'zlarining hayvoniy, tabiiy turmush tarzini yengishga, o'zlarining biologik cheklovlaridan oshib ketishga, jamiyat va madaniyatni yaratishga muvaffaq bo'lishdi. Hayotning birinchi kunlaridan boshlab chaqaloq kattalar bilan muloqot qilishni boshlaydi va bu muloqot uning hayoti davomida uzilmaydi. Bunday muloqot yordamida bola psixologik jihatdan uni umuman inson va ayniqsa zamonaviy inson qiladigan hamma narsani o'rganadi. Bu uning bilish jarayonlarining insoniy xususiyatlariga, ularning o'zboshimchalik va vositachiligiga ham tegishli, uning xulq-atvorining insoniy xususiyatlari (axloq, axloq, xulq-atvor madaniyati), uning shaxsining insoniy xususiyatlari (irodasi, qobiliyati, xarakteri, ehtiyojlari, his-tuyg'ulari), insoniy munosabatlar (mehribonlik, odoblilik, sezgirlik va boshqalar). Muloqot inson mavjudligining muhim shartidir. Bu insonga ta'sir qilishning ob'ektiv tashqi omili va shu bilan birga uning individual psixologik mavjudligining shaklidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi
2. Андреева Г.М. Социальная психология.
3. Бодалев А.А. Личность и общение.
4. Леонтьев А.А. Психология общения
5. Международная конференция «психология общения и доверия: теория и практика» 6-7 ноября 2014 г.
6. Казанский педагогический журнал №2, 2019
7. <http://www.vashpsixolog.ru/teenager/43-communicate/82-ommunicate-teenager-with-adults>
8. <http://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/13843-muloqot-psixologiyasi>



МАКТАБ ТА’ЛИМИНИ RIVOJLANTIRISHDA AMALIYOTCHI PSIXOLOGLARNING TUTGAN O’RNI

**Usmonova Gavharshodbegim Toyir qizi,
Jiyanova Ozoda Xolmanova**
Navoiy viloyati Karmana tumani
5-DIUM amaliyotchi psixologlari

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim tizimini yanada rivojlantirishda amaliyotchi psixologlarning tutgan o’rni, amaliy ko’nikmalarini va malakalarini amaliyotga tadbqiq etish, turli xil metodlarni amaliyotda qo’llash bosqichlari pedagogik-psixologik tahlil qilingan.

Kalit so’z: malaka, ko’nikma, kasbiy bilim, mahorat, korreksiya, profilaktika, psixologik xizmat, aqliy qobiliyat, tashxis.

Mustaqil davlatimizning barcha sohalarda tez suratda ijtimoiy rivojlanib borishini unda yashayotgan fuqarolarning ijodiy va ma’naviy o’sishlarisiz amalga oshirib bo’lmaydi. Insonlardagi ijobiy shaxsiy sifatning rivojlanishi va shakllanishi, asosan, ularning maktab davrlariga to’g’ri keladi. Shuning uchun o’sib kelayotgan yosh, bunyodkor avlod kelajagini har tomonlama takomillashgan va ijtimoiy taraqqiyot talablariga to’la-to’kis javob bera oluvchi ta’lim tizimining muvaffaqiyatli tatbiqisiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Ta’limning muvaffaqiyati esa tashkil etilgan o’quv faoliyatining har bir o’quvchi shaxsiga, uning ijtimoiy taraqqiyotiga qo’shgan hissasi bilan belgilanadi. Bu mas’uliyatli vazifani, ayniqsa, bugungi kunda psixologik xizmat tasavvur qilib bo’lmaydi. Davlatimizning 2016-yil 14-sentyabrdagi O’RQ-406 sonli «Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida»gi O’zbekiston Respublikasi qonuni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7-fevraldagi PF-4947sonli «O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida»gi Farmoni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ3907-sonli «Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’limtarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish chora-tadbirlari to’g’risida»gi Qarori va bu qaror ijrosini ta’minlash, shuningdek, umumiy o’rta va o’rta maxsus davlat ta’lim muassasalarida o’quvchilarni psixologik-pedagogik qo’llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 577-sonli «O’quvchilarni psixologik-pedagogik qo’llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to’g’risida»gi qaror va farmonlar ta’lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatiga va bu faoliyatni olib boruvchi amaliyotchi psixologlar zimmasiga mas’uliyatli vazifalarni yuklaydi.

Shunday ekan, psixologik xizmatning aniq vazifalari belgilab berilgan bir davrda o’sib kelayotgan yosh avlodni axborot-psixologik xurujlarning xavfi, Internet jahon axborot tarmog’ining salbiy ta’siri, yoshlar tarbiyasiga xavf solayotgan «ommaviy madaniyat»ning kirib kelishi holatlarining oldini olish, o’quvchilarning qobiliyati, layoqati, qiziqishlari hamda kasb-hunarga moyilliklari asosida to’g’ri kasb-hunar tanlashlariga ko’maklashish, turli yosh davrlarida o’quvchilarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borish, ta’limtarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlash, ularning aqliy taraqqiyotida sodir bo’lishi mumkin bo’lgan har qanday salbiy og’ishlarning oldini olish, iste’dodli va iqtidorli o’quvchilarni aniqlash, ularning individual-psixologik, fiziologik xususiyatlari va qiziqishlarini o’rganish, qobiliyatlarini namoyon etishlari va rivojlantirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, pedagogik jamoalarda sog’lom psixologik muhitni yaratish va qo’llab-quvvatlash, jamoa a’zolarining hissiy-emotsional holatlari, shaxslararo munosabatlar va ziddiyatli xatti-harakatlarni korreksiyalash, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish, pedagog xodimlar, o’quvchilar hamda ota-onalarning psixologik-pedagogik bilimlarini oshirishga ko’maklashish, pedagog xodimlar, ota-onalar va jamoat tashkilotlarining samarali hamkorligini ta’minlash ishlarida psixologlar qanday ishlarni amalga oshirmoqdalar. Bu vazifalarni amalga oshirishda ularga faqat nazariy bilimlarning o’zi yetarli bo’layabdimi? Xush maktab psixologlari qanday muommolarga duch kelishmoqda.

Psixologik xizmatning tarkibiy qismi tuzilishi ishlab chiqilgan, har bir bo’g’ining oldiga ma’lum vazifalar qo’yilganligiga qaramasdan, bu bo’g’inlar to’laqonli faoliyat yuritayabdimikan? Ayniqsa, pastki bo’g’in, yani viloyat, tumanlar va maktabdagi bo’g’inlar qay darajada ish olib bormoqdalar? Bu yo’nalishning samaradorligi shu bo’g’inlarga bog’liq emasmi? Aytish joizki,



psixologik xizmat joriy etilgan davrdan beri bu sohada bir qancha ijobiy tashkiliy -metodik ishlar amalga oshirildi, lekin psixologik, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy tomondan esa hali qiladigan ishlarimiz ko'p ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi. Bundan tashqari, psixologlarga metodik jihatdan ham yordam berish, yani turli xil mavzularda, aniq maqsadlarga yo'naltirilgan davra suhbatlari, seminar, konferensiyalar va o'quv kurslari tashkil etilishi, ilg'or tajribali psixologlarning ish tajribalarini o'rganish va ommalashtirish ishlarining tashkil etishlariga e'tibor qaratilsa, buni esa tuman (shahar)tashxis Markazlari bilan hamkorlikda olib borilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Fikrimcha, tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlanmas ekan, maktab psixologlari ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy tomondan qo'llab-quvvatlanmas ekan, biz bu sohaning ahamiyatini yuqori saviyaga ko'tarishimiz qiyin bo'lib qolaveradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda xulosa qiladigan bo'lsak, xalq ta'limi xodimlari quyidagi ishlarni amalga oshirsa maqsadga muvofiq bo'ladi:

- ushbu sohaning maqsad-vazifalarini keng ommaga targ'ibot tashviqot ishlarini yanada kuchaytirish;

- umumta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan (nomutaxassis) amaliyotchi psixologlarni qayta tayyorlov kurslarida o'qitish;

- tashxis markazi va VXTXQTMOHM hamkorligini kuchaytirishga e'tibor qaratish;

- maktab psixologlariga ilmiy-metodik yordam ko'rsatish ishlarini yanada kuchaytirish; - ilg'or tajribali psixologlar ishlarini o'rganish va ommalashtirishga e'tibor qaratish.

- maktab psixologlari ish faoliyatida qo'llashlari uchun metodik tavsiya va qo'llanmalarni yaratishga ahamiyat berish.

Ushbu vazifalarni maqsad qilib amalga oshirishga e'tibor qaratilishi ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan amaliyotchi psixologlarning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni yanada yaxshiroq anglashlari va o'z vazifalarini siddiqildan bajarishga xizmat qilardi deb o'ylayman. Zero, mustaqil taraqqiyot yo'lida borayotgan mamlakatimizning kelajagi chuqur bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lgan, dunyoqarashi keng, ruhan tetik va yuksak ma'naviyatli yoshlar qo'lidadir. Shunday ekan yoshlarni tarbiyalashda har birimi, kasbimizdan qat'iy nazar mas'ilmiz.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. «Ma'naviy-marifiy islohatlarni yanada chuqurlashtirish va ularning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

Qarori. T.: 1998 yil 24 iyul. 311-son

2. Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni.

«Xalq so'zi» gazetasi 2016 yil 15 sentyabrdagi 182 (6617) – sonida e'lon qilingan. T.: 2016 yil 14 sentbr. O'RQ-406-son

3. 2017-2021 yillar O'zbekiston Respublikasi rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Halq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti. – T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2017. – 244 b.



ИЖТИМОЙ ИНФРАТУЗИЛМА ХИЗМАТЛАРИ КЎРСАТИШНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Хожиев Талъат Тошпулатович

БухДУ 2-боскич магистранти

Телефон: +998-97-307-47-57

Аннотация: ижтимоий инфратузилмаларнинг моҳияти, бугунги кундаг самарадорлиги, хизматлари кўрсатишни ривожлантириш тўғрисида фикрлар ёритилган.

Калит сузлар: ижтимоий инфратузилма, хизмат курсатиш, ижтимоий инфратузилмани ривожлантириш

Хозирги кунда иқтисодиётда ижтимоий инфратузилмалар фаолияти самарадорлиги ижтимоий инфратузилма корхоналари томонидан кўрсатилаётган хизматлар сифати ва самарадорлигига катта боғлиқ. Ижтимоий инфратузилма корхоналарининг асосий функционал вазифаси хизмат кўрсатишнинг узлуксизлигини таъминлаш, унга турли шаклдаги хизматларни кўрсатишдан иборат. Шу билан бирга хизмат кўрсатиш харажатларини камайтириш, товар шаклидаги хизмат турларини кенгайтириш ва аҳолига бу турдаги хизматлардан самарали фойдаланишлари учун қулайликлар яратиш, пировард натижада аҳолининг турмуш фаровонлигини оширишдир.

Ижтимоий инфратузилма хизматлари кўрсатиш соҳасини бошқариш тизимини ислоҳ қилиш, моддий ресурслардан оқилона фойдаланиш борасидаги илғор технологияларни жорий этишни таъминлаш энг муҳим вазифадир.

Кейинги йилда Таълим ва тиббий хизмат кўрсатиш сифатини ошириш, муҳандислик-коммуникация ва йўл-транспорт инфратузилмасини ривожлантириш, лойиҳаларни тайёрлаш жараёнида маҳаллий давлат ҳокимияти органлари иштирокини кенгайтириш ва якуний натижаларга эришиш юзасидан мутасадди раҳбарларнинг масъулиятини ошириш, шунингдек, 2021 — 2023 йилларда Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш бўйича Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш дастурларини шакллантиришга доир ташкилий чора тадбирлар тўғрисида қарор қабул қилинди. Шу билан бирга, Ўзбекистон Республикаси ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш дастурлари доирасида қуйидаги тадбирларни молиялаштириш учун алоҳида сатрларда маблағлар кўзда тутилган:

а) эркин иқтисодий зоналарни, кичик саноат зоналарини ҳамда тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар иштирокидаги йирик ишлаб чиқариш лойиҳаларини муҳандислик-коммуникация инфратузилмаси билан таъминлаш;

б) туман марказлари ва шаҳарларнинг меъморий қиёфасини замонавийлаштириш ва ободонлаштириш. Бунда Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари ажратилган маблағлар ҳисобидан қуйидаги ишларни амалга ошириш:

туман марказлари, шаҳарлар ва йирик аҳоли пунктларида парк зоналарини ривожлантириш, ташқи ёритиш, суғориш ва дренаж тизимларини яратиш, шунингдек, пиёда ва велосипед йўлакларини қуриш;

ҳар бир туман маркази ва шаҳарда камида биттадан марказий кўчани замонавий шаҳарсозлик лойиҳалари асосида режалаштирган ҳолда мукамал таъмирлаш.

2022 йилдан бошлаб бюджет ташкилотларининг бюджетдан ташқари жамғармалари ҳисобидан амалга оширилаётган лойиҳалар Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш дастурларига киритилган.

Шаҳарлар ва шаҳар типдаги посёлкаларининг бош режаларини, шунингдек, қишлоқлар (овуллар) фуқаролар йиғинлари ҳудудларини архитектура-режалаштириш жиҳатидан ташкил этиш лойиҳаларини ишлаб чиқиш бўйича буюртмачи функциялари Қорақалпоғистон Республикаси Қурилиш вазирлиги, вилоятлар ва Тошкент шаҳар қурилиш бош бошқармаларига ўтказилди.

Қурилиш вазирлиги Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва



Тошкент шаҳар ҳокимликлари билан биргаликда туман маркази ва шаҳарларнинг бош режалари ҳамда батафсил режалаштириш лойиҳалари ва қишлоқ аҳоли пунктларини меъморий режалаштиришни ташкил этиш лойиҳаларини ишлаб чиқиши белгиланди.

2021 йилда инжиниринг хизматларини кўрсатиш учун эксперимент тариқасида хусусий тадбиркорлик субъектлари жалб этилди.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати:

1. 2022 — 2024 йилларда Ўзбекистон республикасининг ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон республикаси Президентининг қарори 22.01.2022

2. Ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш дастури. 04.01.2021

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 10-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович

Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович

Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.04.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000